O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

“QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH: ILM VA INNOVATSIYA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy texnik anjuman

ILMIY ISHLAR TO‘PLAMI

2-QISM

25-26 aprel
Farg‘ona-2024

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash: ilm va innovatsiya. // Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman to‘plami. 2 qism.–Farg‘ona. FarPi, 2024. -428 b.

Xalqaro anjuman respublikamiz va xorijiy professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va bir qator iqtidorli talabalar hamda magistrantlar olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish, amaliy va innovasion loyihalar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish, ilmiy tadqiqot ishi olib borayotgan yoshlarni faol bo‘lishi uchun qo‘llab-quvvatlash, mustaqil ijodiy fikrlaydigan yetuk ilmiy xodim sifatida shakllanishiga shart-sharoit yaratish, komil inson va barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu to‘plamga anjumanda ishtirok etgan respublikamiz va xorijiy professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va bir qator iqtidorli talabalar hamda magistrantlarning qishloq xo‘jalik texnikalari, mashinasozlik, transport, avtomobilsozlik, mexanika, materialshunoslik, quymachilik va oziq-ovqat va agrotexnologiyalar, qishloq xo‘jalik mashinalari, robotlar va mexatronika, kimyoviy texnologiya, texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish va avtomatlashtirish, energiya tejamkor texnika va texnologiyalar va muqobil energiya manbalari kabi yo‘nalishlarda olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari kiritilgan.

Xalqaro anjuman materiallari professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar hamda fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislarga ham foydali manba sifatida xizmat qiladi.

Ma’sullar:
prof,. t.f.d. Nabiyev T.S.
dot. t.f.d. (DSc)Xusanov Y.Y.
PhD. Xaydarova O.M.

ILMIY VA ILMIY TEXNIK ANJUMANNING TASHKILIY QO‘MITASI

Raisi: Salomov O‘ktam Rahimovich, t.f.d., professor, FarPI rektori

Rais o‘rinbosarlari:

Ergashev Sirojiddin Fayazovich, t.f.d., professor, FarPi

Nabiyev To‘xtamurod Saxobovich, t.f.d., professor, FarPi

Xusanov Yunusali Yuldashaliyevich, t.f.d.(DSc), dotsent, FarPi

Ilmiy kotib: Xaydarova Ozodaxon Musajonovna, f.m.f.d. (PhD), FarPi

Tashkiliy qo‘mita a’zolari

Shavazov Q.O.	t.f.d. Milliy tadqiqot universiteti prof.
Zulpiyev A.M.	t.f.d., O‘sh davlat universiteti professori (Qirg‘iziston)
Muxammadiyev A.	t.f.d. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti prof.
Karpov M.V.	t.f.d. Moskva davlat agrar universiteti profesori, (Rossiya)
G‘aniyev M.M.	t.f.d. Qozon federal universiteti, profesori (Rossiya)
Mamajonov A.M.	t.f.d. Toshkent davlat texnika universiteti profesori
Shokirov B.M.	t.f.d. Andijon qishlok xo‘jaligi va agrotexnoligiya instituti professori
Nazarmatov O.S.	i.f.d. (DSc), Mexanika-mashinasozlik fakulteti dekani, FarPi
Jahongirov I.J.	i.f.d.(DSc) Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, FarPi
Salimov A.A.	i.f.d. Moliya, iqtisod ishlar bo’yicha prorektor, FarPi
Dehqonov Sh.A.	Farg‘ona politexnika instituti birinchi prorektor
Dadajonov B.A.	Farg‘ona politexnika instituti xodimlar kasaba uyushmasi raisi
Tojiyev R.J.	“Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasi mudiri, FarPi
Xamrakulov Z.A.	t.f.d.Farg‘ona politexnika instituti professori
Davidbayev B.N.	t.f.n.,“Tadbiqiy mexanika” kafedrasi professori, FarPi
Hamzayev I.	t.f.n.,“Tadbiqiy mexanika” kafedrasi dotsenti, FarPi
Sobirjonov T.M.	t.f.n.,“Tadbiqiy mexanika” kafedrasi dotsenti, FarPi
Mirzaxonov Y.U.	t.f.n.,“Tadbiqiy mexanika” kafedrasi dotsenti, FarPi
Davidboyeva N.B.	t.f.f.d.,“Tadbiqiy mexanika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, FarPi
Fayzimatov Sh.N.	t.f.d., Farg‘ona politexnika instituti professori
Ulug‘xojayev R.S.	t.f.f.d., Farg‘ona politexnika instituti dotsenti
Tursunov Sh.T.	t.f.f.d., Farg‘ona politexnika instituti dotsenti
Xametov Z.M.	t.f.f.d., Farg‘ona politexnika instituti dotsenti
Fayzullaev J.I.	p.f.f.d., Farg‘ona politexnika instituti dotsenti
Alimjonova G.I.	p.f.f.d., Farg‘ona politexnika instituti katta o‘qituvchi

KIRISH SO‘ZI

Mamlakatimizda ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va undan samarali foydalanish masalasiga iqtisodiy yuksalishning eng muhim omili sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan davlatimiz tomonidan innovasion texnika va texnologiyalarni yaratuvchilarini qo‘llab-quvvatlab, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirib kelinmoqda.

Hozirgi davrda qishloq xo‘jalik masalalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi, yangi qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyalarining kirib kelishi, energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi, eksportga yo‘naltirilgan, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi hamda mamlakatda valyuta zahiralarining jamg‘arilishi ko‘p jihatdan milliy innovasion faoliyat darajasiga bog‘liqdir.

Farg‘ona politexnika instituti mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun texnika yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi yetakchi oliy o‘quv yurti bo‘lish bilan bir qatorda, ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirishda ham samarali faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurti hisoblanadi.

Farg‘ona politexnika institutining xalqaro anjumanlar rejasiga asosan 2024 yil 25-26 aprel kunlari “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash: Ilm va innovatsiya” mavzusida Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjumani bo‘lib o‘tdi.

Hozirgi kunda xalqaro miqiyosida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosan real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarining dolzarb texnik, texnologik hamda xomashyo muammolari yechimini hal etishga, sanoat korxonalarida sarf-xarajatni kamaytirib, ishlatiladigan xomashyolarni mahalliy materiallarga almashtirishga, energiya va resurs tejamkorligiga erishish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan.

Farg‘ona politexnika institutida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda professor-o‘qituvchilar bilan bir qatorda institutning iqtidorli talabalari, magistrant va katta ilmiy xodim-izlanuvchilari ham keng jalb qilingan. Ilmiy loyihalardan olingan natijalar bo‘yicha iqtidorli yosh olimlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilmoqdalar, ixtiro uchun patent va EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olmoqdalar, xalqaro va respublika miqyosidagi jurnallarda maqolalar va ilmiy ma’ruzalar to‘plamlarida tezislar chop etmoqdalar.

Xalqaro anjumanda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha yalpi va sho‘ba majlislari o‘tkazildi: Qishloq xo‘jalik texnikalarida innovasion texnologiyalar, materialshunoslik va quyma detallari; Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashda resurstejamkor texnologiyalari va innovasion masalalari; Oziq-ovqat va agrotexnologiyalar tarmog‘i mashinalarda dizayn va innovasion texnologiyalari; Qishloq xo‘jalik mashina va mexanizmlarini loyihalash, mexatronika va robototexnika; Transport, avtomobilsozlik, mashinasozlik va qishloq x’jaligi texnikalarida metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirishning o’rni; Mahsulot sifati menejmenti, servis xizmat ko‘rsatish, iqtisodiy va boshqaruv muammolari; Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashda texnologik jarayonlarni

matematik modellashtirish va avtomatlashtirish; Texnika fanlari ta’limida innovasion yondashuvlar, muamolar va yechimlari.

Xalqaro anjumanda ishida 300 dan ortiq ishtirokchi, jumladan xorijiy olimlar, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti” Milliy tadqiqit universiteti, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti olimlari, Farg‘ona politexnika instituti va 15 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari, mustaqil izlanuvchilari, magistrant va iqtidorli talabalari ishtirok etdilar.

Umid qilamizki, e’tiboringizga havola etilayotgan ilmiy ishlar to‘plami ta’lim muassasalari vakillari, keng ilmiy jamoatchilik, ishlab chiqarish va sanoat korxonalari mutaxassislarida katta qiziqish uyg‘otadi.

Salomov O‘ktam Rahimovich
Farg‘ona politexnika instituti rektori

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

Международной научной и научно -технической конференции

“МЕХАНИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА: НАУКА И ИННОВАЦИЯ”

ЧАСТЬ 2

25-26 апреля
Фергана-2024

Механизация сельского хозяйства: наука и инновация. // Сборник международной научной и научно-технической конференции. Часть 2 – Фергана. ФерПи, 2024.-428 с.

Международная конференция была организована с целью анализа результатов исследований, проведенных отечественными и зарубежными профессорами, исследователями и рядом талантливых студентов и магистров, применений практических и инновационных проектов в производстве, поддерживать активность молодых людей, которые проводят научные исследования, создать им условия для формирования самостоятельного творческого мышления как зрелого исследователя, для воспитания идеального человека и гармонично развитое поколение.

В этот сборник включены результаты исследовательской работы, проведенной отечественными и зарубежными профессорами-преподавателями, исследователей и рядом талантливых студентов и магистров, которые участвовали в конференции в направлениях такие как сельскохозяйственные техники, машиностроение, транспорт, автомобилестроение, механика, материаловедение, литейное производство, пищевые и агротехнологии, сельскохозяйственные машины, роботы и мехатроника, химия-технология, математическое моделирование и автоматизация технологических процессов, энергосберегающая техника и технологии, альтернативные источники энергии.

Материалы международной конференции станут полезным ресурсом для профессоров, молодых ученых и специалистов в области науки, образования и производства.

Ответственные лица:

проф.,. д.т.н. Набиев Т.С.
доц., д.т.н.(DSc) Хусанов Ю.Ю..
PhD. Хайдарова О.М.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ КОМИТЕТ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНОЙ И НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

Председатель: Саломов Уктам Рахимович, д.т.н., профессор ФерПИ

Зам. председателя:

Эргашев Сирожиддин Фаязович, д.т.н., профессор ФерПИ

Набиев Тухтамурод Сахобовичб, д.т.н., профессор ФерПИ

Хусанов Юнусали Юлдашалиевич, д.т.н.(DSc) доц. ФерПи

Научный секретарь: Хайдарова Озода Мусажоновна ст. преп. (PhD) ФерПИ

Члены организационного коммитета

Шавазов К.О-д.т.н, проф. Национальный исследовательский университет

Зулпиев А.М- д.т.н, профессор Ошского государственного университета (Кыргызстан)

Мухаммадиев А.М-д.т.н, проф. Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства

Карпов М.В. д.т.н, проф. Московский государственный аграрный университет (Россия)

Ганиев М.М. д.т.н. проф. Казанского федерального университета

Мамаджанов А.М. д.т.н. проф. Ташкентский государственный технический университет

Шокиров Б.М-д.т.н, проф Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий

Назарматов О.С. DSc - д.э.н, декан Механика-машиностроительного факультета, ФерПи

Жахангиров И.Ж-д.э.н, Проректор по международным отношениям, ФерПи

Салимов А.А-д.э.н, Проректор по финансом и экономическим вопросом, ФерПи

Дехканов Ш.А-Первый проректор ФерПи

Дадажонов Б.А -Профсоюз сотрудников, ФерПи

Тожиев Р.Ж - д.т.н., проф. зав.каф «Технологические машины и оборудование», ФерПи

Хамракулов З.А, д.т.н., проф. ФерПи

Давидбаев Б.Н-к.т.н., профессор кафедры «Прикладная механика», ФерПи

Хамзаев И -к.т.н., доцент кафедры «Прикладная механика», ФерПи

Собиржонов Т.М-к.т.н., доцент кафедры «Прикладная механика», ФерПи

Мирзаханов Ю.Ю -к.т.н., доцент кафедры «Прикладная механика», ФерПи

Давидбоева Н.Б -к.т.н., старший преподаватель кафедры «Прикладная механика», ФерПи

Фазиматов Ш.Н-д.т.н., проф., ФерПи

Улугхожаев Р.С. д.т.н (PhD)., доцент, ФерПи

Турсунов Ш.Т-д.т.н (PhD)., доцент, , ФерПи

Хаметов З.М.-к.т.н.PhD., доцент, ФерПи

Файзуллаев Ж.И. .к.п.н. (PhD)., доцент, ФерПи

Алимжонова Г.И. к.п.н. (PhD)., доцент, ФерПи

ВВЕДЕНИЕ

В нашей стране особое внимание уделяется развитию научно-технического потенциала и его эффективному использованию в качестве важнейшего фактора экономического роста. Поэтому наше государство поддерживает создателей инновационной техники и технологий, поощряет их материально и духовно.

В настоящее время успешное решение сельскохозяйственных проблем, приход новой механизации сельского хозяйства, внедрение ресурса и энергосберегающих технологий в практике, производство экспортно-ориентированных, импортозамещающих продуктов и накопление валютных резервов в стране во многом зависят от уровня деятельности национальных инноваций.

Ферганский политехнический институт является одним из ведущих институтов в области подготовки кадров по техническим направлениям для экономики страны, а также эффективным высшем учебным заведением интеграции образования, науки и промышленности.

Согласно плану международных конференций Ферганского политехнического института, 25-26 апреля 2024 года состоялась Международная научная и научная -техническая конференция на тему «Механизация сельского хозяйства: наука и инновация».

В настоящее время проводимые международные исследования в основном направлены на решение глобальных технических, технологических, а также, сырьевых проблем предприятий в реальной экономике, сокращение затрат на промышленных предприятиях, замену использованного сырья местными материалами, повышение экономической эффективности за счет экономии энергии и ресурсов.

В Ферганском политехническом институте при выполнении научно-исследовательских работ наряду с профессорами и преподавателями активно привлечены талантливые студенты, магистры и старшие научные сотрудники. По полученным результатам научных проектов талантливые молодые ученые успешно защищают свои магистерские и докторские диссертации, получают патенты на изобретения и свидетельство на программное обеспечение для ЭВМ, публикуют статьи и тезисы в международных и национальных сборниках.

На международной конференции были проведены общие и отраслевые собрания по следующим направлениям: Инновационные технологии в сельскохозяйственной технике, материаловедение и литейные детали; Ресурсосберегающие технологии и инновационные проблемы механизации сельского хозяйства; Сеть пищевая и агротехнологическая, инновационные

технологии и дизайн в машинах; Проектирование сельскохозяйственных машин и механизмов, мехатроника и робототехника; Роль метрологии, стандартизации и сертификации в транспорте, автомобилестроении, машиностроении и сельскохозяйственной техники; Менеджмент, качество сельскохозяйственной продукции, проблемы сервиса, экономики и управления; Математическое моделирование и автоматизация технологических процессов в механизации сельского хозяйства; Инновационные подходы, проблемы и решения в образовании технических наук.

На международной конференции приняли участие более 300 участников, в том числе иностранные ученые, Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт ирригации и механизации сельского хозяйства. Учёные научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства, профессора, исследователи, старшие научные сотрудники, соискатели, магистранты и одаренные студенты Ферганского политехнического института и более 15 высщих учебных заведений. Надеемся, что сборник научных трудов будет представлять большой интерес для представителей учебных заведений, общего научного сообщества, специалистов производства и промышленных предприятий.

Ректор Ферганского
политехнического института
Уктам Рахимович Саломов

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
FERGANA POLYTECHNIC INSTITUTE

PROCEEDINGS OF THE CONFERENCE

International Scientific and Scientific- Technical Conference on

“MECHANIZATION OF AGRICULTURE: SCIENCE AND INNOVATION”

PART 2

April 25-26
Fergana-2024

Mechanization of agriculture: Science and Innovation. // Collection of the international scientific and scientific-technical conference. Part 2 -Fergana, FerPi 2024. -428 p.

The international conference is organized with the aim of analyzing the results of studies conducted by domestic and foreign professors, researchers and a number of talented students and masters, the application of practical and innovative projects in production, the support and active participation of young researchers in order to create the conditions for them to form independent creative thinking as mature researcher, educate the ideal person and harmoniously developed generation.

This collection includes the results of research conducted by domestic and foreign professors and teachers, researchers and a number of talented students and masters who participated in the conference in such fields as mechanical engineering, mechanics and agricultural machinery, food and agricultural technologies, ecology, biomedicine, biotechnology, food chemistry and chemical technology, mathematical modeling and automation of technological processes, energy-saving technologies and alternative energy sources.

This collection includes the results of research work carried out by domestic and foreign professors, teachers, researchers and a number of talented students and masters who participated in the conference in areas such as agricultural machinery, mechanical engineering, transport, automotive engineering, mechanics, materials science, foundry, food and agrotechnologies, agricultural machines, robots and mechatronics, chemistry technology, mathematical modeling and automation of technological processes, energy-saving equipment and technologies, alternative energy sources.

The materials of the international conference will become a useful resource for professors, young scientists and specialists in the field of science, education and production.

Responsible:

Prof,. DSc. Nabiyev T.S.
Prof,. DSc. Xusanov Y.Y.
PhD. Xaydarova O.M.

ORGANIZING COMMITTEE OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND SCIENTIFIC-TECHNICAL CONFERENCE

Chairman: Salomov O‘ktam Rahimovich, DSc, prof., rector, FerPi

Vice Chairmen:

Ergashev Sirojiddin Fayazovich, DSc, prof, FerPi

Nabiyev To‘xtamurod Saxobovich, DSc, prof, FerPi

Xusanov Yunusali Yuldashaliyevich, DSc, prof, FerPi

Secretary: Xaydarova Ozodaxon Musajonovna, PhD, FerPi

Members of the organizing committee

Shavazov Q.O. DSc. Professor of National Research University prof.

Zulpiyev A.M. DSc, Professor of Osh State University (Qirg‘iziston)

Muxammadiyev A. DSc, Professor of Agricultural Mechanization Research Institute.

Karpov M.V. DSc. Professor of Moscow State Agrarian University, (Russia)

G‘aniyev M.M. DSc. Kazan Federal University, professor (Russia)

Mamajonov A.M. DSc. Professor of Tashkent State Technical University

Shokirov B.M. DSc. Professor of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

Nazarmatov O.S. DSc, Dean of the Faculty of Mechanical Engineering, FerPi

Jahongirov I.J. DSc Vice-rector for international cooperation, FerPi

Salimov A.A. PhD. Vice-Rector for Finance, Economic Affairs, FerPi

Dehqonov Sh.A. First vice-rector of Fergana Polytechnic Institute

Dadajonov B.A. Chairman of the Fergana Polytechnic Institute employees' union

Tojiyev R.J. Head of the "Technological machines and equipment" department, FerPi

Xamrakulov Z.A. DSc. Professor of Fergana Polytechnic Institute

Davidbayev B.N. PhD., Professor of the "Applied Mechanics" department, FerPi

Hamzayev I. PhD., associate professor of "Applied Mechanics" department, FerPi

Sobirjonov T.M. PhD., associate professor of "Applied Mechanics" department, FerPi

Mirzaxonov Y.U. PhD., associate professor of "Applied Mechanics" department, FerPi

Davidboyeva N.B. PhD., associate professor of "Applied Mechanics" department, FerPi

Fayzimatov Sh.N. DSc., Professor of Fergana Polytechnic Institute

Ulug‘xojayev R.S. PhD., associate professor of Fergana Polytechnic Institute, FerPi

Tursunov Sh.T. PhD., associate professor of Fergana Polytechnic Institute, FerPi

Xametov Z.M. PhD., associate professor of Fergana Polytechnic Institute, FerPi

Fayzullaev J.I. PhD., associate professor of Fergana Polytechnic Institute, FerPi

Alimjonova G.I. PhD., associate professor of Fergana Polytechnic Institute, FerPi

INTRODUCTION

In our country, special attention is paid to the development of scientific and technological potential and its effective use as a major factor in economic growth. Therefore, our state supports the creators of innovative techniques and technologies, encourages them materially and spiritually.

Currently, the successful solution of agricultural problems the arrival of new agricultural mechanization, the introduction of energy-saving technologies, the production of export-oriented, import-substituting products and the accumulation of foreign exchange reserves in the country largely depend on the level of national innovation.

Fergana polytechnic institute is one of the leading universities in the field of training in technical areas for the country's economy, as well as an effective institution for the integration of education, science and industry.

According to the plan of international conferences of the Fergana polytechnic institute, on April 25-26, 2024 year, the International scientific and scientific-technical conference “Mechanization of agriculture: Science and Innovation”.

Currently conducted international scientific-research is mainly aimed at solving global technical, technological and raw materials problems of enterprises of the real economy networks, reduction of costs at industrial enterprises, replacement of raw materials with local materials, increase of economic efficiency due to saving of energy and resources.

When conducting scientific-research works at the Fergana polytechnic institute, along with professors and teachers, talented students, masters and senior researchers of the university are actively involved. Based on the results of scientific projects, talented young scientists successfully defend their master's and doctoral dissertations, receive patents for inventions and a certificate for computer software, publish articles and thesises in international and national proceedings.

At the international conference, general and industry meetings were held in the following areas: innovative technologies in agricultural machinery, materials science and foundry details; resource-saving technologies and innovative problems of mechanization of agriculture; food and agrotechnological network innovative technologies and design in machines; design of agricultural machines and mechanisms, mechatronics and robotics; the role of metrology, standardization and certification in transport, automotive industry, mechanical engineering and agricultural machinery; management of the quality of agricultural products, problems of service, economics and management; mathematical modeling and automation of technological processes in mechanization of agriculture; innovative approaches, problems and solutions in the education of technical sciences.

The international conference was attended by more than 300 participants, including foreign scientists, National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization", Research Institute of Agricultural Mechanization professors, researchers, senior researchers, applicants, undergraduates and gifted students of Fergana polytechnic institute and more than 15 universities.

We hope that the proceedings of scientific works will be great interest to representatives of educational institutions, the general scientific community, specialists in production and industrial enterprises.

Rector of Fergana polytechnic institute
Salomov O‘ktam Rahimovich

5- SHO‘BA

TRANSPORT, AVTOMOBILSOZLIK, MASHINASOZLIK VA QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISHNING O’RNI

5- СЕКЦИЯ

РОЛЬ МЕТРОЛОГИИ, СТАНДАРТИЗАЦИИ И СЕРТИФИКАЦИИ В ТРАНСПОРТЕ, АВТОМОБИЛЕСТРОЕНИИ, МАШИНОСТРОЕНИИ И СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКЕ

5-SECTION

THE ROLE OF METROLOGY, STANDARDIZATION AND CERTIFICATION IN TRANSPORT, AUTOMOTIVE INDUSTRY, MECHANICAL ENGINEERING AND AGRICULTURAL MACHINERY

GIDROTEXNIK INSHOOTLARNI LOYIHALASHDA ME'YORIY XUJJATLARNI XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Abduqahhor Abduvaliev
“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muxandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada gidrotexnik inshootlarni loyihalashda me'yoriy xujjatlarni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish asoslari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Gidrotexnik inshoot, me'yoriy xujjatlar, standartlash.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni gidrotexnika inshootlari xavfsizligining qonuniy asoslarini tashkil etsa, ushbu inshootlarga me'yoriy talablar standartlashtirish bo‘yicha xujjat-larda belgilangan. O‘zbekistonda amalda bo‘lgan qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ) va davlatlararo standart (GOST) larda gidrotexnika inshootlarini loyiha-lashga talablar keltirilgan. ”Qurilish me'yorlari va qoidalari”ning oltinchi guruhida gidrotexnika, energetika va meliorasiya tizimlari inshootlari uchun me'yor va qoidalar belgilangan. Aksariyat maxalliy me'yoriy xujjatlarda keltirilgan talablar xalqaro darajadagi talablarga javob bermaydi.

Masalaning qo‘yilishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6024-son Farmoniga ko‘ra [3], suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi ob'ektlarining xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta'minlash uchun xorijiy ilg‘or tajribasini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, loyihalash bo‘yicha xalqaro standartlarni amaliyotda qo‘llash yuzasidan takliflar tayyorlash kerakligi, malakali kadrlarni tayyorlash, ilm-fan yutuqlari va nou-xaularni ishlab-chiqarishga joriy qilish yo‘nalishini amalga oshirish uchun zamonaviy sug‘orish tizimlarining huquqiy va normativ bazasini xalqaro standartlar va texnik standartlarga muvofiq takomillashtirish kerakligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublika Prezidentining 13.03.2020 yildagi PF-5963-sonli Farmoni [4] da 2028 yil oxirigacha O‘zbekiston hududida shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xorijiy me'yoriy hujjatlarni milliy me'yoriy hujjatlar bilan bir vaqtda qo‘llash tizimini joriy etish, xorijiy me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlangan loyihalash hujjatlarini mahalliy loyihalash va tadqiqot tashkilotlarini jalb qilish bilan moslashtirish kerakligi ko‘rsatilgan. Farmonda O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy me'yoriy hujjatlar bilan bir vaqtda shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xorijiy me'yoriy hujjatlar (xususan, Yevrokodlar) qo‘llanilishi kerakligi belgilan-gan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2018 yildagi PF-5392-son Farmoni [5] da “Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy xujjatlar eskirgan va arxitektura-qurilish ishlarining innovasion usullaridan keng foydalani-lishini hisobga olmaydi, loyiha-smeta hujjatlari va qurilish sifatiga salbiy ta'sir qiladi” va bu holatlarni bartaraf etish uchun “xalqaro miqyosda tan olingan qurilish xavfsizligi norma va qoidalarini joriy qilish kerak” deb ko‘rsatilgan.

Yechish usuli

O‘zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan respublikamizda, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligining majburiy talablari o‘rnatilishi va qo‘llanilishi, ularga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati amalga oshirilishi belgilangan texnik jihatdan tartibga solishning davlat tizimi o‘rnatildi. Qonunda texnik reglamentlar va standartlar (jumladan, shaharsozlik normalari hamda qoidalari) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar toifasiga taaluqli ekanligi, texnik reglamentlarni ishlab chiqishda mahsulotlar va xizmatlarning xavfsizlik mezonlarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlardan foydalanish kerakligi belgilangan.

Gidrotexnik inshootlarni loyixalash, qurish bo‘yicha tizimni yanada isloh qilinishi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi maksadga muvofiqdir:

gidrotexnik inshootlarni loyixalash, qurish soxasi bo‘yicha standartlashtirishni boshqaruv asoslarini xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

halqaro va mintaqaviy standartlarni gidrotexnik inshootlarni loyixalash va qurishda keng ko‘lamda qo‘llanilishini ta'minlash;

halqaro me'yorlarga uyg‘unlashtirilgan gidrotexnika inshootlar uchun yagona havfsizlik talablari belgilangan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chikish va joriy etish;

gidrotexnika inshootlarida qo‘llaniladigan konstruksiyalar va materiallar uchun umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chikish va joriy etishda mavjud xalkaro (regional) me'yoriy hujjatlarni asos kilib olinishini rag‘batlantirish;

gidrotexnika inshootlariga tegishli yo‘nalishda texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining ishlashi va rivojlanishini hamda shu sohada ilmiy – texnik ma'lumot tarqatilishini ta'minlash;

“O‘zbekistonda gidrotexnika inshootlarni loyixalash, qurishni takomillashtirish, soxa zamonaviy me'yoriy bazasini shakllantirish Konsepsiyasi” ishlab chiqilishi, joriy etilishini ta'minlash va uni amalga oshirish Dasturini qabul qilish.

Soxaga gidrotexnika inshootlari konstruksiyalari va materiallarining, gidrotexnika inshootlaridan foydalanish jarayonlarining muvofiqligini baholash tizimini xamda xalqaro sifatni boshqarish tizimlari (ISO 9000, ISO 14000) ni joriy etish kerak bo‘ladi.

Inshootlarni, xususan gidrotexnik inshootlarni qurish va loyixalashning ilg‘or xalqaro amaliyoti Yevropa Ittifoqida qo‘llaniladigan Yevrokodlar (evrostandartlar) bo‘lib, ular o‘nta guruxga ajratilgan. Ushbu standartlarni milliy loyixalash tizimiga joriy etish milliy me'yorlarni xalqaro amaliyotga uyg‘unlashtirish va ilhor texnolo-giyalarni respublikada qo‘llash imkoniyatini beradi. Gidrotexnika inshootlarni loyixalash, qurishda texnik jihatdan tartibga solishga asos qilib, xalqaro prinsiplar, qoidalar va standartlarni, nazoratning xalqaro amaliyotini, xamda O‘zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilik talablari olinishi kerak.

Natijalar

Qayd etilgan ishlarni amalga oshirilishi gidrotexnik inshootlar ob'ekt-lariga yo‘naltirilgan me'yoriy-huquqiy talablarni O‘zbekistonda amalda bo‘lgan qonunchilik talablariga va sohadagi xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish, shu jumladan, soxa doirasiga kiruvchi faoliyatda uchraydigan ma'muriy to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha Xalqaro savdo tashkiloti kelishuvlariga uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutadi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirilgan gidrotexnik inshootlar xavfsizligini ta'minlashning mukammal me'yoriy-xuquqiy bazani yaratish;
- respublikada ishlab chiqarilgan qurilish materiallari va konstruksiyalari xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek ichki bozorni xavfli mahsulotlardan himoyalash;
- gidrotexnik inshootlarni loyixalash, qurishga tegishli sinov, kalibrlash va qiyoslash laboratoriyalari, muvofiqlikni baholash sohasidagi tashkilotlarining texnik omilkorligini oshirish hamda ish natijalarini xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash.

Gidrotexnik inshootlarni loyixalash, qurish faoliyati bo‘yicha qonun hujjatlarini halqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish kelgusida soxa bo‘yicha halqaro tizimlarda faol ishtirok etishga imkon yaratadi.

Xulosa

Belgilangan maqsadga erishish va vazifalarni bajarish uchun gidrotexnik inshootlarni loyixalash, qurish bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solishning samarali tashkiliy tuzilmasi faoliyat ko‘rsatishi va tizimning xar bir tarkibiy qismida uni muvofiqlashtiruvchi (texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, davlat tekshiruvi va nazorati bo‘yicha) va ishchi idoralari (standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar, jamoat tashkilotlari va ilmiy muassasalar, soha mutaxassislari, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar) aniqlangan bo‘lishi kerak.

Yuqorida qayd etilganlar gidrotexnik inshootlarni loyixalash, qurishning mukammal me'yoriy-xuquqiy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida» Qonuni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2023 y., 03/23/819/0113-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son)
2. O‘zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.08.2023 y., 03/23/865/0664-son)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi 10.07.2020 yildagi PF-6024-son Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi 13.03.2020 yildagi UP-5963-sonli Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 02.04.2018 yildagi PF-5392-son Farmoni

ЛОГИСТИКА ДЛЯ ДОСТАВОК СКОРОПОРТЯЩИХСЯ ПРОДУКТОВ

Эргаш Шомирзаев
Термезский инженерно-технологический институт, ergashshomir260@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы цепочки поставок пищевых продуктов, сохранение и доставок скоропортящихся товаров. Требование о международных перевозках скоропортящихся пищевых продуктов и потребность в «температурной» логистике.

Ключевые слова: *логистические системы, холодовые цепи, транспортная инфраструктура, трекер, датчик, транспортные расходы.*

Введение

Цепочки поставок пищевых продуктов считаются более сложными системами, чем цепочки поставок других типов. Эта сложность связана с постоянными изменениями, которые происходят, особенно в обеспечении качества пищевых продуктов по всей цепочке поставок, от выращивания, закупки ресурсов, производства и управления запасами до распределения конечным потребителям. Для этого рынки цепочки поставок пищевых продуктов стали более развитыми с использованием современных технологий и начали внедрять их в свои логистические системы для удовлетворения потребностей своих клиентов. Основные цели этого обзора - выявить различные технологические реализации на разных этапах процессов цепочки поставок пищевых продуктов и указать ключевые факторы использования технологий для улучшения характеристик цепочки поставок скоропортящихся пищевых продуктов.

Метод

Логистику для скоропортящихся товаров часто называют «Холодовые цепи поставок» - это комплекс мероприятий по поддержанию температуры, влажности, воздухообмена и других параметров, необходимых для сохранения свойств товара на всем пути его перемещения — от производства до потребителя.

Высоким уровнем квалификации должны обладать не только сотрудники на производстве и в точках сбыта, но и персонал, занятый на распределительных складах, сотрудники транспортных компаний.

Холодильные помещения, предназначенные для поддержания температур в интервале от 0 до+6 градусов. В этом режиме обычно хранят продукты питания, охлажденные полуфабрикаты, зелень, овощи, фрукты, а также многие фармацевтические и косметологические препараты.

Согласно требованиям СПС (Соглашение о международных перевозках скоропортящихся пищевых продуктов и о специальных транспортных средствах, предназначенных для этих перевозок), авторефрижераторы должны быть оснащены

независимыми регистраторами температуры. С его помощью водитель может официально подтвердить, что заданные температурные условия были соблюдены при перевозке груза.

Результат

Рефрижераторы, имеющие в своей конструкции климатическую установку. Наличие климатической установки позволяет активно поддерживать заданную температуру. Рефрижераторы применяют для перевозки товаров в замороженном виде или тех, для которых изменения температуры в 1–3 градуса могут стать критичными.

Рис-1. Автомобильные рефрижераторы

Carrier – один из крупнейших производителей холодильных установок для поддержания заданной температуры в полуприцепе. Для отображения и записи точного уровня температуры, времени и режима работы в рефрижераторе служит регистратор DataCold. В связке с GPS трекером он позволяет удаленно контролировать работу рефрижератора и получать в системе Wialon все необходимые актуальные данные.

Рис-2. Регистратор DataCold

Изотермические кузова и контейнеры, принцип действия которых заключается в сохранении температуры за счет герметичности и теплоизоляции их конструктивных элементов. Могут использоваться, например, для перевозки охлажденной продукции, которая не требует отрицательных температур и мало чувствительна к температурным перепадам.

Для контроля используется такое оборудование, как термометры, гигрометры, терморегистраторы, а также системы удаленного слежения за температурой груза, работой холодильных установок, местоположением груза в процессе транспортировки.

Необходимо знать, что для холодовой цепи поставок один из ключевых факторов – это время, затраченное на логистику. сроки доставки «скоропортящихся продуктов» гораздо более ограничены по сравнению с другими товарами.

Рис-3. Устройство рефрижератора

Потребность в «температурной» логистике растет год от года. Активно развивается рынок охлажденной и замороженной продукции. Ставшие популярными у населения идеи здорового питания и стремление людей к здоровому образу жизни требуют «температурной» логистики высокого качества. Однако, качественному обеспечению холодовой цепи поставок препятствует ряд проблем, сложившихся в логистической отрасли и за ее пределами. Перечислим лишь наиболее значимые:

1. Персонал плохо обучен, не достаточно мотивирован, плохо контролируем, нередко нарушает установленный температурный режим на этапах хранения и перевозки.

2. Оборудование для холодовых цепей дорогое, значительно повышает себестоимость продукции и далеко не все компании могут себе позволить оборудование необходимого качества.

3. Не получило должного развития применение систем непрерывного контроля температуры каждой партии с помощью датчиков, которые в онлайн режиме передают данные в систему контроля. Только непрерывность контроля позволяет своевременно предотвратить нарушение условий хранения.

4. В законодательстве не достаточно подробно оговорены требования к перевозке и хранению товаров в холодовой цепи поставок. Усилия логистических компаний по обеспечению качественной логистики на всем протяжении холодовой цепи не поддерживаются требованиями законодательства.

5. Слабо развита транспортная инфраструктура при значительных географических расстояниях, что увеличивает транспортные расходы.

6. Большое количество посредников между производителем и конечным потребителем приводит к многократным перегрузкам товаров и, как следствие, значительным температурным колебаниям.

Стоит отметить, что решение проблем, традиционно, сложившихся в холодовых цепях поставок возможно лишь совместными усилиями производственных, торговых и логистических компаний, потребительского сообщества, при разумном вмешательстве государства.

Выводы

Некоторые из различных технологий, используемых на разных этапах цепочки поставок пищевых продуктов, включают радиочастотную идентификацию (RFID), Интернет вещей (IoT), блокчейн, трехмерную печать (3DP), автономные транспортные средства и беспилотные летательные аппараты (БПЛА). Эти технологии были обнаружены на разных этапах цепочки поставок пищевых продуктов и повысили эффективность поставок скоропортящихся продуктов. Обзор выявил различные характеристики цепочки поставок скоропортящихся пищевых продуктов. Основной вывод показал, что внедрение технологий повышает эффективность и устойчивость цепочек поставок скоропортящихся пищевых продуктов и помогает сохранить характеристики скоропортящихся пищевых продуктов.

Список использованные литературы:

1. Правдина, Н.В. Транспортное обеспечение коммерческой деятельности: учебно-методическое пособие /Н.В. Правдина. -Ульяновск: УлГТУ, 2007.– 95 с.
2. Единая транспортная система: Учебник для вузов / В.Г. Галабурда, В.А. Персианов, А.А. Тимошин и др./ Под ред. В.Г. Галабурды. 2-е изд. с измен. и дополн. - М.: Транспорт, 2001. – 303 с.
3. Морской словарь. Скоропортящиеся грузы [Электронный ресурс]. Режим доступа: attachment:/241/ГРУЗЫ.htm
4. О правилах перевозки скоропортящихся грузов [Электронный ресурс]. Режим доступа: attachment:/228 / Грузы_Скоропортящиеся.htm
5. Перевозка скоропортящихся грузов: Справочник А.П. Леонтьев, В.Д. Ткачев, И.И. Батраков и др. - М.: Транспорт, 2006, - 304 с.
6. Неруш Ю.М. Логистика: Учебник для вузов. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 495 с.
7. Соглашение СПС о международных перевозках скоропортящихся пищевых продуктов и о специальных транспортных средствах, предназначенных для этих перевозок [Электронный ресурс]. Режим доступа: www.unece.org/trans /main/wp11/wp11fdoc/Atprus.pd
8. Creating an effective China «cold supply chain», Accenture, 2006.
9. DIN 8959 «Warmegedammte Beforderungsmittel fur Lebensmittel. Anforderungen und Priifling».
10. Exchange of information between ATP Member States. TRANS/WP.l 1/2004/6
11. Fechner I., Wielkopolski park logistyczny potreby i mozliwosci realizacji, Materialy Konferencji Naukowo-Technicznej, Centra logistyczne w Wielkopolsce, Poznan 21 marca 2003 r.
12. Freight Logistics and Transport Systems in Europe: Trends in the location of European industry and its interaction with logistics and transport, European Council of Applied Sciences and Engineering, 2001, p. 208.
13. Freight Transport Logistics in Europe the key to sustainable mobility
14. Hannu Kaipio, Simo Leppanen. Distribution systems of the food sector in Russia: the perspective of Finnish food industry. Lappeenranta, 2005. - 122 P
15. Klie L. Squeezing Out Costs//Food Logistics. 2004 - № 3
16. Thiel D. Reduce Out of Stocks In Six Steps//Food Logistics. 2004 - № 8

АҲМАД АЛ-ФАРҒОНИЙНИНГ МЕТРОЛОГИЯ ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Мирзобаҳром Негматов, Олимжон Эгамбердиев, Мухсинжон Юлдашев
Наманган муҳандислик-қурилиш институти, E-mail: *ifora_2021@mail.ru*

Аннотация. Мақолада метрология фани ривожига улкан хисса қўшган, ғарбда Альфраганус тахаллуси билан танилган машҳур ўзбек олими Ахмад ал-Фарғоний ва у яратган Нил дарёси суви сатҳини ўлчовчи ажойиб иншоот-“Миқёс-ан-Нил” ҳақида қисқача

маълумотлар келтирилган. Иншоот ҳозирги кунга қадар ўзининг илмий қимматини йўқотмаган.

Таянч сўз ва иборалар: *метрология, сув сатҳи, ўлчаш аниқлиги, антропометрия, араб тирсак бирлиги, сув ўлчаш устуни, Ниломер, сувнинг лойқалик кўрсаткичи.*

Кириш

Метрология (юнонча сўз бўлиб, μετρου–ўлчов, ўлчаш, λόγος–мантиқ, фан маъносини англатади) – ўлчашлар, уларнинг бирлигини таъминлаш усуллари ва воситалари ҳамда талаб этилган аниқликка эришиш йўллари ҳақидаги фандир. Маълумки, ўлчашлар-бу бирор катталикнинг тавсифини муайян бирликларда ифодаланган қийматини кўзда тутилган мақсадга мувофиқ даражадаги аниқликда топиш ва тавсия этиш демакдир.

Ўлчашлар, уларнинг воситалари ва усулларини такомиллаштириш борасида Марказий Осиё олимларининг ҳиссалари беқиёсдир. Уларнинг минг йиллар аввал яратган ўлчаш асбоблари, ўлчовлари ва усуллари ўрта асрлардаги ва ҳозирги кунимиздаги илм-фан тараққиётида муносиб ўрин эгаллаб, янги ўлчаш ва ўлчов бирликларини яратилишига асос бўлиб хизмат қилган.

Методлар

Милодий VIII-IX асрлардан кейинги даврлар Марказий Осиёда илм-фанни гуркираб ривожланиши ва бу борада эришилган улкан ютуқлар билан ажралиб туради. Ушбу илм-фан, маданий - маърифий соҳаларидаги муваффақиятлар ғарбнинг қатор фан соҳаларининг шаклланишида ва ривожланишида асос бўлиб хизмат қилган. Бунда айниқса Бағдоддаги “Байтул хикма” (Донишмандлар уйи) нинг буюк олимлари Муҳаммад Ал-Хоразмий, Аҳмад ал-Фарғоний, Ибн Сино ва Абу Райхон Берунийларнинг ҳиссалари алоҳида эътиборга лойиқ. Ал-Хоразмий ва Аҳмад ал-Фарғонийларнинг хандаса (Геометрия) илмидан ёзган асарлари узоқ йиллар давомида ғарб давлатларида дарслик сифатида қўлланиб келган.

Ўрта асрларда (797 - йилда Фарғона водийсининг Кубо (Қува) қишлоғида туғилиб, 861 - йилда Мисрнинг Фустат шаҳрида вафот этган) яшаб ўтган Аҳмад ал-Фарғоний (тўлиқ исми Абул Аббос Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Касир ал-Фарғоний) астрономия, математика, география, геодезия ва бошқа илмий йўналишларда фаолият кўрсатган. Шарқда Ал-Фарғоний, Европада Алфраганус (Alfraganus) таҳаллуслари билан машҳур бўлган. Олимнинг исми фан тарихида машҳур бўлишига қарамасдан, унинг ҳаёти ва илмий фаолияти тўғрисида жуда оз, у ҳам бўлса, узуқ-юлуқ маълумотлар сақланган.

Аллома яшаб ўтган давр, унинг ҳаёт йўли, табиий фанлар бўйича қолдирган мероси араб тарихчилари – Ибн ал-Надим, Ибн ал-Кифтий, Абул Фараж Бар Эбрей ва Хожи Халифа, ўзбек олимлари – Қори Ниёзий, Я.Ғуломов, А.Аъзамов, Р.Тожиев, О.Файзуллаев, Ф.Хикматов, рус шарқшунослари – М.Б.Пиотровский, И.Ю.Крачковский, А.П.Юшкевич, инглиз олимлари – А.К.Бисвас, Х.Херст томонидан бақадри имкон ўрганилган. Биз эса, мазкур олимларнинг Аҳмад ал-Фарғоний фаолияти билан боғлиқ тадқиқотларини солиштириб, унинг сув сатҳини юқори аниқликда ўлчовчи қурилмаси, хусусан “Миқёс ан-Нил”номли иншоотини холисона ўрганишга ҳаракат қилдик [1,2].

Нил дарёси ўзанидаги Равзо оролида қурилган мазкур иншоот турли манбаларда турлича номланади. Масалан, Шарқ олимлари асарларида “Миқёс ан-Нил”, “Миқёси жадид” деб аталса, ғарб манбаларида кўпроқ “Ниломер”, “Нилометр”, “Қохира сув ўлчаш қурилмаси”, айрим ҳоллардагина “Миқёс ан-Нил” деб аталган. Фикримизча, “Миқёс ан-Нил” ёки “Ниломер”, деб аталиши тўғри, чунки иншоот Нил дарёси суви сатҳини ўлчаш мақсадида қурилган, яъни бу ном унинг вазифасига мосдир. “Миқёси жадид” эса қурилмадан амалий мақсадларда фойдаланишда қулайлик яратиш учун имкон берадиган жадваллар, кўрсатмалар мажмуи бўлса керак.

Илмий-техник ва меъморий жиҳатдан ғоят улуғвор бу гидротехника иншооти Нил дарёсининг Сайёлат ул-Род мавзесида ҳозирга қадар сақланиб қолган.



а ***б***

1-Расм. Аҳмад Фарғонийнинг Нил суви сатҳини ўлчаш иншооти (фрагментлар): *а*-сув ўлчаш иншоотининг қирқими; *б*-сув сатҳини ўлчаш қудуғи. 1-сув қабул қилиш қудуғи; 2-ер ости сув йўллари; 3-айланма зинапоя зинапоя; 4-квадрат шаклидаги қудуқ; 5-оқ мармар билан қопланган сув сатҳини ўлчаш устуни.

Юқоридаги расмда Аҳмад ал-Фарғонийнинг “Миқёс ан-Нил” иншоотидан фрагментлар келтирилган. Ўша даврда Равзо оролидаги “Миқёс ан-Нил” иншооти квадрат шаклидаги (1) қудуқ кўринишида бўлиб, Нил дарёси билан ер ости сув йўллари (2) ёрдамида туташган. Сув сатҳини ўлчаш учун кузатувчи махсус (3) айланма зинапоядан фойдаланган. Сув ўлчаш бўлимида (4) қудуқ ўртасида оқ мармар билан қопланган саккиз қиррали сув сатҳини ўлчаш устуни (5) ўрнатилган. Шу устунда сув сатҳини аниқлашга имкон берадиган йирик бўлаклар, улар эса ўз навбатида майда бўлакларга ажратилган. Йирик бўлаклар “араб тирсак бирлиги”га (54 сантиметр), майдалари эса унинг 1/24 қисмига, яъни 2,25 см га тенг бўлган. “Араб тирсак бирлиги” Миср фиравнлари даврида хукмроннинг тирсагидан ўрта бармоқ учигача бўлган узунлик стандарт ўлчам сифатида қабул қилинган ва ҳар бир фиравн даврида ўзгариб турган.

Таққослаш учун келтирамиз: Ўзбекистонда қадимда ота-боболаримиз кундалик ҳаётда узунлик, оғирлик ва сув сарфида шартли шарқона ўлчов бирликларини қўллаганлар. Аждодларимиз узунлик ўлчовини инсон танасининг бирор аъзоси ёрдамида ўлчаганлар. Масалан, энлик (бир бармоқ энига тенг – тахминан 18-20 мм), қарич (панжа очилганда бош ва жимжилоқ бармоқ учлари орасидаги масофа-тахминан 19-22,5 см), қадам (тахминан 75 см), чақирим (900 метр қабул қилинган масофа) каби ўлчамлар ишлатилган).

Маҳмуд Қошғарий “Девон-у луғотит турк”асарида қулоч сўзи қўл ва оч сўзларидан ҳосил бўлгани, *қўлни оч, қулочни ёз* маъносига эга эканини ёзади. Қулоч бу даврда ҳам ўлчов бирлигини англатган, у тахминан 165-175 сантиметрга тенг бўлган. 8 қарич бир қулоч ҳисобланган. Қулоч қиймати ҳудудларга қараб турлича бўлган. Масалан, бир қулоч Бухорода 142 сантиметр, Фарғонада 167 сантиметр деб олинган. Изоҳли луғатга кўра, қулоч елка баландлигида керилган ҳар икки қўлнинг ўрта бармоқ учлари орасидаги масофага тенг. Демак, бир қулоч ўртача 140-170 сантиметр, ёки 1,5 метр атрофидаги ўлчов бирлиги бўлган.

Аҳмад Фарғоний ҳисобига кўра, агар Нил дарёсида суғориш мавсумида сув сатҳи фақат 12 тирсаккача кўтарилса, деҳқончиликда ҳосил мутлақо бўлмай, мамлакатда очарчилик бошланган; 13 тирсакда - буғдой ҳосил бермаган, 14 да - ўртача ҳосил етиштирилган; 15 тирсакда экинлар яхши ҳосилга кирган; 16 тирсакда эса ҳосил ниҳоятда кўп бўлиб, мамлакатда маъмурчилик бошланаган. Кўтарилишнинг ҳам чегараси бўлган.

“Миқёс ан-Нил”нинг ўлчов устунида сув сатҳининг 17 тирсакдан (ҳозирги ҳисоб бўйича 9,0 метрдан) юқори бўлиши, кўп жойларни сув босишига олиб келишини, оқибатда бу ҳолат ҳосилдорликка ҳам салбий таъсир қилиши мумкинлигини ҳисобга олган.

Фарғона политехника институтининг профессори, техника фанлари доктори устоз Расул Тожиев ва шогирдлари берган маълумотларга кўра, Нил дарёсининг кўп йиллик кузатишлар бўйича аниқланган ўртача йиллик оқими Қохира яқинида 73 км^3 ни ташкил этади. Энг кам сув сарфи (март-май ойларида) 500 м^3/с, энг кўп сув сарфи эса (сентябрь ойида) 15000 м^3/сек га етади. Дарёда сув миқдорининг бундай ўзгариши сув сатҳининг қарийб 8-10 метр баландликдаги ораликда кўтарилиб-пасайиб туришига олиб келади [3,4].

Бошқача қилиб айтганда, сув олиш қудуғи Нил дарёсидаги сув сатҳи ўзгаришлари амплитудасига мувофиқ равишда (камида 10 метр чуқурликда) қазилган, унинг ўртасига ўрнатилган устуннинг баландлиги ҳам шу қийматдан кам бўлмаган.

9. Axunov, J. A. (2023). O ‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda transport-ekspeditorlik xizmatining ahamiyati: o ‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda transport-ekspeditorlik xizmatining ahamiyati.
10. Abdujalilovich, A. J., & Ibroximjon o’g’li, M. N. (2023). Methodology for Modeling the Efficiency of the Implementation of Objects to Improve the Transport Network of Tashkent City. *Texas Journal of Engineering and Technology*, *20*, 23-26.
11. Axunov, J. A., & Xaliljonov, D. D. (2023). O ‘zbekiston respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati va tashqi savdo siyosati tahlili: o ‘zbekiston respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati va tashqi savdo siyosati tahlili.
12. Choriyev, X., & Axunov, J. (2022). Шаҳар йўловчи автомобиль транспорти тизимининг хизмат кўрсатиш сифатини таъминлаш жараёнининг функционал моделини ишлаб чиқиш (тошшаҳартрансхизмат аж таркибидаги автобус йўналишлари мисолида). *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 440-453.

QUVIB O‘TISH VA QARAMA-QARSHI HARAKATLANISH BILAN BOG‘LIQ YO‘L TRANSPORT HODISALANI TAXLIL QILISH

Sardor Xujamqulov
Farg‘ona politexnika instituti, s.xujamqulov@ferpi.uz

Anotatsiya. Yetakchiga ergashish holatlaridagi hodisalarning chorak qismi qarama-qarshi yo‘nalishda kelayotgan uchinchi transport vositasi bilan to‘qnashuv ila yakunlanadi, chunki xavfsizlik masofasiga amal qilmagan yetakchi ortidan harakatlanayotgan avtomobil yetakchi to‘xtaganda chap tomonga “ketib qoladi”, ya’ni tormozlanishni o‘q chizig‘i tomonga burilish manyovri va qarama-qarshi yo‘nalishga chiqib ketish bilan birgalikda bajaradi.

Kalit so‘zlar: *Yo‘l harakti qoidalri. Quvib o‘tish, tormozlanish, yetakchi avtomobilxavfsiz masofa*

Kirish

Yetakchi avtomobil keskin tormoz berganda kuzatiladigan o‘ziga xos holatlardan biri bu haydovchilarning vaqt tig‘izligida keskin to‘xtashi va bir paytning o‘zida rulni chaptomonga burishidir.



1-rasm. Quvib o‘tish jarayoni sxemasi.

Yetakchiga ergashish holatlaridagi hodisalarning chorak qismi qarama- qarshi yo‘nalishda kelayotgan uchinchi transport vositasi bilanto‘qnashuv ila yakunlanadi, chunki xavfsizlik masofasiga amal qilmagan yetakchi ortidan harakatlanayotgan avtomobil yetakchi to‘xtaganda chaptomonga “ketib qoladi”, ya’ni tormozlanishni o‘q chizig‘i tomonga burilish manyovri va qarama-qarshi yo‘nalishga chiqib ketish bilan birgalikda bajaradi. 71,2 foiz holatlarda «yetakchiga ergashish–yetakchining tormozlanishi» yetakchi bilan to‘qnashuv holatida tugaydi, 2 foizdan kamrog‘i transport vositasining siltab ketishi bilan yakunlanadi, qolgan holatlarda esa (4,9 foiz) – (o‘ngdan) boshqa transport vositalarini,yo‘lchetidagiqurilmalarni, to‘siqlarni, chiroqlar tayanchiniurib ketish bilan tugaydi[1,2].

YTH statistikasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur holatlarda haydovchining eng xavfli harakati chap tomonga chiqib ketishdir, chunki bunday holatlarning oqibati nihoyatda og‘irdir[8,7].

Quvib o‘tish – bu eng xavfli manyovrlardan biridir. Turli tadqiqotlar bergan ma’lumotlarga ko‘ra, aholi punktidan tashqarida ikki bo‘lakli yo‘lda har 1500 – 2000 quvib o‘tish holatiga qarama- qarshi to‘qnashuvlar oqibatida halok bo‘lish va jarohatlanish, shuningdek quvib o‘tayotgan va quvib o‘tilayotgan transport vositasining yo‘lakay to‘qnashuvi kuzatiladigan bitta YTH to‘g‘ri keladi.

Quvib o‘tishning xavfsiz amalga oshirilishi uchun quvib o‘tayotgan avtomobil tezlikni oshirishning optimal holatini bilishi kerak.

1-jadval. Quvib o‘tayotgan va quvib o‘tilayotgan avtomobillarning masofasi va turli harakat tezliklarida quvib o‘tish vaqti (yo‘l va vaqt ma’lumotlari chamalab berilgan)

Quvib o‘tilayotgan avtomobil tezligi V 2 km/s	Quvibo‘tayotganavtomobilningtezligi V 1km/s								
	30	40	50	60	70	80	90	100	110
	Masofa, m(sonda), vaqt,s (soniyada)								
20	130m/15s	100m/10s	100m/8s	110m/7s	120m/6s	120m/6s	130m/6s	140m/5s	150m/5s
30		210m/19	160m/11s	140m/9s	140m/7s	150m/7s	150m/6s	160m/6s	170m/6s
40			310m/23s	210m/13s	190m/10s	180m/9s	180m/8s	190m/7s	200m/7s
50				430m/26s	290m/15s	250m/11s	230m/9s	220m/8s	220m/8s
60					570m/30s	370m/17s	310m/13s	280m/10s	270m/9s
70						710m/33s	460m/19s	370m/14s	330m/11s
80							920m/37s	550m/20s	450m/15s
90								1120m/40s	670m/22s
100									1340m/44s

Jadvalda quvib o‘tishning masofasi va vaqti berilgan bo‘lib, u yengil avtomobilning 6,5 – 7,5 m dan katta avtomobilni yo‘lakay quvibo‘tishdagi tezligiga bog‘liqdir, bunda quvib o‘tish avvalidagi ular orasidagi oraliq masofa (spidometrga ko‘ra) tezlikning son jihatdan yarmigatengdir. Hayotdagi vaziyatlarda quvib o‘tish jarayoniga ko‘plab omillar ta’sir qiladi, ularni esa hisob kitoblarda inobatga olishning imkoni yo‘qdir.Ular quvib o‘tishning vaqti va masofasini qisqartirishi ham, orttirishi ham mumkin[15,16].

“Yo‘lakay” quvib o‘tilayotganda quvib o‘tayotgan avtomobilning quvib o‘tilayotgan avtomobilga nisbatan tezlik zahirasi ortiqroq bo‘lib,quvib o‘tish masofasi taxminan quvib o‘tilayotgan avtomobil tezligidan 4 – 4,5 barobar kattadir (masalan, tezligi 40km/s bo‘lgan avtomobilni quvib o‘tish uchun, taxmnan 180 m masofa kerak). “Kutish” bilan quvib o‘tishda esa, ya’ni quvib o‘tayotgan avtomobilning harakat tezligi quvib o‘tilayotgan avtomobilning harakat tezligi bilan manyovr boshida teng bo‘lganda bur aqam 5 –5,5 ni tashkil etadi, demak tezlik 40 bo‘lganda, taxminan 200 m masofa talab etiladi. Avtopoyezd yoki avtobusni quvib o‘tayotganda esa quvib o‘tish masofasi 6 -8 m li avtomobilni quvib o‘tishga nisbatan 25 -50% ga ortadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, quvib o‘tishni amalga oshirish uchun kerakli miqdorda tezlik zahirasiga ega bo‘lish lozim. Agar ildamlab ketish uchun tezlikni 30 foizdan ortiqroq oshirish kerak bo‘lsa yoki bo‘lakka qayta tizilish uchun uni shunchaga kamaytirish kerak bo‘lsa, quvib o‘tish fikridan qaytmaslik lozim[19,18].

Agar qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘lakka chiqqan holda quvib o‘tishni bajarishga to‘g‘ri kelsa,qarama-qarshi tomondan kelayotgan avtomobilni o‘z vaqtida ko‘ra olish, ungacha bo‘lgan masofani chamalash muhimdir. Yo‘lning yaxshi ko‘rinib turishi qarama- qarshi tomondan kelayotgan avtomobilgacha bo‘lgan xavfsiz quvib o‘tish masofasini ta’minlashi kerak. Bunday masofalar o‘ta e’tiborga molik ekan (9 jadvalni qaraymiz), quvib o‘tish hududi imkon qadar to‘g‘ri bo‘lmog‘i, unda ko‘rish imkonini to‘sib qo‘yuvchi burilishlar, qiyalik va nishabliklar bo‘lmasligi kerak.Aholipunktlaridan tashqarida quvib o‘tish uchun ko‘rishning eng kam masofasi 500 –700 m,shahar sharoitida esa–300 –400 m.

Haydovchilar ko‘pincha qarama-qarshi tomondan harakatlanayotgan avtomobilgacha bo‘lgan masofa va uning tezligini taxmin qilishda yanglishadilar. Bu holatni kuzatishda va ko‘rish orqali ma’lumot qabul qilish qobiliyatining qator xususiyatlariga bog‘liqdir. Agar, kuzatib turgan insonga yuk va yengil avtomobillar navbatma - navbat yaqinlashsa, birinchisining tezligi ancha kattaroq ko‘rinadi. Yaqinlashib kelayotgan avtomobilning gabaritlari qanchalik katta bo‘lsa, tezlik shunchalik katta tuyuladi. Sutkaning qorong‘u paytida yoki havo bulutligida yaqinlashib kelayotgan avtomobil tezligi kamroq tuyuladi, quvib o‘tayotgan avtomobil tezligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, qarama-qarshi tomondan kelayotgan vaquvib o‘tilayotgan avtomobillar tezligi shunchalik kam ko‘rinadi. Shuning uchun aholi punktidan tashqarida qarama - qarshi tomondan kelayotgan avtomobil ko‘rinayotganiga nisbatan kattaroq tezlikda kelyapti deb taxmin qilish ancha xavfsizdir, shuningdek, hamisha harakat tezligini aniqlashdagi xato yoki qarama-qarshi tomondan kelayotgan avtomobil tezligining to‘satdan oshirilib qolishini o‘ylagan holda masofa zahirasini yaratish kerak bo‘ladi.

Transport vositasini quvib o‘tish haydovchilar uchun eng xavfli manyovr hisoblanadi. Shuning uchun quvib o‘tish paytida haydovchi nihoyatda ehtiyotkor bo‘lmog‘i lozim. Noto‘g‘ri quvib o‘tish yo‘l-transport hodisasining sababiga aylanishi va nafaqat haydovchining, balki harakatni boshqa ishtirokchilarining ham jiddiy jarohat olishlariga sabab bo‘lishi, xayotiga xavf solishi mumkin.

Metod

Aholi punktidan tashqarida ikki bo‘lakli shosseda quvib o‘tishni haydovchi yo‘lni keraklicha uzoq masofadan ko‘rib olgandagina bajarish tavsiya etiladi.

Amaliy tavsiya: quvib o‘tilayotgan avtomobil 40km/s tezlikda harakatlanayotgan bo‘lsa, yo‘lning 400 m ni ko‘rish kerak bo‘ladi, quvibo‘tilayotgan avtomobil 80 km/s tezlikda harakatlanayotgan bo‘lsa, qarama- qarshi bo‘lakning 800 m dan kam bo‘lmagan masofasini ko‘rish kerak.Quvib o‘tishni boshlashdan avval, yo‘lni yaxshiroq ko‘rib olish uchun quvib o‘tilayotgan avtomobilga o‘ta yaqinlashib ketishkerak emas[20,21,22].

Katta gabaritli avtomobillarniki chik masofalardan quvibo‘tilayotganda xavfli vaziyatlar ko‘proq yuzaga keladi.

Natijalar.

Tor va ayniqsa sirpanchaq yo‘llarda katta gabaritli transportvositalarini quvibo‘tishdan saqlanmoq kerak.Agar haydovchi quvib o‘tishni amalga oshirishga qat’iy qaror qilgan bo‘lsa, uni bajarishdan oldin quvib o‘tilayotgan transport vositasi uchun harakatlanishda biror xalaqit qiluvchi(yo‘lning torayishi, yo‘l chetida yoki yo‘lda turgan avtomobil) yo‘qligiga ishonch hosil qilmog‘i lozim.Buning uchun yo‘l kengligi bo‘ylab biroz surilish, ovozli yoki yorug‘lik ishorasini berish kerak, bunda quvib o‘tilayotgan avtomobil haydovchisi sizni tushunganligi va o‘z harakat bilan quvib o‘tishga halal bermasligiga ishonchingiz komil bo‘lmog‘i kerak.

Quvib o‘tishni ketma-ket bajarishda avval,ko‘rish imkoniyatini oshirish maqsadida yo‘lning eni bo‘ylab surilish kerak[25,26,27].

Xulosa.

Yo‘l harakatidagi odatiy holatlardan biri bu – «ikki quvib o‘tish». Quvib o‘tishni amalga oshirishda, manyovrni boshlashdan bir oz avval burilish ishorasini oqish,ovoz yoki yorug‘lik ishorasini berish kerak.Ovozli yoki yorug‘lik ishorasini berishdan avval,bu ishoralar quvibo‘tishni boshlagan birorta haydovchiga xalaqit qilmasligiga amin bo‘lmoq kerak. Biroq, quvib o‘tayotgan haydovchiga biror xavf solayotgan bo‘lsayu,o‘zi bundan bexabar harakatlanishda davom etsa,

quvib o‘tilayotgan avtomobil haydovchisi ovoz yoki yorug‘lik ishorasi bilan uni ogohlantirishi kerak, jumladan chap tomonga qayrilish chirog‘ini ham yoqish mumkin.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. Khujamqulov, S. (2023). Measures to protect the environment from the harmful effects of motor transport. European Journal of Emerging Technology and Discoveries, 1(4), 8-13.
2. Ogli, K. S. U. (2022). Analysis of passenger flow of bus routes of fergana city. International Journal of Advance Scientific Research, 2(10), 32-41.
3. Khujamqulov, S. (2022). Analysis Of Existing Methods and Means of Monitoring the Technical Condition of Motor Vehicles. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 9, 62-67.
4. Fayzullayev, X., & Mirtemirov, . A. . (2023). Avtomobil dvigatelining moylash tizimiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlari texnologiyasi. Zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot, 2(6), 31–35.
5. Fayzullayev Xaydarali, Ne'matov Ibrohimjon Alijon o'g'li. (2023). Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish sohasida avtoservisni rivojlantirish tajribasi va istiqbollari. «zamonaviy Dunyoda Ilm-fan Va Texnologiya» Nomli Ilmiy-amaliy Konferensiya, 2(4), 62–65.
6. Sahtarov, X. A. O., & Fayzullayev, X. (2022). Alternativ yoqilg‘ilarda ishlaydigan avtomobil konstruksiyalari tahlili. Academic research in educational sciences, 3(4), 1080-1087.
7. Ikromov, I. A., Abduraximov, A. A., & Fayzullayev, H. (2021). Experience and prospects for the development of car service in the field of car maintenance. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 344-346.
8. Maxammadjon Qobulov, Asrorjon Ismadiyorov, Xaydarali Fayzullayev.Analysis of the braking properties of the man cla 16.220 for severe operating conditions. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2022/3/31
9. Xaydarali Fayzullayev. Vehicle Motion Model with Wheel Lock. Eurasian Journal of Engineering and Technology.2022/9/14
10. Xolahmad Abduholiq O‘g‘li Sahtarov, Xaydarali Fayzullayev. Academic research in educational sciences. 2022.
11. Maxammadjon Alijon O‘G‘Li Qobulov, Asrorjon Anvarjon O‘G‘Li Ismadiyorov, Xaydarali Fayzullayev. Academic research in educational sciences. 2022.
12. Fayzullaev Xaydarali. Analysis of the chemical composition of car tire rubber International Journal of Advance Scientific Research. 2022/12/24.
13. Xaydarali Fayzullayev, Azamat Mirtemirov. Avtomobil dvigatelining moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari texnologiyasi. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. 2023/2/9
14. Xaydarali Fayzullayev, Ibrohimjon Ne'matov. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish sohasida avtoservisni rivojlantirish tajribasi va istiqbollari. Наука и технология в современном мире. 2023/1/30.
15. Bazarov Bakhtiyor Imamovich, Akhmatjanov Ravshanjon Nematjonovich, Fayzullayev Khaydarali, Odilov Odiljon Zokirjonovich, Otabayev Nodirjon Ibragimovich. Performance Indicators of a Passenger Car with a Spark Ignition Engine Functioning With Different Engine Fuels. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 2021/4/17
16. С.М.Ходжаев, М.С.Низомиддинова, Ч.О.Камбарова, & Н.С.Ходжаева (2022). Организация станции технического обслуживания при Ферганском политехническом институте. Science and Education, 3 (10), 265-274.
17. Обидов, Н. Г. (2019). Фрезерные дорожные машины в условиях эксплуатации в жарком климате узбекистана. In Подъемно-транспортные, строительные, дорожные, путевые машины и робототехнические комплексы (pp. 377-379).

18. Gayrat, B., Bekhzod, U., & Nuriddin, O. (2022). Determination of angles of sliding and rolling of potato tubers on surfaces consisting of different materials. Universum: технические науки, (4-12 (97)), 24-26.
19. Бахадиров FA, У. Б. (2021). Обидов HF Картошка туганакларини саралаш учун янгича конструкциядаги барабанли саралаш машинаси. Научно-технический журнал ФерПИ. Фергана, (1).
20. Таджиходжаева, М. Р., & Обидов, Н. Г. Конструктивные системы в природе и дорожных машинах. Рецензенты: генеральный директор РУП «Гомельавтодор» СН Лазбекин, 124.
21. Xujamkulov, S., Abdubannopov, A., & Botirov, B. (2021). Zamonaviy avtomobillarda qo‘llaniladigan acceleration slip regulation tizimi tahlili. Scientific progress, 2(1), 1467-1472.
22. Xujamqulov, S. U., Masodiqov, Q. X., & Abdunazarov, R. X. (2022, March). Prospects for the development of the automotive industry in uzbekistan. In E Conference Zone (pp. 98-100).
23. Meliboyev, A., Khujamqulov, S., & Masodiqov, J. (2021). Univer calculation-experimental method of researching the indicators of its toxicity in its management by changing the working capacity of the engine using the characteristics. Экономика и социум, (4-1), 207-210.
24. Xujamqulov, S. U. O. G. L., & Masodiqov, Q. X. O. G. L. (2022). Avtotransport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlarini kuzatish bo'yicha vazifalarni shakllantirish. Academic research in educational sciences, 3(4), 503-508.
25. Masodiqov, Q. X. O. G. L., Xujamqulov, S., & Masodiqov, J. X. O. G. L. (2022). Avtomobil shinalarini ishlab chiqarish va eskirgan avtomobil shinalarini utilizatsiya qilish bo'yicha eksperiment o'tkazish usuli. Academic research in educational sciences, 3(4), 254-259.
26. Khujamkulov, S. U., & Khusanjonov, A. S. (2022). Transmission system of parallel lathe machine tools. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 142-145.
27. Umidjon o‘g‘li, K. S., Khusanboy o‘g‘li, M. Q., & Mukhammedovich, K. S. (2022). The formation of tasks for overview of operating properties of vehicles. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(05), 71-76.
28. Khujamqulov, S. (2022). A method of conducting experiments on the production of car tires and the disposal of obsolete car tires. Science and innovation, 1(A3), 61-68.
29. Qobulov, M., Jaloldinov, G., & Masodiqov, Q. (2021). Existing systems of exploitation of motor vehicles. Экономика и социум, (4-1), 303-308.
30. Ходжаев С.М., Рахмонова С.С. (2022). Экономия ресурсов при эксплуатации, обслуживании автомобильной техники. Американский журнал междисциплинарных исследований и разработок , 5 , 18–27.
31. Otabayev, N. I., & Xodjayev, S. M. Measurement of tires pressure and load weight on the.
32. Abduraxmonov, A. G., Xodjayev, S. M., Otaboyev, N. I., & Abduraximov, A. A. (2022). Formation of products from powdered polymers by rotational and blowing method. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(03), 41-51.
33. Maxmudov, N. A., Ochilov, T. Y., Kamolov, O. Y., Ashurxodjaev, B. X., Abdug'aniev, S. A., & Xodjayev, S. M. (2021). TiN/Cr/Al 2 O 3 AND TiN/Al 2 O 3 hybrid coatings structure features and properties resulting from combined treatment. Экономика и социум, (3-1), 176-181.

CHORRAHALARDAN O‘TISHDA YO‘L TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISH

Maqsudali Madraximov
Farg‘ona politexnika institute, Maqsudali.madraximov@ferpi.uz

Anotatsiya: Ushbu maqolada asosan chorrahalar va ularga yaqinlashishdagi to‘qnashuvlar, transport vositalari bilan xavfsiz tarqalishi, ko‘proq xavfsizlik masofasi va intervalni saqlamaslik, manyovr bajarish va navbatma– navbat o‘tish qoidasini buzish oqibatlari, shoshma– shosharlik chorrahani hali bo‘shatmagan yoki unga boshqa tomondan kirib kelishni boshlagan transport vositalari bilan to‘qnashuvni yuzaga keltirish mumkin bo‘lgan barcha holatlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *Yo’l harakti qoidalri. Quvib o’tish, tormozlanish, yetakchi avtomobil, xavfsiz masofa*

Kirish

Ayniqsa, ko‘rish imkoni chegaralangan bo‘lganda chorrahadan o‘ta ehtiyotkorlik bilan o‘tish talab etiladi.

Ko‘rish imkoni chegaralangan chorrahaga yaqinlashayotganda haydovchi tezlikni maksimal darajada kamaytirishi, ko‘rish chegaralanganligi sababli vaqtincha to‘silib turgan transport vositalari bilan xavfsiz tarqalishni amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Ayniqsa tartibga solinmagan chorrahada quvib o‘tishni o‘ta ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish kerak.

Agar tartibga solinmagan chorrahada katta gabaritli yuk avtomobili to‘xtab, ko‘rish imkonini cheklab qo‘ygan bo‘lsa, uni quvib o‘tishxavflidir. Uning oldida chap tomonga qayrilib qolishi mumkin bo‘lgan avtomobillar yo‘qligiga ishonch hosil qilish kerak.

Asosan chorrahalar va ularga yaqinlashishdagi to‘qnashuvlar, ayniqsa sirpanchiq yo‘llarda, tezlikni oshirganlik uchun emas, balki ko‘proqxavfsizlik masofasi va intervalni saqlamaslik, manyovr bajarish va navbatma– navbat o‘tish qoidasini buzish oqibatida sodir bo‘ladi.

Qishda, chorraha hududlarida ko‘p sonli to‘xtashlar natijasida yuqori sirpanchiqlik kuzatiladi. Bu holatni esa manyovr bajarayotganda,ayniqsa, siz yo‘l berishingiz kerak bo‘lgan transport vositasiga yaqinlashayotganingizda e’tiborga olishingiz kerak.

Ikkinchi darajali yo‘ldan asosiy yo‘lga o‘tayotganda albatta avtomobillar oqimida uzilish sodir bo‘lishini kutish kerak.

Hisoblar shuni ko‘rsatadiki, 50km/s tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobillar oqimiga qo‘shilib olish uchun 60 m dan kam bo‘lmagan uzilish masofasi kerak, biroq oqimning tezligi 10 km/s ga ortiq bo‘lsa, u holda xalaqit qilmasdan oqimga qo‘shilib olish uchun kerakli bo‘lgan masofa ikki barobarga ortadi.

Haydovchilar kesib o‘tayotgan bo‘laklaridagi yo‘lga chiqmagan holda oqimdagi xavfsiz uzlish masofasini kutishlari kerak bo‘ladi. Bu holda chap tomondan hech nima xalaqit qilmasligiga ham ishonch hosil qilmoq kerak.

Tartibga solingan chorrahalardan o‘tish, tartibga solinmagan chorrahalardan o‘tishga nisbatan ancha oson. Bu yerda o‘tish tartibi svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralari bilan amalga oshiriladi. Biroq, svetofor ishorasi o‘zgarayotgan paytda to‘xtamay yoki tezlikni imkon darajasida pasaytirmay turib, harakatda davom etish xavflidir. Shoshma– shosharlik chorrahani hali bo‘shatmagan yoki unga boshqa tomondan kirib kelishni boshlagan transport vositalari bilan to‘qnashuvni yuzaga keltirish mumkin. Hattoki sveftor ishorasi yashil rangni ko‘rsatib tursa ham, oldinda yuz bergan tiqilinchni ko‘rib turgan haydovchiga chorrahaga kirish taqiqlanadi.

Chorraha xududida svetoforning taqiqlovchi ishorasidan ruxsat beruvchi ishorasiga o‘tayotgan paytda boshqa transport vositalaridan o‘zib ketishga ruxsat etilmaydi, chunki harakatning hamma ishtirokchilari ham chorrahani o‘z vaqtida bo‘shatib qo‘yishga ulgurmaydilar.

Metodlar

Harakat davomida haydovchi turli manyovrlarni amalga oshirishiga to‘g‘ri keladi. Ularning aksariyati murakkablik hosil qilmaydi, biroq bahsli YTVlarida ko‘p hollarda xavf tug‘diradi. Statistikaga ko‘ra, barcha YTHlarning 10 foizi burilish va qayrilib olish manyovlarini bajarishga to‘g‘ri keladi.

Manyovrlarni bajarishdan avval ortingizdan kelayotgan avtomobillar xavfsiz masofada ekanligiga ishonch hosil qilmoq va avvaldan burilish ishorasini yoqib qo‘ymoq kerak.

Yetakchi avtomobilning keskin to‘xtashi natijasida sodir bo‘ladigan to‘qnashuvdan himoyalashi kafolatlangan xavfsizlik masofasini saqlash shahar sharoitida ancha murakkabligi ma’lum ekan, amaliyotda masofa saqlashga bo‘lgan negativ holatlar aksariyatni tashkil etadi. Biroq tajribali haydovchilar yetakchining keskin tormoz berishini avvaldan taxmin qilishadi (masalan chorrahaga yaqinlashayotganda) va avvaldan oraliq masofani orttirishadi.

Ko‘pincha burilish va qayrilib olish amaliyotini vaqt tig‘iz bo‘lgan paytda, yo‘lakay va qarama– qarshi tomondan harakatlanayotgan transport vositalari yaqinlashayotganda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi, manyovrni esa ular kelguncha tugallash kerak. Qayrilib olishga ketadigan vaqt quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi: harakat tezligiga, avtomobilni boshqarish mahoratiga (boshqaruv texnikasi, uzatgichni boshqasiga o‘tkazish), avtomobil qayrilishi radiusiga: radius qanchalik katta bo‘lsa, qayrilib olishga shuncha ko‘p vaqt ketadi.

Natijalar

Shunday qilib, xavfsiz qayrilib olish uchun quyidagilar kerak: vaziyatga aniq baho berish, tezlik, masofa, vaqtni hisobga olish, boshqarishning oliy mahorati.

Bir vaqtning o‘zida bir necha bo‘laklarda manyovr bajarishgan ruxsat berilgan hududlarda, chap bo‘lakdan qayrilib olish amalga oshirilayotganda, agar o‘ng tomondan tortuvchi yarim prisepli avtomobil qayrilib olayotgan bo‘lsa, avtopoyezd intervalini 1,5-2 m gacha orttirish kerak. Manyovrni bajarishda tortuvchi avtomobil bilan bir xil harakatlanish yoki undan o‘zib ketish lozim.

Ko‘p bo‘lakli yo‘llarda qayrilib olishni amalga oshirayotganda qarama-qarshi yo‘nalishning chap bo‘lagiga joylashib olish imkoni bo‘lgandagina manyovrni bajarish mumkin. O‘ng tomondagi bo‘lakka birato‘la joylashib olishga urinish xavfli, chunki bunda vaziyatni to‘liq ko‘rish imkoni boshqa transport vositasi bilan to‘silgan bo‘lishi mumkin.

O‘ng tomondan qayrilib olish amalga oshirilganda, ayniqsa tor yo‘llarda, YHQ ga qat’iy amal qilish lozim: avvalo yo‘lakay va qarama- qarshi tomondan kelayotgan avtomobillar yo‘qligiga ishonch hosil qilmoq, avvaldan qayrilish ishorasini yoqmoq va shundan so‘nggina bu manyovrni amalga oshirmoq mumkin.

Avtomobil oqimida ketayotgan transport vositasiga ko‘pincha boshqa bo‘lakka o‘tishga ehtiyoj tug‘iladi. Harakatning erkin holatida bu manyovr katta qiyinchilik tug‘dirmaydi, ammo qator vaziyatlarda, ayniqsa harakatning boshqa ishtirokchilari faoliyati inobatga olinmagan hollarda xavfga aylanadi va YTH ga sabab bo‘ladi.

Boshqa bo‘lakka qayta tizilmoqchi bo‘lgan haydovchi o‘z muddaosini avvaldan bildirish lozim bo‘ladi. Boshqa bo‘lakka o‘tish harakatning qolgan a’zolariga xalaqit qilmasligiga amin bo‘lmoq kerak. Zich transport oqimlarida, barcha bo‘laklar harakat bilan band bo‘lsa, boshqa bo‘lakka sekin astalik bilan o‘tiladi.

Boshqa bo‘lakka qayta tizilishni ko‘p bo‘lakli yo‘llarda amalga oshirayotganda, bir necha bo‘lakdan o‘tishga to‘g‘ri kelsa, manyovrni “zina” tartibida amalga oshirish lozim.

Xulosa

Ushbu maqolani xulasa qilishda asosan chorrahalar va ularga yaqinlashishdagi to‘qnashuvlar, transport vositalari bilan xavfsiz tarqalishi, ko‘proq xavfsizlik masofasi va intervalni saqlamaslik, manyovr bajarish va navbatma– navbat o‘tish qoidasini buzish oqibatlari, shoshma– shosharlik chorrahani hali bo‘shatmagan yoki unga boshqa tomondan kirib kelishni boshlagan transport vositalari bilan to‘qnashuvni yuzaga keltirish mumkin bo‘lgan barcha holatlar tahlil qilingan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abdubannopov, A., & Abdupattayev, S. (2024). MEASURES TO PROTECT THE ENVIRONMENT FROM THE HARMFUL EFFECTS OF MOTOR TRANSPORT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, *2*(2), 14-22.

2. Abdubannopov, A., & Akramov, A. (2024). THE INFLUENCE OF WORKING TIME ON CHANGES IN THE QUALITY OF CARS: WORKING CONDITIONS AND PATTERNS OF THEIR CHANGE. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, *20*, 84-91.
3. Abdubannopov, A., & Muydinov, S. (2024). THE ROLE OF INDUSTRIAL ROBOTS IN MECHANICAL ENGINEERING AND WAYS TO CREATE SOFTWARE FOR ROBOTS. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, *2*(1), 60-68.
4. Davronzoda, X. D., & Abdubannopov, A. (2023). ANALYSIS OF THE EXISTING ASPECTS OF THE PROBLEM OF PROCESSING AND USE OF VEHICLE TIRES. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, *19*, 149-155.
5. Ismoilov, A., & Abdubannopov, A. (2023). Development of modern directions of driving training and recommendations for increasing traffic safety. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, *1*(9), 1-7.
6. Ismoilov, A., & Abdubannopov, A. (2023). A machine for continuous planting of tree seedlings. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, *19*, 1-6.
7. Xaydaraliyev, O. Y., & Abdubannopov, A. A. (2023). DIVIGATELARNI TERMAL YUKINI KAMAYTIRISH: DIVIGATELARNI TERMAL YUKINI KAMAYTIRISH.

KATTA O‘LCHAMDAGI KOMPOZISION POLIMER MATERIALARDAN YASALGAN REZERVUARLARNING IQTISODIY HISOBI

Axrorjon Abduraximov, Maftunaxon Nizomiddinova
Farg‘ona politexnika instituti , a.a.abduraximov@ferpi.uz

Annotatsiya: kompozision polimer materialardan yasalgan katta o‘lchamdagi rezervuarlarning iqtisodiy samaradorlik hisobi

Kalit so‘zlar*: kompazitsion polimer materiallar, polimer kompazitsion materiallarini iqtisodiy samaradorligi, pestitsidlar, gerbitsidlar, politelin.*

Kirish

Demokratik jamiyatning mustaqil davlatining rivojlanishi ilmiy - texnik taraqqiyot asosida amalga oshirilishi kerak. Bu, boshqa narsalar qatori, ishlab chiqarilgan va ishlatiladigan kompozitsion materiallarning sifat darajasi bilan belgilanadi, sanoatda texnika va texnologiyaning mukammalligi.

Paxtachilikda ishlatiladigan kimyoviy ishlov berish mashinalari shu maqsadda paxta ekish paytida pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqalarni kiritishga, shuningdek, paxtani defoliatsiya qilish bo‘yicha ishlarni bajarishga imkon beradi.

Biroq, paxta etishtirish texnologiyasi uchun zarur bo‘lgan bunday agressiv texnologik vositalardan foydalanish qishloq xo‘jaligi mashinalarida korroziyaga qarshi kurashish va ehtiyot qismlarni yaratish vazifasini qo‘yadi! kimyoviy chidamli materiallar. Ushbu vazifa, ayniqsa, o‘simliklarni kimyoviy qayta ishlash mashinalarining tanklari uchun juda muhimdir va kompozitsion polimer materiallardan tayyorlangan tankda ishlatiladigan yuqori qotishma qimmatbaho po‘latlar mashinalarning og‘irligi va narxini pasaytiradi, ularning chidamliligi va ishonchliligini oshiradi va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar yuqori bo‘ladi.

Paxtani kimyoviy qayta ishlash mashinalarining pestitsidlari uchun tanklarni ishlatish, ishlab chiqarish va o‘rnatish sharoitlarining o‘ziga xos xususiyati, ushbu texnikani takomillashtirish zarurati eng samarali material, ishlab chiqarish texnologiyasi, kompozit polimerlardan tanklarni ishlab chiqarish uskunalarini ishlab chiqish bo‘yicha muhim ilmiy - texnik vazifani ilgari surdi.material bu O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun juda dolzarb muammo [1].

Metod

Polimer kompozitsion materiallarning zamonaviy rivojlanish darajasi past va yuqori haroratlarda, agressiv va abraziv muhit bosimlarida ekstremal sharoitlarda ishlaydigan noyob materiallarni yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, ularga asoslangan kompozitsiyaning mavjud polimer materiallari termoplastik polimerlar va mahalliy xom ashyolarga asoslangan

korroziyaga chidamli strukturaviy materiallardan mahsulotlar va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish uchun samarali texnologiya yo‘qligi sababli mashina agregatlarining ishchi organlarida hali keng qo‘llanilmaydi. [2]

Iqtisodiy samarani hisoblash milliy iqtisodiyotda yangi texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodologiyasiga muvofiq amalga oshirildi, yillik iqtisodiy samarani aniqlash asosiy va yangi texnologiyalar uchun joriy xarajatlarni taqqoslashga asoslangan edi. Yuqoridagi xarajatlar normativ foyda tannarxining yig‘indisidir:

$Z=C+E_k*К$

Bu yerda **Z** -ishlab chiqarish(ish) birligiga kamaytirilgan xarajatlar, so‘m.

S -ishlab chiqarish(ish) birligining tannarxi, so‘m.

E_k -ishlab chiqarish fondlariga xos kapital qo 'yilmalar, so‘m.

К -kapital qo‘yilmalar samaradorligining normativ koeffitsienti.

Yangi uskunaning iqtisodiy samaradorligini baholashga yetarli yondashuvni ta'minlash uchun hisob - kitoblarda kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligining yagona me'yoriy koeffitsienti **$E_н$** -0,15 ishlatilgan

Metall va polietilen tanklarni ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi formula bo‘yicha aniqlandi.

$E=(Z_1- Z_1)*A_2$

Bu yerda E -yillik iqtisodiy samara, so‘m

$Z_1- Z_2$- bazaviy va yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish) birligiga kamaytirilgan xarajatlar, so‘m;

A_2-hisob-kitob yilida tabiiy birliklarda yangi uskunalar yordamida ishlab chiqarishning yillik hajmi.

Hisoblash uchun quyidagi xarajatlar tarkibi qabul qilinadi (Cv и Cн)

- transport xarajatlarini hisobga olgan holda xom ashyo va materiallar;
- asosiy va qo‘shimcha ish haqi;
- uskunalar uchun amortizatsiya ajratmalari-uskunalar uchun xarajatlar;
- energiya xarajatlari.
- uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari.

10400 dona almashtirishning kutilayotgan iqtisodiy samarasi.paxta kimyoviy ishlov berishda foydalaniladigan kompozit polimer materiallardan tayyorlangan tanklar uchun metall rezervuarlar 212,771 mln. so‘mni tashkil etadi. 212,771 mln so‘mdan 16,5% miqdorida rag‘ batlantirish jamg 'armasiga ajratmalar olib tashlangan holda haqiqiy iqtisodiy samarasi 177,66 mln so‘ mni tashkil etadi.

Natijalar

Metall tanklarni plastmassaga almashtirishning iqtisodiy samarasi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$E=(C_1+0,15Q_1)-(C_2+0,15Q_2)$

C_1; C_2- metall va polimer rezervuarlarining qiymati mos ravishda mln so ' m;

Q_1 и Q_2- metall va plastmassa rezervuarlarini ishlab chiqarish uskunalarining qiymati mos ravishda mln so ' mni tashkil etadi.

C1- tenglamadan aniqlaymiz

$C_1=(C_M+Z+A+O+P_T+E_{EN}+S)$ mln.so‘m

Bu yerda C_M -sarflanadigan materialning qiymati, mln so‘m;

Z -ish haqi, mln so‘m;

A-amortizatsiya ajratmalari, mln so‘m;

O-uskunalar narxi;

P_T-joriy ta'mirlash xarajatlari;

E_{EN} -elektr energiyasi sarfi, mln, so‘m;

S-texnik xizmat ko‘rsatish va xizmat ko‘rsatish, mln so‘m.

10400 dona ishlab chiqarish xarajatlari. plastik baklar:

S_M = 273640000 so‘m;

Z= 32 100 000 so‘m;
A= 5885000 so‘m;
O =944000 so‘m;
P_T =5575000 so‘m;
E_{EN} = 525 000 so‘m.
S =829000 so‘m
Bu yerdan: C_1= (273,64 + 32,1 + 5,885 + 1,944 + 5,575 + 13,525 + 0,829) -333,5 mln so‘m. Metall tankni chiqarish uchun uskunaning narxi
Q1 - 49338000 so‘mga teng
C_1 + 0,15* Q_1= 335,5 + 0.1 5*49,338 340,9 mln so‘m
C_1 + 0,15 * Q_1 =340,9 mln so‘m.
10400 dona ishlab chiqarishda. plastik baklar xarajatlariga tengdir
C_2 (83,604 + 12,445 + 4,6 + 4,397 + 8,93 + 3,384 + 0,77) 118,133 mln, so‘m
C_2 + 0.15*Q_2 = 118,133 + 0.1 5*66.642 = 128,129 mln so‘m.
Kutilayotgan yillik iqtisodiy ta'sir
E= 340,0-128,129= 212,771 mln so‘m. yiliga 10400 dona ishlab chiqariladi
Plastik baklar.
Iqtisodiy ta'sirning 15,6% rag‘batlantirish fondiga mo‘ljallangan, ya'ni sof kutilayotgan iqtisodiy ta'sir tengdir
E_{ch}=E- 0,1 56*E= 2 12,771-35,1=177,66 mln so‘ m.
E_{ch} =177,66177,66 mln so‘ m

Xulosa

Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi polietilenidan oqilona va samarali foydalanish, shubhasiz, ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otadi . Plastik baklar ishlab chiqarish uchun mos kompozitsion materiallar ishlab chiqarishda polietilenning alohida navlarini qo‘llash bog‘lovchi xom ashyo bazasini kengaytirishga qaratilgan keng istiqbollarni ochib beradi va shu bilan korxonalarning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. S.S.Negmatov , A.G.Abduraxmonov PCM dan sanoat uskunalarini ishlab chiqish , aylanma qoliplash usullari. Respublika universitetlararo ilmiy-texnikaviy konferensiyasi. 2009 yil
2. S.S.Negmatov , AG Abduraxmonov PCMni aylanma qoliplashning texnologik jarayoni. Respublika universitetlararo ilmiy-texnik konferensiyasi. 2009 yil
3. Abdurakhimov, A. A. (2022). The basics of determining the braking of vehicles in road traffic. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(09), 63-78.
4. Qobulov, M. A. O., & Abdurakhimov, A. A. (2021). Analysis of acceleration slip regulation system used in modern cars. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 526-531.
5. Hurmamatov A. M., Hametov Z. M. Results of preparation of oil slime for primary processing //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 1826-1832.
6. Fayziyev, P. R., Ikromov, I. A., Abduraximov, A. A., & Dehqonov, Q. M. (2022). ORGANIZATION OF TECHNOLOGICAL PROCESSES FOR MAINTENANCE AND REPAIR OF ELECTRIC VEHICLES. International Journal of Advance Scientific Research, 2(03), 37-41.
7. Tursunaliyev, I. E., Ergashev, I. E., Tursunov, D. M., & Abdurahimov, A. A. (2021). Simulation of wear of the piston ring of the internal combustion engine. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 353-362.
8. Abdurakhimov, A. A. (2022). The basics of determining the braking of vehicles in road traffic. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(09), 63-78.

9. Abduraximov, A. (2023). PRODUCTION OF CAR PARTS FROM COMPOSITE MATERIALS IN A MODERN WAY AND USE IN CARS. European Journal of Emerging Technology and Discoveries, 1(7), 16-18.

AVTOMOBILLARDA IDENTIFIKATSIYA TIZIMLARI

Sherali Tojiboyev, D.Xaliljonov, A.Alijonov
Farg‘ona politexnika instituti, sherali.tojiboyev@mail.ru

Annotatsiya: Avtotransport vositalaridagi identifikatsiyalash tizimlari jismoniy shaxslarning muayyan transport vositasiga egalik huquqini va undan foydalanish huquqlarini aniqlash va tekshirish uchun ishlatiladigan turli texnologiyalar va usullarni nazarda tutadi. Bu tizimlar yillar davomida an’anaviy kalit va qulflardan tortib, yanada rivojlangan biometrik va elektron tizimlargacha sezilarli darajada rivojlandi. Transport vositalaridagi identifikatsiya tizimlari zamonaviy transportda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va transport vositalari egalari uchun xavfsizlik va qulaylikni ta’minlaydi. Texnologiyaning rivojlanishi davom etar ekan, kelajakda ushbu tizimlar transport vositalarining ishlashi uchun yanada ajralmas bo‘lib qolishi mumkin.

Tayanch so‘z iboralar: *Identifikatsiyalash tizimlari, transport vositalari, VIN, transport vositasi sinflari.*

Kirish

Identifikatsiya (lotincha Identificare - aniqlash) - bu boshqa avtomobillar orasida, shu jumladan bir xil marka, model va modifikatsiyaga ega bo‘lgan avtomobillarni aniqlash. Identifikatsiya qilish tartibi transport vositasining kuzovida yoki ramasida bosilgan (shtamplangan) raqamlarni uning texnik pasportida ko‘rsatilgan tegishli raqamlar bilan solishtirishdan iborat.

Identifikatsiya yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari tomonidan transport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda amalga oshiriladi va quyidagi asosiy maqsadlarga ega:

ushbu aniq avtomobil va unga tegishli hujjatlar o‘rtasidagi yozishmalarni o‘rnatish;

avtomobil uning egasiga tegishli ekanligini tasdiqlash;

o‘g‘irlanganligi haqida xabar berilgan avtomobillarni aniqlash va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi va MDH mamlakatlarida ishlab chiqarilgan transport vositalarining katta qismi bitta identifikatsiya raqami o‘rniga konstruktiv elementlarga qo‘llaniladigan va texnik pasportda ko‘rsatilgan uchta raqamga ega: kuzov raqami, dvigatel raqami va shassi raqami.

Metodlar

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO 3779 standartiga muvofiq identifikatsiya raqami (VIN) 17 belgidan iborat. VIN raqamining har bir belgisi ma’lum ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

1-belgi - Ishlab chiqaruvchi mamlakat: 1, 4, 5 - AQSh, 2 - Kanada, 3 - Meksika, 9 - Braziliya, J - Yaponiya, K - Koreya, S - Angliya , V – Ispaniya, W – Germaniya, Y – Shvetsiya, Z – Braziliya va hokazo.

2-belgi - Ishlab chiqaruvchi: 1 - Chevrolet, 2 yoki 5 - Pontiac, 3 - Oldsmobile, 4 - Buick, 6 - Cadillac, 7 - GM Canada, 8 - Saturn, A - Audi, A - Jaguar, A - Land Rover, B – BMW, U – BMW (AQSh), B – Dodge, D – Dodge, C – Chrysler, D – Mercedes Benz, J – Mercedes Benz (AQSh), J – Jeep, F – Ford, F – Ferrari, F – Fiat , F – Subaru, G – General Motors, H – Honda, H – Acura, L – Linkoln, M – Mercury, M – Mitsubishi, A – Mitsubishi (AQSh), M – Skoda, M – Hyundai, N – Nissan, N – Infiniti, O – Opel, P – Plimut, S – Isuzu, S – Suzuki, T – Toyota, T – Lexus, V- Volvo, V- Volkswagen

3-belgi - Avtomobil turi (avtomobil, yuk mashinasi): B - treyler; F- yuk mashinasi; H,X - MPV (Ko‘p maqsadli avtomobil) toifasiga kiruvchi yengil avtomobil, SUV va boshqa transport vositalari; J,Y - avtobus, vagon; Z-yuk mashinasi, mikroavtobus, vagon.

4-belgi - Rulning joylashishini bildiradi (o‘ng yoki chap)

5-belgi - konfiguratsiya (ko‘rinishi) bildiradi;

6-belgi - kuzov turini bildiradi;

7-belgi - avtomobil sinfini (sinfga a’zolik avtomobilning umumiy ruxsat etilgan og‘irligi bilan baholanadi) va xavfsizlik tizimining belgilanishini ko‘rsatadi: 0A (1360 kg gacha), kamar yo‘q; 1B (1361-1814 kg), faol xavfsizlik kamarlari; 2C (1815-2268 kg), passiv xavfsizlik kamarlari; 3 D (2269-2722 kg), faol xavfsizlik kamarlari, haydovchining yon havo yostig‘i; 4E (2723-3175 kg), har ikki tomonda faol xavfsizlik yostig‘i xavfsizlik kamarlari; 5F (3176-3629 kg), almashtiriladigan havo yostig‘i; 6G (3630-4082 kg); 7H (4083 kg yoki undan ko‘p), gidravlik tormozlar; 8H (4083 kg yoki undan ko‘p), havo tormozlari; 9H (4083 kg yoki undan ko‘p), aralash tormozlar.

8-belgi - avtomobil dvigatelining turini ko‘rsatadi.

9-belgi - VIN raqamining to‘g‘riligini aniqlaydigan VIN tekshirish raqamidir.

10-belgi - model yilini bildiradi: A – 1980, B – 1981, C – 1982, D – 1983, E – 1984, F – 1985, G – 1986, H – 1987, J – 1988, K – 1989, L – 1990, M – 1991, N – 1992, P – 1993, R – 1994, S – 1995, T – 1996, V – 1997, V – 1998, X – 1999, Y – 2000, 1 – 2001, 2002 , 3 – 2003, 4 – 2004, 5 – 2005, 6 – 2006, 7 – 200, 8 – 2008, 9 – 2009…

11-belgi - avtomobil yig‘ish zavodini bildiradi.

12, 13, 14, 15, 16, 17-belgilar – yig‘ish liniyasi bo‘ylab o‘tayotganda ishlab chiqarish uchun avtomobilning ketma-ketligini ko‘rsatadi.

Natijalar

Bir nechta xorijiy avtomobillarning identifikatsiya raqamlarining taqsimoti:

VOLVO F12 yuk mashinasi tyagachlaridan birida quyidagi harflar va raqamlardan iborat ramkada muhrlangan identifikatsiya raqami mavjud: YV2H3A1ASNB493103. Kompaniyaning qo‘llanmasiga ko‘ra, ular quyidagilarni anglatadi. Ishlab chiqaruvchining identifikatsiya kodi WMI - dastlabki uchta belgi (YV2) - avtomobil VOLVO TRUK CORPORATION kompaniyasining bosh qarorgohi Shvetsiyaning Gothenburg shahrida joylashgan mintaqaviy Yevropa filiali tomonidan ishlab chiqarilganligini bildiradi (birinchi Y belgisi avtomobil Yevropada ishlab chiqarilganligini bildiradi). Undan keyin raqamning olti xonali tavsiflovchi qismi (H3A1AS) keladi. Birinchi belgi bo‘yicha dvigatel ustida joylashgan NT seriyali kabina bilan jihozlanganligini (kabelsiz sxemasi), uchta keyingi (3A1) - TD122FH dvigateli bilan jihozlanganligini, beshinchi belgisi (A) bilan aniqlashingiz mumkin.) - avtomobil 4×2 g‘ildirak tartibiga ega va tormoz tizimining boshqaruvchisi pnevmatikdir. Oltinchi belgi (S) hech qanday ma‘lumotga ega emas. Indeks qismida (NB493103) birinchi harf (N) ushbu model 1992 yilda ishlab chiqarilganligini bildiradi, ikkinchi harf (B) yig‘ish zavodining nomi VOLVO EUROPA TRUNK NV ekanligini va keyingi raqamlar seriya raqami chiqarilgan avtomobil sonini bildiradi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, transport vositasining identifikatsiya raqami uning ishlab chiqarilgan geografik mintaqasi va mamlakatini, shuningdek, ishlab chiqarilgan yilni aniqlash imkonini beradi. Agar siz tegishli kompaniya arxiv ma’lumotlarini so‘rasangiz, avtomobil ishlab chiqarilgan sanani (uning seriya raqami bo‘yicha) bilib olishingiz mumkin, bu raqamga ega bo‘lgan avtomobil zavod darvozasidan qachon chiqib ketganligi qayd etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, xorijiy transport vositalarining identifikatsiya raqami juda ko‘p foydali ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, agarda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti standartlari kompaniyaning ma’lumotnomasi mavjud bo'lsa, undan muvaffaqiyatli xarid amalga oshirilgan deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axunov, J., & Tojiboyev, S. (2023). Logistika orqali mahsulotlarni yetkazib berish tizimini boshqarish. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(7).
2. Shermukhamedov, A., Astanov, B., & Tojiboev, S. (2023, January). Modeling of Thermal Processes in Flow-Through Hydraulic Drives. In *International Scientific Conference Fundamental and Applied Scientific Research in the Development of Agriculture in the Far East* (pp. 486-495). Cham: Springer Nature Switzerland.

3. Холдаров, Ф. Э. Ў. (2022). Махсус транспорт воситалар тизимида инновацион интеллектуал ёндашув. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 124-129.
4. Шермухамедов, А. А., & Холдаров, Ф. Э. ў. (2023). МЕТОДИКА РАСЧЕТА ИНТЕНСИВНОСТИ ИЗНОСА И ПРОБЕГА ШИН СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(4), 231–247. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/re/article/view/3234

ANALYSIS OF THE COMPONENTS OF THE COMPOSITION, STRUCTURE AND PROPERTIES IN THE PROBLEMS OF ENSURING THE QUALITY OF DISSIMILAR WELDED JOINTS

F. Murataev[1], M. Ganiev[2]
[1]Kazan national research technical university named after A.N. Tupolev, Kazan, Russian Federation
[2] Kazan (volga region) federal university (KFU), Kazan, Russian Federation,
sovetnik.kfu@mail.ru

Abstract. Characteristics of composition, structure and properties of transition zone of welded joints of copper tubes with aluminum made by contact welding with high speed have been determined. Changes of element-by-element composition and hardness distribution in sections of heterogeneous welded joints obtained by solid-liquid transformations of tube metal at their welding have been revealed. The content of mass fractions of components of naturally-layered composite material (CM) received in telescopic welded joints Al-Cu tubes at contact butt welding by resistance was: Al (63-66) % + Cu (29-34) %. At the surface of copper tubing were: Al ~ (15-17) % + Cu ~ (74-82) %, at the composite layer side - Al ~ (45-48) % + Cu ~ (46-48) % accordingly. In the transition zone representing a composite metal of variable composition structural transformations in the sections of the molten metal not sections on the side of aluminum tubes and diffusion welding - in the solid phase on the side of copper tubes are determined. Length of interface in Cu - CuAl2 section ~ 6...8 μm, length of interface in CuAl2 - Al section ~ 2...6 μm.

Key words: *Composition, structure, welded joints, metal*

Introduction

The process of forming heterogeneous welded joints is connected with complication of interaction between metals with different thermal and mechanical properties during heating and cooling stages [1-3]. Additional problems arise when coordinating the geometry and dimensions of the mating surfaces in order to obtain tight telescopic welded joints (TWJ) of tubes in spigot.

When manufacturing heat-exchange apparatuses of refrigeration systems, heterogeneous joints made by contact welding in the socket of aluminum and copper tubes (ACT) are used. Copper tubes are preliminarily subjected to distribution to form conical surface of welded joint (WJ) in the socket. However, it is not always possible to provide reliable, leak-proof - quality joints of Cu and Al tubes [1-3]. Additionally, in a number of cases during exploitation of pipelines of the refrigeration contour with the refrigerant mixture (R22/R142b) damages of joints welded in solid-liquid state occur. Because of electrochemical incompatibility [1, 4-10] and differences in thermal-physical and mechanical properties of Cu and Al at the stage of rapid heating to aluminum melting at 700^{O}C and cooling at welding during ~ 2 seconds an instantaneous local increase of pressure by tens of times is possible - in connection with ionic-molecular transformation of hydrogen [1, 6, 7] in pores and metal flaking on interfaces Al - intermediate layer WJ - Cu. In (figure 1) are shown, respectively: areas of WJ, metal damage in them and prints of microhardness measurements.

Research methodology

The fragments of full-scale elements of heat-exchange apparatuses and samples of heterogeneous WJ of copper and aluminum tubes of technical purity and micro slips are investigated.

Measurements and the analysis of transition areas (TA) of microhardness revealed values in the range H_{100} 1700...2330MPa (figure 2), that ~ 7 times exceeds microhardness of Al matrix in the range H_{100} 250...310MPa and significantly exceeds the hardness level of copper H_{100} 560...940MPa. The average values of microhardness of copper, TA WJ and aluminum (figure 2) accordingly have made: 680, 2200 and 280 HV_{100}. The hardness of grate has made the value H_{100} 1800MPa. By measurements abnormal levels of microhardness on cylindrical parts of connection H_{100} 2100...2330MPa (figure.2) were found.



Figure 1. Sections of contact WJ of Cu and Al tubes in the socket, example: phase composition on the section, damage of metal and measurements of microhardness.



Figure 2. Fragment of structure of contact welded joint of Cu and Al tubes with microhardness measurement sections.

Significant discrepancies in microhardness of WJ fragments testify to very high brittleness and stiffness of transition sections of joints, in comparison with high plasticity and small stiffness of Cu and Al, at their large coefficients of thermal expansion [1]. When TA (metal sandwich) works under heat-shift conditions, apparently, large internal stresses arise, which can lead to cracking and delamination of the interface surfaces of the SS metal, which has a different structural composition [1, 8-14].

Auriga Cross Beam scanning electron microscope with Smart Sem software is used to determine the structure composition of the WJ-to-socket transition zone (WJT) [9-13]. Microprobe X-ray spectral analysis of the WJS transition zone metal composition was performed using an INCA X-Max energy dispersive spectrometer [15-20].

Analysis of results

The results of the chemical composition analysis made it possible to determine the structure of the WJS transition zone. At the fusion site of the inner surface of aluminum tubes with PU, the structure has a complex phase composition (Table 1, Al): $\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + \theta_{II} + Al_2O$. It is natural - the layered zone of composite metal (CM) consists of: supersaturated solid solution (α) and intermetallic intermediate phase $CuAl_2$ (θ) in eutectics and coherent (θ') in solid solution.

Table 1. Variation of chemical and phase composition of the contact WJ in the Cu and Al tubes

in the fusion sites (Al-KM, see figure 3) (h is the distance from the fusion surface in μm).

№ of spectrum	O	Al %	Cu	Phase composition of the WJ fragment at the metal fusion site	h, μm	H_{100}, MPa
1	3.97	71.0	25.03	$\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + \theta_{II} + Al_2O_3$	- 0,3	2100
2	7.20	68.58	24.21	$\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + \theta_{II} + Al_2O_3$	- 0,2	1940
3	9.54	79.57	10.89	$\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + \theta_{II} + Al_2O_3$	0,3	-
4	14.76	73.16	12.08	$\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + \theta_{II} + Al_2O_3$	0,15	-
5	4.37	95.29	0.34	$\alpha + \theta' + Al_2O_3$	8	310
6	2.73	65.93	31.34	$\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + \theta_{II}$ - (CM)	-10	2300

The average content of ACT components in CM (Table 1, Table 2, figure 3 and figure 4) is in the intermetallic intervals: Al (63-66) % + Cu (29-34) %, and in Al_2O the interval is 3-14 %. figure 3 and figure 4 illustrate, respectively, the areas of RCC of complete and incomplete penetration of the tube metal and the places where the metal spectrum are determined. In the fusion zone (aluminum tubes with TA) (at h = - 1mkm, see Table 2) the structure of metal is represented by phase composition $\alpha + \theta' + Al_2O_3 + \theta_{II}$, it contains 4% Cu + 72% Al and 13% oxygen.



α+θ'+(α+CuAl2) **α(Al) +θ'+…**

Figure 3. Fragment of the structure of Cu and Al WJT tubes and spectral composition determination areas from the fusion surface of CM (spectrum 6) - Al (spectrum 5).

Table 2. Change of chemical and phase composition of the contact WJ in the Cu and Al tube joint at the non-bonding areas (Al-CM, see figure 4) (h - distance from the fusion surface in μm).

№ of spectrum	O	Al %	Cu	h, μm	Phase composition of the WJ fragment at the metal fusion site	H_{100}, MPa
1	2.04	64.11	33.85	-17	$(\alpha + CuAl_2) + CuAl_2 + \alpha_{II} + Al_2O_3$	2290
2	13.26	82.34	4.40	-1	$\alpha + \theta' + Al_2O_3 + \theta_{II}$	-
3	13.04	75.51	11.44	-1	$\alpha + \theta' + (\alpha + CuAl_2) + Al_2O_3 + \theta_{II}$	1700

4	4.59	94.86	0.55	0,3	$\alpha + Al_2O_3$	-
5	8.34	91.01	0.66	0,8	$\alpha + Al_2O_3 + \theta_{II}$	310
6	10.08	89.92	-	14	$Al + Al_2O_3$	250



Al + Al_2O_3 **Э+$CuAl_2$+...**

Agar (12) tenglamaning (11) shartlarni qanoatlantiruvchi $\tau(t)$ yechimini topsak, $\nu(t)$ funksiya (9) formula bilan topiladi. Unda qo’yilgan masalaning yechimi Q_1 sohada (7) formula bilan aniqlanadi. Shuning uchun {(12), (11)} masalani yechish bilan shug’ullanamiz.

Shu maqsadda (12) formulada t ni z bilan almashtirib, z bo’yicha $[0,t]$ oraliqda ketma-ket ikki marta integrallaymiz. Natijada , $\tau'(0)=C$ belgilash kiritib, $\tau(0)=0$ ekanligini e’tiborga olib, $\tau(t)$ noma’lum funksiyaga nisbatan quyidagi

$$\tau(t)-\frac{2^{k+1}}{k+1}\Gamma^{-1}\left(\frac{1-k}{2}\right)\int_0^t\tau(\eta)(t-\eta)^{(1+k)/2}d\eta=Ct+\int_0^t\Phi_1(\eta)(t-\eta)d\eta,$$

$0\le t\le T$ (13)

integral tenglamaga ega bo’lamiz.

(13) – ikkinchi tur Volterra integtal tenglamasi bo’lib, uning yagona yechimi ushbu formula bilan aniqlanadi [12]:

$$\tau(t)=\frac{d}{dt}\int_0^t E_{(k+3)/2,1}\left[\lambda(t-\eta)^{\frac{k+3}{2}}\right]\left[C\eta+\Phi_2(\eta)\right]d\eta, \qquad (14)$$

bu yerda $E_{\alpha,\beta}(z)$ - Mittag-Leffler funksiyasi [12]:

$$\lambda=2^k\Gamma\left(\frac{1+k}{2}\right)\Gamma^{-1}\left(\frac{1-k}{2}\right),\qquad \Phi_2(t)=\int_0^t\Phi_1(\eta)(t-\eta)d\eta.$$

(14) formulada differensiallash amalini bajarib, so’ngra

$$\frac{d}{dt}E_{(k+3)/2,1}\left[\lambda\left(t-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]=-\frac{d}{d\eta}E_{(k+3)/2,1}\left[\lambda\left(t-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]$$

formuladan foydalanib va bo’laklab integrallash qoidasini qo’llab hamda

$\Phi_2\left(0\right)=0$, $E_{(k+3)/2,1}\left(0\right)=1,$

$$\int_0^t E_{(k+3)/2,1}\left[\lambda\left(t-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]d\eta=tE_{(k+3)/2,2}\left[\lambda t^{(k+3)/2}\right]$$

tengliklarni e’tiborga olib, $\tau\left(t\right)$ ni quyidagicha topamiz:

$$\tau\left(t\right)=CtE_{(k+3)/2,2}\left[\lambda t^{(k+3/2)}\right]+\int_0^t E_{(k+3)/2,1}\left[\lambda\left(t-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]\Phi_2'\left(\eta\right)d\eta\,. \qquad (15)$$

(15) formuladan yordamida $\tau\left(T\right)$ va $\int_0^T\tau\left(t\right)dt$ larni hisoblab, so’ngra ularni (11) shartga qo’yib, C noma’lumni bir qiymatli aniqlaymiz:

$$CT\left(E_{(k+3)/2,2}\left[\lambda\left(t-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]-a\left(0\right)T\cdot E_{(k+3)/2,3}\left[\lambda T^{(k+3)/2}\right]\right)=$$

$$=a\left(0\right)\int_0^T E_{(k+3)/2,2}\left[\lambda\left(t-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]\left(T-\eta\right)\Phi_2'\left(\eta\right)d\eta-\int_0^T E_{(k+3)/2,1}\left[\lambda\left(T-\eta\right)^{(k+3)/2}\right]\Phi_2'\left(\eta\right)d\eta$$

(16)

Xulosa

Agar $a\left(0\right)$ va T sonlar uchun quyidagi tengsizlik

$$E_{(k+3)/2,2}\left[\lambda T^{(k+3)/2}\right]-a\left(0\right)\cdot T\cdot E_{(k+3)/2,3}\left[\lambda T^{(k+3)/2}\right]\neq 0 \qquad (17)$$

bajarilgan bo’lsa, (15) tenglikdan C noma’lum son bir qiymatli topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gevrey M. Sur les equations aux derivees partielles du type parabolique // J.Math. Appl.1913, T.9,Sec.6.-P. 305-475.
2. Керефов А.А. Об одной краевой задаче Жевре для параболического уравнения с знакопеременным разрывом первого рода у коэффициента при производной по времени // Дифференциальные уравнения.-Минск. 1974, Т.10, N1.-С.69-77.
3. Акбарова М.Х. Нелокальные краевые задачи для параболических уравнений смешанного типов. Автореферат на соискание ученой степени кандидата физико-математических наук. –Ташкент. 1995.-17с.;
4. Nakhushev A.M. The correct formulation of boundary value problems for parabolic equations with a characteristic form of variable sign. Differ. Uravn. 9, 130–135 (1973).
5. A.O. Mamanazarov. Gevrey problem for a mixed parabolic equation with singular coefficients. Itogi Nauki Tekh., Ser.: Sovrem. Mat. Pril. Temat. Obz. 156, 18–29 (2018).
6. D. Amanov. Boundary value problem for fourth order mixed parabolic equation. Uzb. Mathematical Jurnal. No. 2, 26-30.
7. A.O. Mamanazarov. Unique solvability of problems for a mixed parabolic equation in unbounded domain. Lobachevskii Journal of Mathematics, 2020, Vol. 41, No. 9, pp. 1837–1845.
8. A.O.Mamanazarov. Nonlocal problems for a fractional order mixed parabolic equation. Bulletin of National University of Uzbekistan: Mathematics and Natural Sciences. Vol. 4, Issue 1, 2020.

9. А.О.Маманазаров. Краевые задачи для смешанно-параболического уравнения дробного порядка в неограниченных областях. Бюллетень Института математики. № 6, с. 37-48.
10. Ўринов А.Қ. Махсус функциялар ва махсус операторлар.-Фарғона: Фарғона нашриёти, 2011.
11. A. D. Polyanin, Handbook of Linear Partial Differential Equations for Engineers and Scientists (Fizmatlit, Moscow, 2001; Chapman and Hall/CRC, New York, 2001).
12. Самко С. Г., Килбас А.А., Маричев О. И. Интегралы и производные дробного порядка и некоторые их приложения.- Минск: Наука и техника. 1987.

ҲЎЛ УСУЛДА ЧАНГ ТОЗАЛОВЧИ ҚУРИЛМАНИНГ САНОАТ СИНОВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ВА УНИНГ МАҚБУЛ ПАРАМЕТРЛАРИНИ АСОСЛАШ

Бобирмирзо Қўчқаров
Фарғона политехника институти, tmbobirmirzo@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада Пахта тозалаш корхоналарининг дастлабки тозалаш жараёнида ҳосил бўлувчи чангларни тозалаш учун яратилган конус сеткали аппаратнинг контакт элементи ҳисобланган сеткаларнинг қаршилик коэффициентларини аниқлашда ўтказилган тажрибавий тадқиқотлар таҳлили баён этилган.

Таянч сўзлар: *Чанг, газ, омил, гидравлик қаршилик, энергия истемоли, квадрат тешик ўлчами, циклон, самарадорлик, конуссимон сетка.*

Кириш

Ўтказилган назарий ва экспериментал тадқиқотлар асосида ҳўл усулда чанг тозаловчи қурилмага “LUX YAN TEX” [1] кластерига қарашли Бешариқ пахта тозалаш заводида тажриба синовлари олиб борилди. Қурилма пахта тозалаш заводининг цехларида ҳосил бўладиган чангларни тозалаш тармоғига ўрнатилди 1 ва 2-расмлар.

1-расм. Қурилманинг умумий кўриниши.

Пахта тозалаш саноатида пневмотранспортнинг асосан сўриш системаси қўлланилади. Бу технологик схема (2-расм) қуйидаги асосий қурилмалардан: пневматик пахта узатгич 1, ишчи труба 2, сепаратор 3, сўриш трубаси 4, вентилятор 5, чангли ҳавони чиқариш трубаси 6, чанг тозаловчи циклон 7, вентилятор 8, ҳўл усулда чанг тозаловчи конус сеткали қурилма 9 дан иборат.

Вентилятор ишлаганда сўрувчи труба ҳавони сўриб олади ва натижада иш труба ичига катта тезликда ҳаво кира бошлайди. Кираётган ҳавога пахта қўлда ёки механик узатгич

воситасида қўшиб юборилади. Ҳаво пахтани муаллақ ҳолда ўзи билан олиб кетади. Ҳаво билан аралашган пахта сепараторга 3 келиб тушгач, унинг тезлиги бир оз пасаяди. Тезликнинг пасайиши натижасида пахта бўлаклари ҳаводан ажрала бошлайди ва пастга вакуум-клапанга йўналади. Сепараторда пахтадан ажралган чангли ҳаво сўрувчи труба 4 орқали вентилятор 5 га келиб, ундан чиқариш трубаси 6 орқали циклон 7 га узатилади. Циклонда чангли ҳаво бирламчи тозаланади. Бу жараёнда хаво таркибидаги йирик ўлчамли д>100 мкм чанглар ушлаб қолинади. Циклондан чиққан майда ўлчамли д<100 мкм чанглар вентилятор 8 ёрдамида ҳўл усулда чанг тозалавчи қурилма 9 га узатилади ва чанглар самарали тозаланади.



2-расм. Заводининг дастлабки пахта тозалаш технологик схемаси.
I-чигитли пахта бунти. II-заводнинг тозалаш цехи.

Методлар

Саноат синовларини ўтказишда қуйидаги параметрлар чангли газ оқими тезлиги $\omega_г$=6÷24 м/с, (6 м/с қадам билан) қурилмага берилаётган суюқлик сарфи, $Q_с$=0,3÷1,2 м^3/соат, (0,3м^3/соат қадам билан) конуссимон сеткаларнинг квадрат тешик ўлчамлари а=1,1;1,3;1,6 мм танланди.

Ўтказиладиган саноат синовларидаги тажрибаларнинг кўп омилли эканлигини инобатга олиб, қурилманинг мақбул қийматларини аниқлаш учун математик режалаштириш усулидан фойдаланилди [2]. Назарий тадқиқотлар ва кўп омилли экспериментларда фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчами (X_1), чангли газ тезлиги (X_2) ва суюқлик сарфи (X_3) нинг қийматлари, қурилманинг гидравлик қаршилиги, энергия сарфи ва тозалаш самарадорлигига энг кўп таъсир этувчи омиллар эканлиги аниқланди.

Юқорида келтирилган назарий тадқиқотлар ва кўп омилли тажрибалар натижаларига асосланиб, ушбу омилларнинг ўзгариш оралиқлари белгиланди. 1-жадвалда омилларнинг сатҳлари ва ўзгариш оралиқлари келтирилган.

Кўп омилли экспериментларни ўтказишда баҳолаш мезонлари сифа-тида чангли ховони тозалашга сарфланадиган энергия ($У_1$), қурилманинг тозалаш самарадорлиги ($У_2$) ва қурилманинг гидравлик қаршилиги ($У_3$) деб қабул қилинди.

Баҳолаш мезонларига омилларнинг таъсирини иккинчи даражали полином тўлиқ ёритиб беради деб ҳисоблаб, тажрибалар HARTLI-3 режаси асосида амалга оширилди [3]

Баҳолаш мезонларига назорат қилинмайдиган омилларнинг таъсирини камайтириш учун тажрибаларни ўтказиш кетма-кетлиги тасодифий сонлар жадвалининг 1/11 кўринишидан фойдаланиб белгилаб олинди (2-жадвалда тасодифий қиматлар асосида ҳисобланган параметрлар келтирилган) хамда пахта чангини тозалашда мақбул параметрларни аниқлаш учун 5 маротабадан алоҳида-алоҳида такрорланган ҳолда тажрибалар ўтказилди. Тадқиқот натижалари назарий ҳисобий натижалардан 3,22% га фарқ қилади ва ундан ошмайди. Юқорида қайд этилган ўзгарувчи параметрлар, газ тезлиги $\omega_г$=6÷24 м/с, суюқлик сарфи, $Q_с$=0,3÷1,2 м^3/соат ва конуссимон сеткаларнинг квадрат тешик ўлчамлари а=1,1;1,3;1,6мм,бўлганда маънога эга.

1-жадвал

Омилларнинг сатҳлари ва ўзгариш оралиқлари

№	Омиллар	Ўлчов бирлиги	Омиллар-ни белги-ланиши	Ўзга-риш ора-лиғи	Омилларнинг сатҳлари		
					қуйи (–1)	асосий (0)	юқори (+1)
1.	Фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчами	мм	X_1	0,250	1,1	1,3	1,6
2.	Қурилмага берилаётган чангли газ тезлиги	м/с	X_2	5	6	12	24
3.	Суюқлик сарфи	$м^3$/соат	X_3	0,3	0,3	0,75	1,2

Олинган тажриба натижаларининг ўрта арифметик қийматлари танланди.

Натижалар

2-жадвал

Тасодифий қийматлар асосида ҳисобланган параметрлар

Сетка квадрат тешиги ўлчами	Чангли газ тезлиги	Суюқлик сарфи	Гидравлик қаршилик	Энергия сарфи	Тозалаш самарадорлиги
-1	-1	+1	965	337	99,42
+1	-1	-1	847	334	99,38
-1	+1	-1	800	338	99,35
+1	+1	+1	771	351	99,31
-1	0	0	761	372	99,27
+1	0	0	770	402	99,23
0	-1	0	797	439	99,19
0	+1	0	652	401	99,09
0	0	-1	705	374	99,17
0	0	+1	747	354	99,24
0	0	0	778	342	99,30

Тажриба натижаларига тегишли тартибда ишлов берилиб, баҳолаш мезонларини адекват ифодаловчи қуйидаги регрессия тенгламалари “ПЛАНЕХ” программасининг HARTLI-3 дастури бўйича олинди ва ўзгарувчи омилларнинг баҳолаш мезонларига боғлиқлик графиклари қурилди (1, 2, 3-расмлар).

Унга кўра:

Ҳўл усулда чанг ушловчи ва газ тозаловчи аппартнинг тозалаш жараёни учун сарфланадиган энергия қуйидаги регрессия тенгламаси бўйича аниқланади, кЖ/1000 $м^3$

1). $У_1$=+393,469+14,538x1-18,622x2-9,838x3-8,991x1x1+13,879x1x2+23,468x1x3+14,099x2x2-12,119x2x3-41,894x3x3

Ҳўл усулда чанг ушловчи ва газ тозаловчи аппартнинг тозалаш тозалаш самарадорлиги қуйидаги регрессия тенгламаси бўйича аниқланади, %

2).$У_2$=+99,180-0,019x1-0,055x2+0,035x3+0,111x1x1-0,034x1x2+0,016x1x3+0,000x2x2+0,000x2x3+0,066x3x3

Ҳўл усулда чанг ушловчи ва газ тозаловчи аппартнинг гидравлик қаршилиги қуйидаги регрессия тенгламаси бўйича аниқланади, Па

3).$У_3$=+713,479+4,389x1-72,622x2+21,768x3+68,206x1x1+
+0,000x1x2+12,350x1x3+27,537x2x2-40,901x2x3+28,367x3x3

Пахта чангини тозалаш жараёнида гидрвалик қаршилик, энергия истеъмоли ва тозалаш самарадорлиги учун олинган регрессия тенгламасидан фойдаланиб гидравлик қаршилик, энергия истемоли ва тозалаш самарадорлигининг қурилмадаги фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчами,

газ тезлиги ва суюқлик сарфига боғлиқлик графиклари қурилди.

Натижалар 3 расм. *а, б, в* -ларда келтирилган.



а



б



в

***а* – Гидравлик қаршиликнинг фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчамига боғлиқлиги;**
***б* – Энергиянинг фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчамига боғлиқлиги;**
***в* – Тозалаш самарадорлигининг фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчамига боғлиқлиги;**

Хулосалар

Олинган тажриба натижаларига математик режалаштириш усулини қўллаб, қурилманинг мақбул параметрлари асосланди ва унга кўра фильтрловчи сетка квадрат тешиги ўлчами, а=1,43мм, чангли газ тезлиги, *w*=15,85 м/с, суюқлик сарфи, $Q_{сую}$=0,89 $м^3$/соат ни, омилларнинг бу қийматларида қурилманинг энергия сарфи 1,5 кВт/соат, тозалаш самадорлиги 99,728% ва гидравлик каршилиги 1056,3 Па ни ташкил этди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. B.U.Qo‘chqarov., I.T. Karimov. Конус сеткали қурилманинг тозалаш самарадорлигини аниқлашда ўтказилган тажрибавий тадқиқотлар таҳлили // ФарПИ. Научно-технический журнал 2023.СПЕЦ. ВЫПУСК № 16 ФАРҒОНА – 2023 В.58-64. (05.00.00. № 20)
2. B.U.Qo‘chqarov., I.T. Karimov Experimental determination of resistance coefficients in the case of water sprinkled on a cone-shaped apparatus UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ Выпуск: 9(114) Сентябрь, 2023 Часть 5, Москва 2023. В.60-63 (02.00.00. №1)
3. B.U.Qo‘chqarov., I.T. Karimov Experimental investigation of pressure losses in wet dust cleaning cone mesh device //UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ Выпуск: 9(114) Сентябрь, 2023 Часть 5, Москва 2023. В.64-69 (02.00.00. №1)

4. B.U.Qo‘chqarov., I.T. Karimov Analysis of the disperse composition of dust of cotton cleaning industries //UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ Выпуск: 4(109) Апрель 2023,Часть 7 Москва 2023 В.60-64 (02.00.00. №1)

PARRANDACHILIK FERMASIDA REAKTIV QUVVATNI KOMPENSATSIYALOVCHI QURILMANI HISOBLASH USULI

Sardor Nuraliyev
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Reaktiv quvvatni rostlash energetik tizimi va uning elementlariga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Korxonaning aktiv va reaktiv yuklamalari o‘zgarganda kompensatsiyalovchi qurilmaning quvvatini rostlash energiya sarfini kamaytiradi va sifatini oshiradi. Elektr yuklama tugunida kompensatsiyalovchi qurilmalarni joylashtirish bilan elektr energiyasi qo‘shimcha isrofi kamayadi.

Tayanch iboralar. *Quvvat, aktiv, reaktiv, kompensatsiyalovchi qurilma, elektr energiya isrofi, rostlash, kondensator batareyalari, yuklanish.*

Kirish

Ushbu maqolada Yakkabog‘ tumani "Kumush kuz fayzi" MCHJ ning energetik xo‘jaligida kondensator batareyalarni quvvatini rostlash va ularni optimal joylashtirishning nazariy masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu korxona tuxum mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan parrandachilik kompleksi bo‘lib, tekshirishlar natijasida undagi energetik ko‘rsatgichlarni pastligi, aktiv va reaktiv quvvat isroflaring bir xil emasligi, korxonada o‘rnatilgan kompensatsiyalovchi qurilmalardan unumli foydalanilmaganligi, hamda transformatorlarning quvvatidan foydalanish koeffitsientlari pastligi aniqlandi. Elektr energiya istemolchilari taxlili orqali ortiqcha energiya isroflarini kamaytirish maqsadida kondensator batareyalarning quvvatini rostlash va kompensatsiyalovchi qurilmalarni optimal joylashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot usuli va taxlili

Kompensatsiyalovchi qurilma (KQ)larning quvvatini rostlash masalalarini yechishda energetika sistemasi va korxonalarning ichki elektr ta’minoti sistemasining ishlash sharoitlarini hisobga olish zarur. Reaktiv quvvatni rostlash effekti butun energosistema elementlariga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Agar energosistemada tungi paytlarda ham reaktiv quvvat zarurati tug‘iladigan bo‘lsa. KQlar sutka davomida ishlab turishi zarur bo‘ladi. Agarda tungi soatlarda reaktiv energiyaga zarurat bo‘lmasa, korxonaning KQlari butunlay ajratilib qo‘yilishi zarur.

Korxonalarning aktiv va reaktiv yuklamalari o‘zgarganda ko‘pchillik hollarda KQlar quvvatini o‘zgartirish maqsadga muofiqdir. KQlarining doimo ulanib turishi yuklamalarning o‘zgarishiga va tarmoqda isroflar ortishiga olib keladi.

Kondensator batareyalarni o‘rnatilish joyini hisobga olgan holda kompensatsiyalash shaxsiy, guruhli va markazlashtirilgan bo‘ladi. Kondensatorlar tarmoq yoki qurilmaga nisbatan parallel qo‘shiladi va odatda uchburchak usulida o‘zaro ulanadi.

Kondensator batareyasining quvvati tarmoq kuchlanishiga nisbatan ikkinchi darajasida va sig‘imga nisbatan birinchi darajasida to‘g‘ri proporsionaldir:

$$\Sigma Q_к = 3U^2_{тарм}\omega C10^{-3}, \quad (1)$$

bunda: ΣQ – uch fazaga tarmoqqa ulangan kondensator batareyalarning quvvati, kvar; $U_{тарм}$ – tarmoqdagi kuchlanish, kV; ω – burchak chastotasi, C^{-1}; C – kondensator batareyasining sig‘imi, mkF.

Tarmoqning chastotasi f=50 Gs ekanligini hisobga olinsa, yuqorida keltirilgan formulaning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\Sigma Q_к = 0{,}942U^2_{тарм}C. \quad (2)$$

Quvvat koeffitsientini oshirish maqsadida o‘rnatiladigan kondensator batareyasining quvvati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Sigma Q_к = \Sigma P(tg\varphi_1 - tg\varphi_2), \quad (3)$$

bunda: ΣP - qurilmalarning aktiv quvvati, kVt; φ_1 va φ_2 - kondensatorsiz va kondensatorli fazalarning burchak og‘ishi.

Ushbu tarmoqning optimal hamda samarali ish rejimlarini ta’minlab turish uchun yuklama toki va kuchlanishi hamda bir sutka davomida vaqtning o‘zgarishlariga bog‘liq ravishda kondensator batareyalarining quvvatini avtomatik rostlab turuvchi qurilma yoki kompensatsiyalovchi qurilma quvvatini dispecher punkitidan rostlanib turilishi zarur.



1 - rasm. Reaktiv quvvatni avtomatik rostlash sxemasi.

Kompensatsiya qurilmalarining quvvatini avtomatik rostlash quyidagi usullar asosida amalga oshiriladi: 1. Sutka davomida avtomatik rostlash- ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha sutkalik grafikda ko‘rsatilgan, energotizimga berilayotgan korxonaning reaktiv quvvatini chegaralash muhim bo‘lganda; 2. Kuchlanish bo‘yicha avtomatik rostlash- agar tarmoqning kuchlanishini optimal miqdoridan og‘ishini chegaralash kerak bo‘lsa; 3. Yuklama toki bo‘yicha avtomatik rostlash- agar to‘la yuklamaning ortishi va pasayishi ish vaqti mobaynida reaktiv quvvat o‘zgatishiga mos ravishda bo‘lsa; 4. Reaktiv quvvatning yo‘nalishi bo‘yicha avtomatik rostlash - agar korxona tomonidan enrgosisteme tarmog‘iga berilayotgan reaktiv quvvatni chegaralash zarur bo‘lsa; 5. Quvvat koeffitsenti bo‘yicha avtomatik rostlash- agar quvvat koeffitsentining o‘zgarishi reaktiv quvvatning o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional bo‘lsa; 6. Kombinatsiyali avtomatik rostlash – agar bir necha rostlash turlarini birlashtirish zarur bo‘lsa.

Ushbu sxemada RPCF-12 markali kantroller keltirilgan. Bu kantroller vazifasi agarda tarmoqdagi quvvat koeffitsienti cosφ=0.94 dan past ko‘rsatgichga tushadigan bo‘lsa unga tok transformatori orqali signal keladi va u kelgan signal orqali magnitli ishga tushirgichni ishga tushiradi, magnit ishga tushirgichlar esa kondensator batareyalarni ishga tushiradi va quvvat koeffitsientini cosφ=0.94 da bo‘lishini ta’minlaydi.

Avtomatik rostlash sxemalari bo‘yicha va ko‘rsatilgan korxonadagi quvvat koeffitsientini oshirish bo‘yicha tadbirlarni hisobga olib tanlanadi. Bunda energosistema talablari sistemadagi boshqa KQlar borligi, tarmoqning turli nuqtalaridagi kuchlanish, yuklamalar grafigini tahlili hisobga olinishi zarur.

KQlar ning quvvatini avtomatik rostlashning kombinatsiyali sxemalarida. Bunday sxemalar kichik va o‘rta quvvatli ko‘pchilik KQda istiqbolli sxemalar sifatida qo‘llaniladi. Kombinatsiyali

sxemalar KQni avtomat rostlashning bir pog‘onali va ko‘p pog‘onali usullarida qo‘llaniladi. Bunday sxemalar ajratilgan KQning zaryadlangan holda qayta ulanishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Tarmoq kuchlanishi sezilarli pasayib ketsa yoki reaktiv quvvat yo‘nalishi sistemadan podstansiyaga qaratilgan bo‘lsa kondensator qurilmalar avtomatik ravishda ishga tushirilishi zarur.

Agar reaktiv quvvat yo‘nalishi podstansiyadan energosistemaga qaratilgan bo‘lsa va podstansiya shinalarida nominal kuchlanish saqlanishida kondensator qurilmalar ajratiladi. Korxonaning elektr yuklama tugunida kompensatsiyalovchi qurilmalarni optimal joylashtirish orqali nafaqat reaktiv quvvatini kompensatsiyalaymiz, balki shu bilan birgalikda qo‘shimcha elektr energiya isrofini kamaytiramiz. Maksimal yuklanish davrida foydalanish vaqtlari bir xil bo‘lgan va bitta energiya markazidan tarqalayotgan radial tarmoqda reaktiv quvvatini isrofi minimal bo‘lishi uchun, kompensatsiyalovchi qurilmalarni joylashishi quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

$$(Q_1 - Q_{C1}) \cdot R_1 = (Q_2 - Q_{C2}) \cdot R_2 = \cdots = \\ = (Q_n - Q_{Cn}) \cdot R_n = (Q - Q_C) \cdot R_E = B \qquad (4)$$

bu yerda, alohida olingan har bir tarmoqning kompensatsiyalanmagan reaktiv yuklamalari ularning (tarmoqlarning) o‘tkazgichlariga to‘g‘ri proporsionaldir. Bunda tarmoqning har bir shahobchasidan oqib o‘tayotgan reaktiv quvvatlar $Q_1 \dots Q_n$ (yig‘indisi Q_E) va ularga ulangan kompensatsiyalovchi qurilmalarning quvvatlari $Q_{S1} \dots Q_{Cn}$ (yig‘indisi Q_S) deb belgilangan. R_1 … R_n tegishli tarmoqning xar bir fazasining aktiv qarshiliklari; R_E – bitta fazaga parallel qo‘shilgan tarmoqlarning ekvivalent aktiv qarshiligi.

$$\frac{1}{R_E} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \cdots + \frac{1}{R_n}. \qquad (5)$$

Har bir tarmoqning barcha qismlaridagi quvvatlarning isrofi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta P_{Qn} = \sum_1^n \frac{Q_n^2 \cdot R_n}{U_{nom}^2}. \qquad (6)$$

Amaliyotda kompensatsiyalovchi qurilmalarning quvvatlari Q_{cn} tarmoqlarning reaktiv yuklamalariga proporsional ravishta hisoblanadi:

$$\frac{Q_{C1}}{Q_1} = \frac{Q_{C2}}{Q_2} = \cdots = \frac{Q_{Cn}}{Q_n} = \frac{Q_C}{Q} \qquad (7)$$

Bu yerda kutilayotgan natija n o‘zgaruvchanlaridan minimal natija (funksiya) olishdir, lekin bu usul bilan reaktiv quvvatini kompensatsiyalanishidan kerakli effekt olib bo‘lmaydi. Yuklama tuginida yig‘ilayotgan barcha tarmoqlarning umumiy ekvivalent qarshiligi R_E ga teng bo‘ladi.

$$R_E = \sum_1^n R_{En} = \frac{\Delta P_{Qn} \cdot U_{nom}^2}{Q_n^2} \qquad (8)$$

bu yerda, R_{en} tugundan olinayotgan n – tarmoqning ekvivalent qarshiligi; $Q_\sum$ - energiya bilan ta’minlovchi markazining reaktiv quvvati.

$$Q_\sum = \sum_1^n Q_n. \qquad (9)$$

Xar bir n tarmoqda joylashtiriladigan kompensatsiyalovchi qurilmaning quvvatini aniqlaymiz:

$$Q_{KQn} = Q_n - \frac{Q_\sum - Q_{Cn}}{R_{En}}. \qquad (10)$$

Olingan natijani optimal yechimga yaqinroq deb hisoblaymiz. Agar ma’lum bir tarmoq uchun Q_{KQn} ning miqdori manfiy bo‘lib qolsa, Q_{KQ} miqdorini qaytadan hisoblash kerak. Faqatgina Q_{KQn} manfiy bo‘lgan tarmoqni ifodalovchi ko‘rsatgich R_E (8) va $Q_\sum$ (9) larni hisoblardan chiqarib tashlanadi. Jadvallardan kompensatsiyalovchi qurilmaning standart qiymatini qabul qilamiz. Kompensatsiyalovchi qurilma joylashgan joyidan iste’molchilargacha bo‘lgan masofasini ℓ va tarmoq uzunligini L deb hisoblaganda, $\frac{Q_C}{Q}$ larning miqdorlari (1) o‘zgarishi bilan Q_{KQ} ning joylashish masofasi ±0.1L intervalida o‘zgarishi mumkin.

Xulosa

Parrandachilik fermasidagi elektr iste’molchilarning yuklamalarini har bir tuguni uchun kompensatsiyalovchi qurilmalar ishlashini texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlarini samaradorligi kompleks ko‘rsatgichlariga (kompensatsiyalovchi qurilmalar quvvati, rostlanish pog‘onalari,

ulanish joyi va rostlanish funksiyasi) bog‘liqligi aniqlandi. Kondensator qurilmalar quvvatini va rostlash pog‘onalari grafoanalitik usuli yordamida asoslash taklif qilingan 0,4 kV kuchlanishli kompensatsiyalovchi qurilmalarni konstruktiv bajarilishi ularning quvvatini turli xil miqdorlarda rostlashga imkon beradi. Iste’mol bo‘layotgan reaktiv quvvatni kompensatsiyalash miqdori qo‘llaniladigan kompensatsiyalovchi qurilmalarning turlari va ularning rostlanish darajasi bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar

1. Radjabov A., Ibragimov M., Berdishev A.S. Energiya tejamkorlik asoslari T.: ToshDAU bosmaxonasi, 2009. - 108 b.
2. Radjabov A. Ibragimov M. Energotexnologik jarayonlarda energiya tejamkorlikka erishishning ilmiy-metodologik asoslari // AGRO ILM. TOShKENT 2008. N4(8)-74-76.
3. Toshev I.D., Bayzakov T.M., Berdishev A.S. Suv xo‘jaligi elektr ta’minoti. T.: TIMI, 2008. – 223 b.
4. Bezpalov V.Ya., Kotelenes N.F. Elektricheskie mashini. 2006.
5. Voldek A.I., Popov V.V. Elektricheskie mashini. Vvedenie v elektromexaniku. 2008.

TUT IPAK QURTI PILLALARINI JONSIZLANTIRISH VA QURITISH TEXNOLOGIYALARI

Nizomiddin Ahmadjonov [1], Rustem Yunusov [1], Bekzod Maxmudov [2]

[1]“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

[2]NamMTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tut ipak qurti g‘umbagini sifatli jonsizlantirish va quritish jarayonida elastik to‘lqin, konvektiv issiqlik, elektr energiyasi va boshqa jarayonlar yordamida qayta ishlash uchun yaratilgan texnika va texnologiyalar haqida so‘z boradi. Tut ipak qurti g‘umbagini jonsizlantirish va quritish jarayonining bir qator o‘ziga xos parametrlari mavjud: xom-ashyo hamda tayyor mahsulotning sifati va hajmi, harorat va havoning nisbiy namligi, qurilmada mahsulotning turishi. Ushbu texnika va texnologiyalar yordamida g‘umbakni jonsizlantirish va quritish uchun ketadigan energiya va vaqt tejaladi, undan olingan ipak mahsulotining sifati yuqoriroq bo‘ladi.

Tayanch so‘zlar: *tirik pilla, jonsizlantirish, agregat, issiq havo, issiq bug‘, quruq pilla.*

Kirish

Quritish – mahsulotlardagi namlikni bug‘lash va undan hosil bo‘lgan bug‘larni chiqazib yuborish orqali mahsulotlarni suvsizlantiruvchi termal jarayondir. Ushbu jarayonda moddada issiqlik uzatish va namlikning diffuziya harakati amalga oshadi. Quritish jarayoni ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilib kelinmoqda, shu jumladan, pillachilikda ham. Pillalarni quritish orqali undan sifatli ipak tolalarini olinadi. Chunki quritilgan pillalar uzoq muddat saqlanib turadi va ulardan yil davomida ipak tolalari yigirish mumkin. Agarda quritilmasdan saqlab qo‘yiladigan bo‘lsa u uzoq muddat turmasdan o‘z xususiyatini yo‘qotadi va undan sifatli tolalar olib bo‘lmaydi. Ipak qurti pillalarini past haroratda infraqizil nurlanish, elastik to‘lqinlar, bug‘, yuqori kuchlanishli chastota, tebranish va konvektiv issiqlik ta’minotidan foydalangan holda jonsizlantirish va quritish bo‘yicha taklif etilayotgan texnologiyalar eng innovatsion va mos usullaridan biridir. Ushbu texnologiyalar dolzarbligi – amalga oshirilayotgan ishlarini kengaytirish maqsadida “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi 2856-sonli tegishli qarori e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu qarorida yurtimizda mavjud tut plantatsiyalaridan yetarlicha samarali foydalanilmayotgani, qishda tut daraxtlari sezilarli darajada pasayayotgani alohida ta’kidlangan. Shuning uchun pilla xomashyosi ko‘p darajada ishlab chiqarilmayotgani sababli ipak va shoyi to‘qish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘la foydalanilmayapti. Hozirgi kunda 80 milliondan ortiq chiziqli plantatsiyalar va 51 ming gektar tut plantatsiyalari hajmda ipak qurti oziqlantirilmoqda. 450 ming quti va 26 ming tonnaga yaqin ipak qurti pillasi yetishtirilmoqda. Yetishmovchiliklarni o‘rnini to‘ldirish uchun har yili 230-250 ming

quti ipak qurti donasi import qilinadi, bu bilan sanoat korxonalarining 50 foizigacha ehtiyojlari qoplanadi[1].

Tabiiy ipakka bo‘lgan talab ko‘plab mamlakatlarda boshqa to‘qimachilik tolalari bilan taqqoslaganda juda yuqori hisoblanadi. Tut ipak qurti tolasining yuqori elastikligi, mustahkamligi va undan tayyorlanadigan matolarining go‘zalligi unga bo‘lgan talabni yanada orttiradi. Hozirgi kunda ipakchilik tarmog‘i butun dunyoda bugungi kunga qadar qishloq xo‘jaligining eng kam mexanizatsiyalashgan tarmog‘i bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligida ipakchilik tarmog‘ining ahamiyatini oshirishning muhim yo‘llaridan biri ipakchilikdagi asosiy jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash asosida ipak qurti va pilla yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishdir[2].



Infraqizil nurlanish va elastik to‘lqinlar yordamida ipak qurti pillalarini jonsizlantirish va quritish uchun o‘rnatish sxemasi

1-shamollatgich, 2-akustik generator, 3-mahsulot joylashtiriluvchi javon; 4-tebratgich; 5-korpus; 6-mahsulotni kirgizish bunkeri; 7-infraqizil nurlatgich; 8-mahsulotni yo‘naltirgich; 9-mahsulot chiqarish bunkeri.

Metodlar

Xorijiy va o‘zbek olim va amaliyotchilarning qator ilmiy va tajribaviy ishlari texnologik jarayonlarni takomillashtirish asosida pilla xomashyosi ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ipak tolalarini sifatini oshirishning ilmiy-amaliy masalalarini hal etishga bag‘ishlangan. Kompleks mexanizatsiyalashtirishni kengaytirish hisobiga ipak qurti pillasini qayta ishlash texnikasi va texnologiyalari yordamida mehnat sarfini, vaqtini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkoni yaratiladi. Shuning uchun hozirgi kunda pillachilik tizimidagi kamchiliklarni, importlarni kamaytirish va sifatli pillalarni ishlab chiqarish va yetishtirish maqsadida yurtimizda yaxshigina samara beradigan texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Quyida ularning bir nechtalarini ko‘rib chiqamiz:

Mahsulotlarni quritish uchun tebranishni hosil qilish mumkin bo‘lgan usullaridan biri mahsulotlar bilan birga barcha jihozlar, xususan, qurilma uchun tebranish mexanizmini ishlab chiqishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun qattiq platformaga nisbatan mexanik past chastotali

tebranishlarni yaratadigan tebranish mexanizmi qurilmasini Safarov J.E., Sultanova S.A., Dadaev G.T.,Zulpanov Sh.U., Erkinov D.D. lar ishlab chiqishgan.

Mahsulotni jonsizlantirish va quritish uchun past chastotali (t<100 Hz) mexanik tebranishlarni va aylanish harakatlarini yaratadigan turli mexanizmlarni misol qilish mumkin. Yuqorida shunday qurilmaning sxema tasvirlangan. Bu qurilmaning asosiy vazifasi gorizontal joylashgan ishchi javonlarning vertikal tebranishlarini yaratishdir.

Qurilmaga pillani mahsulotni kirgizish bunkeri orqali kiritiladi. Keyin pilla paddonlar orqali harakatlana boshlaydi. Birinchi paddondan harakatlanib borgan pilla yo‘naltirgich orqali ikkinchisiga tushadi va ushbu jarayonda mahsulot infraqizil nurlatgich orqali qizitiladi. Mahsulotga infraqizil nurlar(infraqizil nurlanish - elektromagnit to‘lqinlar spektrida 0,77 dan 340 mikrongacha bo‘lgan diapazonni egallagan elektromagnit nurlanishning bir turidir. Bunday holda, 0,77 dan 15 mikrongacha bo‘lgan diapazon qisqa to‘lqinli, 15 dan 100 mikrongacha bo‘lgan o‘rta to‘lqinli va 100 dan 340 mikrongacha bo‘lgan uzun to‘lqinli hisoblanadi. Spektrning qisqa to‘lqinli qismi ko‘rinadigan yorug‘likka qo‘shni bo‘lib, uzun to‘lqinli qismi ultraqisqa to‘lqinlar mintaqasi bilan birlashadi) berilganda u qiziydi va unda massa almashinish jarayoni sodir bo‘ladi. Korpus uchidagi havo shamollatgich orqali chiqazib turiladi. Korpusdagi akkustik generator(akustik generator odatda tovush to‘lqinlarini ishlab chiqaradigan ularni mexanik energiyaga aylantirib beradigan qurilmadir, ushbu generatorlar turli shakllarda bo‘lishi mumkin va turli maqsadlarga xizmat qiladi) va vibratorning vazifasi mahsulot ishchi organdan yumalab kelayotgan vaqtda uni tebratishdir.. Tebratish hisobiga mahsulotning yumalash jarayoni tezlashtirishdir. Buning natijasida mahsulotning barcha tomonlariga infraqizil nurlar yetib boradi va pilla ichidagi g‘umbaklar jonsizlanadi. Shundan so‘ng mahsulotlar chiqarish qismidan chiqarib olinadi[3].

Endi quyidagi Namangan muhandislik texnologiya instituti o‘qituvchi va doktorantlari tomonidan yaratilgan qurilmani ham ko‘rib chiqamiz:

Bu konveyerli qurilma ikki energiya ya’ni quyosh energiyasi (issiqlik energiyasi) va elektr energiyasi orqali ishlaydi. Agar kamera ichidagi quyosh energiyasi orqali harorat yetarli darajada qizisa, qurilma elektr energiyasdan foydalanmaydi. Agar harorat belgilanganidan tushib ketsa elektr energiyasi orqali yana qizdiriladi.



Qurilmaning umumiy ko‘rinish sxemasi.

1-issiqlik izolyatsion korpus, 2-yo‘naltiruvchi charxlar, 3-harakatlantiruvchi charxlar, 4-konveyer, zanjir, 5-quyosh nurini o‘tkazuvchi oyna va qizdiruvchi qora jism (kollektor), 6-gorizontal va vertikal 360* aylanuvchi tayanch, 7-qurilmaga quyosh nurini tushish burchagini sozlovchi predmet, 8-maxsulot kirish joyi, 9-quritilgan maxsulotni avtomatik ochilish orqali chiqaruvchi soha, 10-elektr energiyasi yordamida qizdiruvchi element, 11-avtomatik ventelyatsiya tizimi, 12-namlik va harorat datchiklari, 13-mexatronik tizim boshqaruvi.

Qurilmaning ishlash prinspi quyidagicha: pilla g‘umbaklari mahsulot kiritish sohasi(8) orqali qurilmaga kiritiladi, mahsulot konveyer(4) orqali harakatlanadi. Harakatlanish davomida elektr energiyasi orqali qizdiruvchi element(10) orqali mahsulotda issiqlik almashinuv jarayoni ro‘y bera boshlaydi. Issiqlik yetarli bo‘lmagan paytda kollektor orqali ham issiqlik beriladi, quyosh nurlari kollektorga to‘g‘ridan to‘g‘ri tushishini ta’minlash maqsadida qurilmaning tayanch qismiga gorizantal va vertical 360° aylanuvchi tayanch o‘rnatilgan. Qurilmaga namlik va harorat datchiklari(12) ham o‘rnatilgan bo‘lib, ular kamera ichidagi namlik va haroratni doimo nazorat qilib turadi. Ichkaridagi issiqlik izalyatsion korpus(1) yordamida ushlab turiladi. Agar harorat ko‘tarilib ketsa issiq havo ventilyatsiya(11) tizimi orqali tashqariga chiqarib yuborilib yetarli haroratga olib kelinadi. Ushbu jarayonlarni barini mexatronik boshqaruv tizimi(13) yordamida boshqarib turiladi. Konveyer yo‘naltiruvchi charxlar(2) orqali mahsulotni keyingi konveyerga uzatadi. Bunda konveyerlar harakatlantiruvchi charxlar(3) orqali harakatga keltiriladi. Birinchi konveyerdan ikkinchisiga pillalar tushganda ular qisman bo‘lsada to‘nkarilib tushadi. Natijada ularning issiqlik qabul qilmagan qismlariga ham issiqlikning yetib borish imkoni tug‘iladi. Shu jarayonlardan o‘tib quritilgan pillalar chiqarish sohasi(9) orqali chiqariladi.

Natijalar

Quritish kameralaridagi optimal parametrlar ustida olib borilgan tajriba ishlarida quyidagi jadvalda keltirilgan qiymatlar asosli deb topilgan.

Omillar	**birligi**	**X**	**min**	**max**	**o‘rtacha**
t(vaqt)	*soat*	X_1	2,5	3,5	3
T (harorat)	*°C*	X_2	75	85	80
H (namlik)	*%*	X_3	10	12	11

Ushbu qurilmada quritgichga avtomatik boshqaruvli mexatronik tizim qo‘llanilishi orqali yoqilg‘i sarfini kamaytirish, muqobil energiya manbalarini pilla sanoatiga tadbiq etish hamda pillalarni qayta ishlash tannarxini kamaytirish masalalari tadqiq etilgan.

Olib borilgan ishlar yuzasidan quyidagilarni samaradorlik sifatida keltirish mumkin: g‘umbakni jonsizlantirish va quritishda quyosh issiqlik energiyasini qo‘llashning texnologik yechimiga, mexatronik tizim orqali boshqariladigan quritish kamerasidagi sarflangan birlik energiyadan samaradorlikga erishilgan.

Mexatronik tizim yordamida boshqariladigan quritish kamerasini pilla g‘umbaklarini o‘ldirish va quritishga qo‘llash natijasida, 2,7 kg pilla 1,5 kg gacha yarim quritilishi va 100 % g‘umbak o‘ldirilishida quyosh energiyasidan foydalanib kimyoviy zaharlash usuliga nisbatan iqtisodiy samara o‘rtacha har bir kg pilladan 690 so‘mni tashkil qildi. Ushbu qiymat hisobini quyidagicha ko‘rish mumkin:

korxonalar uchun 1 kvt elektr energiya s=450 so‘m
elektr isitkichlar umumiy quvvati P=3,2 kvt
3,5 soat quritish davomida elektr energiyasidan foydalanish vaqti t=0,33 soat
quritilgan hom pilla og‘irligi m=2,7 kg
bir kunlik qo‘l mehnati harajati x=60 000 so‘m
bir marta quritish jarayoniga ketgan vaqt ulushi k=0,35
umumiy harajat: 7954 so‘m
kimyoviy zaharlash yo‘li bilan 1 kg pillani tayyorlash uchun harajat: 8 644 so‘m
Har bir kg pilla uchun iqtisodiy samara: 8644-7954=690so‘m.

Mexatronik tizim yordamida boshqariladigan quritish uskunasi yaratilgan hamda quyosh va qisman elektr energiyalari yordamida quritish kamerasidagi harorat, vaqt, namlik parametrlarini optimal boshqarish orqali quritish jarayonlariamalga oshirilishi orqali sifat bo‘yicha samaradorlikga erishilgan[4].

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yuqorida keltirilgan bir nechta qurilmalarning asosiy maqsadi va vazifalari tejamkor yo‘llar bilan pillani quritish va jonsizlantirishga qaratilgan. Bu qurilmalardan foydalanilganda nafaqat energiya resurslari balki vaqt va iqtisodiy tomondan ham sezilarli darajada samaradorlikka erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi “O‘zbekipaksanoat uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2856-son qarori.
2. Burlakov V.S. Rivojlangan texnik vositalardan foydalangan holda yangi texnologiyalar asosida ipakchilik samaradorligini oshirish. Diss. dok. Qishloq xo'jaligi fanlari. -Belgorod, 2005. -275 b.
3. Norqulova K.T., Umarov V.F., Safarov J.E. Vibratsiyadan foydalanish
4. quritish shkaflarida mexanizm. QDTU yangiliklari. Bishkek, 2009. -17-son. B.135-136
5. Maxmudov B.M. “Mexatronik tizim yordamida boshqariladigan konveyerli quritish uskunasini yaratish va optimal parametrlarini aniqlash” Diss. dok. Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari. Namangan, 2022.

SHOLI MAXSULOTINI QURITISH JARAYONLARINI OPTIMALLASH

Nurzod Abduqodirov[1], Muxtorjon Mansurov [1], Ozoda Davlatova [2]
[1]Namangan muhandislik qurilish instituti
[2]Farg‘ona politexnika institute, nurzodqodirov1991@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qurituvchi qurilma konstruksiyasi, quritish jarayonlari, usullari, quritish barabanining parametrlari, quritish davrlari o’rganildi va tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko’ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun yechimlar taklif qilindi.

Kalit so’zlar: *Baraban, nasadka, donlar, tezlik, quritish davri, nisbiy namlik, konvektiv quritish usuli, fizik-mexanik va issiqlik fizik xossalari*

Kirish

Donni quritish qurilmalarining konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularni taqqoslash, sinash va ishchi qismlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha bir qator olimlar, jumladan, D.Yu.Danilov, A.J.Sagindikova, V.M.Kurdyumov, N.V.Suglenok, M.M.Abdyushev, A.N.Xramov, N.V.Demskiy, A.A.Pavlushin va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Quritish jarayonlarida sholining parametrlarini don sifatiga ta’sirini tadqiq etish, takomillashtirish va ularni hisoblash usullari bo‘yicha P.D.Lebedev**,** A.V.Likov, A.S.Demidov, A.A.Pikerstil, I.M.Fedotkin, V.P. Klochkov, Ye.S.Krichevskiy va boshqalar shug‘ullanishgan.

Ular tomonidan sholi donlarini quritishning takomillashtirilgan usuli, ekologik toza va energiyatejamkor texnologik jarayon va mashina-apparatlar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga hozirda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va turdosh sanoatlar uchun mo‘ljallangan ixcham, arzon va eksportga mo‘ljallangan sholi quritish texnologiyalari va mashinalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Metod

O‘tkazilgan ko‘p omilli eksperementlar asosida qurilmaning maqbul qiymatlarini aniqlash uchun matematik rejalashtirish usulidan foydalanildi. Apparatning parametrlarini optimallashda quritish uchun tanlangan alanga va devzira navli sholilarni quritishda aniqlangan parametrlarni bir biriga yaqinligi inobatga olindi va matematik rejalashtirish usuli alanga va devzira navli sholilar uchun alohida alohida o‘tkazilmadi. Nazariy tadqiqotlar va ko‘p omilli eksperementlarda apparatga berilayotgan issiqlik agenti tezligi (X_1), kronshtayn pog‘onalar soni (X_2), barabanli quritgichga o‘rnatilgan Γ simon nasadkalar soni (X_3) va barabanli quritgichga kirayotgan material ish unumdorligi (X_4) barabanli quritgichga berilayotgan issiqlik agenti (issiqlik agenti sifatida 45^{o} C gacha qizdirilgan havodan foydalanilgan) harorati, quritilayotgan material namligi va apparat gidravlik qarshiligiga eng ko‘p ta’sir etuvchi omillar ekanligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tadqiqotlar va ko‘p omilli tajribalar natijalariga asoslanib, ushbu omillarning o‘zgarish oraliqlari belgilandi. 1-jadvalda omillarning sathlari va o‘zgarish oraliqlari keltirilgan.

Ko‘p omilli eksperimentlarni o‘tkazishda baholash mezonlari sifa-tida barabanli quritgichga berilayotgan issiqlik agenti harorati (Y_1), quritilayotgan material namligi (Y_2) va apparat gidravlik qarshiligiga (Y_3) deb qabul qilindi.

Baholash mezonlariga omillarning ta’sirini ikkinchi darajali polinom to‘liq yoritib beradi deb hisoblab, tajribalar HARTLI-4 rejasi asosida amalga oshirildi.

Baholash mezonlariga nazorat qilinmaydigan omillarning ta’sirini kamaytirish uchun tajribalarni o‘tkazish ketma-ketligi tasodifiy sonlar jadvalining 1/17 ko‘rinishidan foydalanib belgilab olindi (2-jadvalda tasodifiy qiymatlar asosida hisoblangan parametrlar keltirilgan) hamda sholi maxsulotini quritishda maqbul parametrlarni aniqlash uchun 5 marotabadan alohida-alohida takrorlangan holda tajribalar o‘tkazildi. Olingan tajriba natijalarining o‘rta arifmetik qiymatlari tanlandi.

1-jadval

Omillarning sathlari va o‘zgarish oraliqlari

№	Omillar	O‘lchov birligi	Omil-larni belgi-lanishi	O‘zga-rish ora-lig‘i	Omillarning sathlari		
					quyi (–1)	asosiy (0)	yuqori (+1)
1.	Apparatga berilayotgan issiqlik agenti tezligi	m/s	X_1	7.5	5	12.5	20
2.	Kronshtayn pog‘onalar soni	dona	X_2	1	2	3	4

3.	Barabanli quritgichga o‘rnatilgan Γ simon nasadkalar soni	dona	X_3	4	12	16	20
4.	Barabanli quritgichga kirayotgan material ish unumdorligi	kg/s	X_4	0.1	0.2	0.3	0.4

Natija

Tajriba natijalariga tegishli tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi 1; 2 va 3 regressiya tenglamalari “PLANEX” programmasining HARTLI-4 dasturi bo‘yicha olindi va o‘zgaruvchi omillarning bohlash mezonlariga bog‘liqlik grafiklari qurildi (1,2,3-rasmlar).

Unga ko‘ra:

Issiqlik agentidan materialga o‘tadigan harorat quyidagi regressiya tenglamasi bo‘yicha aniqlanadi, gradus;

$$Y1=29.5-1.86X1-3.6X2-0.3X3-10.9X4+0.26X1X1+0.21X2X2+$$
$$+0.26X3X3+0.11X4X4+0.9X1X2+0.88X1X3+0.66X1X4-0.61X2X3-$$
$$-0.88X2X4+0.91X3X4 \quad (1)$$

Issiqlik agenti ta’sirida materil namligining o‘zgarishi quyidagi regressiya tenglamasi bo‘yicha aniqlanadi, kg/kg;

$$Y2=11.07-0.75X1-1.33X2-0.4X3-3.3X4+0.22X1X1+0.4X2X2+$$
$$+0.22X3X3+1.34X4X4-0.62X1X2+0.53X1X3+0.74X1X4-$$
$$-0.67X2X3+0.31X2X4+0.99X3X4 \quad (2)$$

Qurilmada yo‘qotiladigan gidravlik qarshilik quyidagi regressiya tenglamasi bo‘yicha aniqlanadi, Pa;

$$Y3=488+526.8X1+74.7X2+36.6X3+243.7X4+65.6X1X1-37.6X2X2-$$
$$-69.7X3X3+156.4X4X4+80.6X1X2+50X1X3+40X1X4-192.9X2X3+$$
$$+24.7X2X4+ 11.6X3X4 \quad (3)$$

Sholi maxsulotini quritish jarayonida barabanli quritgichga berilayotgan issiqlik agenti harorati (Y_1), quritilayotgan material namligi (Y_2) va apparat gidravlik qarshiligi (Y_3) uchun olingan regressiya tenglamasidan foydalanib baholash mezonlarining apparatga berilayotgan issiqlik agenti tezligi, kronshtayn pog‘onalar soni, barabanli quritgichga o‘rnatilgan Γ simon nasadkalar soni va barabanli quritgichga kirayotgan material ish unumdorligiga bog‘liqlik grafiklari qurildi. Natijalar 1, *a, b, v;* 2, *a, b, v*; 3, *a, b, v* va 4, *a, b, v* -rasmlarda keltirilgan.

2-jadval

Olingan tajriba natijalarining o‘rta arifmetik qiymatlari

Apparatga berilayotgan issiqlik agenti tezligi	Kronshtayn pog‘ onalar soni	Barabanli quritgichga o‘ rnatilgan G simon nasadkalar soni	Barabanli quritgichga kirayotgan material ish unumdorligi	Barabanli quritgichga berilayotgan issiqlik agenti harorati	Quritilayotgan material namligi	Apparat gidravlik qarshiligiga
-1	-1	-1	1	24	9.75	60
1	-1	-1	1	21.4	9.6	944
-1	1	-1	-1	44.8	19.8	50

1	1	-1	-1	35.9	14.2	1096
-1	-1	1	-1	44.2	18	61.2
1	-1	1	-1	42.5	17.01	985
-1	1	1	1	16.3	9.1	94
1	1	1	1	13.6	8.59	1499
-1	0	0	0	31.1	11.4	65
1	0	0	0	28.4	11.1	1058
0	-1	0	0	33.3	12.76	384
0	1	0	0	26.1	10.1	533
0	0	-1	0	30.05	11.65	390
0	0	1	0	29.45	10.85	463
0	0	0	-1	40.5	15.7	409
0	0	0	1	18.7	9.05	895
0	0	0	0	29.5	11.25	430







a – Quritgichga berilayotgan issiqlik agenti haroratining agent tezligiga bog‘liqligi;

b – Quritilayotgan material namligining agent tezligiga bog‘liqligi;

v – Apparat gidravlik qarshiligi agent tezligiga bog‘liqligi;

1-rasm. Qurituvchi agent tezliging baholash mezonlariga bog‘liqlik grafigi.



a



b



v

a – quritgichga berilayotgan issiqlik agenti haroratining kronshtayn pog‘onalari soniga bog‘liqligi;

b – quritilayotgan material namligining kronshtayn pog‘onalari soniga bog‘liqligi;

v – apparat gidravlik qarshiligi kronshtayn pog‘onalari soniga bog‘liqligi;

2-rasm. Kronshtayn pog‘onalari sonining baholash mezonlariga bog‘liqlik grafigi.



a



b



v

a – quritgichga berilayotgan issiqlik agenti haroratining Γ simon nasadkalar soniga bog‘liqligi;

b – quritilayotgan material namligining Γ simon nasadkalar soniga bog‘liqligi;

v – apparat gidravlik qarshiligi Γ simon nasadkalar soniga bog‘liqligi;

3-rasm. Γ simon nasadkalar sonining baholash mezonlariga bog‘liqlik grafigi.



a



b



v

a – quritgichga berilayotgan issiqlik agenti haroratining ish unumdorligiga bog‘liqligi;

b – quritilayotgan material namligining ish unumdorligiga bog‘liqligi;

v – apparat gidravlik qarshiligi ish unumdorligiga bog‘liqligi;

4-rasm. Ish unumdorligining baholash mezonlariga bog‘liqlik grafigi.

Olingan regressiya tenglamalari va grafiklar (1, *a, b, v;* 2, *a, b, v*; 3, *a, b, v* va 4, *a, b, v* - rasmlar) tahlilidan ko‘rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kronshtayn pog‘onalari va nasadkalar soni o‘rganilayotgan omillarga nisbatan murakkab bog‘liqlikda bo‘ladi.

Tadqiq etilayotgan jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar, ya’ni qurilmaning gidravlik qarshiligi, qurituvchi agent harorati va material namligining maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida (1)-(2) va (3) regressiya tenglamalari sholi maxsulotini barabanli quritgichda quritish jarayoni uchun alohida-alohida yechib ko‘rildi. Bunda sholining namligi 12.2÷14 % oralig‘ida bo‘lishi belgilandi.Ushbu vazifa Excel dasturini «yechimni qidirish» (poisk resheniya) amali yordamida yechilib, o‘zgaruvchan omillarning kodlangan ko‘rinishidagi maqbul qiymatlari olindi hamda kodlangan qiymatlardan natural qiymatlarga o‘tildi 4.3-jadval.

3–jadval

Kodlangan qiymatlardan natural qiymatlarga o‘tish

№	Omillar	O‘lchov birligi	Shartli belgilanishi	Kodlangan qiymati	Haqiqiy qiymati
1	Apparatga berilayotgan issiqlik agenti tezligi	m/s	X_1	0,3	16,3
2	Kronshtayn pog‘onalar soni	dona	X_2	0.5	3
3	Barabanli quritgichga o‘rnatilgan Г simon nasadkalar soni	dona	X_3	-0.5	14
4	Barabanli quritgichga kirayotgan material ish unumdorligi	kg/s	X_4	0.75	0.375

Xulosa

Shunday qilib, sholi maxsulotini quritish jarayoni uchun apparatning maqbul parametrlari standart holatga keltirildi va uni quyidagicha yozish mumkin.

Apparatga berilayotgan issiqlik agenti tezligi - 16,3 m/s;

Kronshtayn pog‘onalar soni-3 pog‘onali;

Barabanli quritgichga o‘rnatilgan Г simon nasadkalar soni -14 dona

-Barabanli quritgichga kirayotgan material ish unumdorligi- 0,375 kg/s

Omillarning bu qiymatlarida sholi maxsulotini quritish jarayonida issiqlik agenti harorati 28,62 ^{o}C , quritilayotgan material namligi 12,75 % va apparat gidravlik qarshiligi 785 Pa ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abducodirov N., Okyulov K. IMPROVEMENT OF DRUM DRYER DESIGN // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83).
2. Nurzod Shavkatjon Ogli Abduqodirov, Kamoliddin Raxmat Ogli Oqyolov, Gulnoza Xabibulla Qizi Jalilova, Gazaloy Gulomjonovna Nishonova CAUSES AND EXTINGUISHING EQUIPMENT OF VIBRATIONS OCCURRED BY MACHINERY AND MECHANISMS // Scientific progress. 2021. №2.
3. Tojiev, R. J. (2019). Drying glass feed stock in drum drier for manufacturing glass products. *Scientific-technical journal*, *22*(3), 137-140.
4. Nurzod Shavkatjon O’G’Li Abduqodirov, Kamoliddin Raxmat O’G’Li Oqyo’Lov, Abduqahhor Abdiraxmon O’G’Li Omonov, Qodirali Raxmiddin Ogli Raimjonov XOM PAXTANI QURITISH VA TOZALASH UCHUN REGRESSIYA MODELINI QURISH // Scientific progress. 2021. №1.
5. Kamoliddin Raxmat O‘G‘Li Oqyo‘Lov, Nurzod Shavkatjon O‘G‘Li Abduqodirov, Abduhalim Toshpo‘Lat O‘G‘Li Rahmonov, G‘Azaloy G‘Ulomjonovna Nishonova MASHINA VA MEXANIZMLARNING ISH JARAYONIDA VUJUTGA KELGAN

VIBRATSIYA SABABLARI VA SO’NDIRISH QURILMALARI // Scientific progress. 2021. №6.
6. Nurzod Shavkatjon O’G’Li Abduqodirov, Kamoliddin Raxmat O’Gli Oqyo’Lov, Gulnoza Xabibulla Qizi Jalilova PAXTA XOMASHYOSINI QURITISH VA TOZALASH // Scientific progress. 2021. №1.
7. Исмоилжон Вахобжон Ўғли Обичаев, Нурзод Шавкатжон Ўғли Абдуқодиров, Камолиддин Рахмат Ўғли Оқйўлов КОТЕЛЬ ВА БОШҚА ОЛОВЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР УЧУН НЕФТ ШЛАМЛАРНИ ТОЗА ЁҚИЛҒИ СИФАТИДА ҚЎЛЛАШ // Scientific progress. 2021. №6.
8. Oqyo‘Lov, Kamoliddin Raxmat O‘G‘Li, Abduqodirov, Nurzod Shavkatjon O‘G‘Li KARTOSHKA TUGANAKLARINI SARALASH MASHINALARINING SAMARADORLIK ASOSLARI // ORIENSS. 2021. №10.
9. Mirzakhonov Yunus, Akhtambaev Sobitjon, Abdukodirov Nurzod, Jalilova Gulnoza RESEARCH OF PARAMETERS AT THE APPEARANCE OF SHEARING FORCES IN THE COMPOUND TENSION ROLLER OF TRANSPORTATION AND TECHNOLOGICAL MACHINES // Universum: технические науки. 2021. №11-6 (92).
10. Н.Ш.Абдукодиров, М.Т.Мансуров, С.С.Ахтамбаев Сушка зерна в конвекционных сушилках // Science and Education. 2023. №2.
11. Mansurov Muxtorjon Tohirjonovich, Tojiyev Rasul Jumaboyevich, Abduqodirov Nurzod Shavkatjon O‘G‘Li Qishloq xo’jaligida donlarni barabanli qurutgichda quritish // Механика и технология. 2022. №7.
12. Ахтамбаев Ахтамбаев, Жалилова Г.Х, Окйулов К.Р., Абдукодиров Н.Ш. ҚУРИТИШ ЖАРАЁНИНИНГ ВИБРАЦИОН КИНЕМАТИКАСИ // Экономика и социум. 2021. №10 (89).
13. Shavkatjon o'g'li, Abduqodirov Nurzod. "OK (2021)." Main characteristics electric vibrators based on a linear motor with permanent magnets. Tadqiqot. uz 112118.
14. Камолиддин Рахмат Ўғли Оқйўлов, Нурзод Шавкатжон Ўғли Абдуқодиров ДЕТАЛЛАРНИ ЮЗАЛАРИНИ КИМЁВИЙ-ТЕРМИК ИШЛАШ УСУЛИ ОРҚАЛИ ҚАТТИҚЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ // Scientific progress. 2021. №8.
-beshinchisiga – kasbiy xususiyatdagi muammolarni hal etishda ma’lumotni qo‘llashga oid masalalarni kiritamiz.

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlarishda fundamental fanlarning asosiy vazifasi talabalarni nafaqat nazariy bilimlarni ongli o‘zlashtirishga jalb etish, balki ularni amaliy masalalarni yechishda kreativ yondashgan xolda ratsional usullarni qo‘llashga o‘rgatishdan iborat[6].

Kasbiy masala ostida talabalar o‘quv topshirig‘i ko‘rinishidagi kasbiy faoliyatning ma’lum maqsadini tushunish lozim. Ana shunday maqsadlarga yo‘naltirilgan masalalarni yechimini topish orqali, talabalarning faqat

bilim, ko‘nikma va malakalari rivojlanibgina qolmay, ularning shaxsiy kompetentsiyalari ham rivojlanadi[10;12;13].

Muhokama

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetentlikni samarali rivojlantirish maqsadida masalali yondashuvdan foydalanish orqali uni amaliy masalalar va kasbiy yo‘naltirilgan xususiyatdagi masalalarga ajratiladi. Amaliy masalalar va kasbiy yo‘naltirilgan xususiyatdagi masalalarning yechimlarini aniqlash yordamida talabalarning mantiqiy tanqidiy fikrlashlari, kasbiy yo‘naltirilgan masalalarni matematik mazmunini keltira olishlari, matematik intuitsiya va matematik modellash metodidan foydalanish kabi qobiliyatlari rivojlanadi.

Masalali yondashuv – bu turli-tuman o‘quv vazifalarini o‘rgatish mazmunidagi keng ifodalash. Ular orasida:

a) masalaning yechimidan foydalanib biror bir o‘quv muammosining mohiyatini tushuna oladigan

b) yuzaga kelgan muammoli vaziyatni bartaraf etish usullarini belgilaydigan ketma-kelikdagi masalalar;

c) izlanish – tadqiqotchilik faoliyatlaridan kelib chiqadigan masalalar d)mustahkamlovchi xususiyatdagi mashq qilish masalalari (nazariy materialga nisbatan).

Masalali yondashuv masalani talaba faoliyati mazmuni va usullarini belgilovchi ob’ekt sifatida ko‘radi. Masala ta’lim oluvchini ma’lum bilim, ko‘nikma, malakalar tizimini shakllantirish bo‘yicha ishni mustaqil yakunlash zarurati oldiga qo‘yadi va bu orqali uni yondashadigan aqliy sxemalar va qoidalarni ongli va faol anglashga undaydi shu bilan birga masalaning mazmuni va uning yechimi maxsus fanlardan bilimlarni talab etadi. Amaliy masalalarni yechish talabalarda, o‘z g‘oyasini amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi[10;13].

1-masala: Egiluvchan (elastik) bir jinsli cho‘zilmaydigan arqon uchlari bilan ikki nuqtada mahkamlangan va arqonga uning gorizontal proyeksiyasi bo‘ylab bir xil taqsimlaigan qH/m nagruzka tushadi. Arqonning ogirligini hisobga olmay, uning muvozanat holatdagi shaklini aniqlang[4].

Odatda osma ko‘priklarning zanjir yoki arqonlarining muvozanat holatidagi shaklini aniqlashda bunday masala yuzaga keladi: Nagruzka (zanjir yoki arqonra osilgan ko‘prik) gorizontal proyeksiya bo‘ylab bir tekis taqsimlangan va uning kattaligi shundayki, zanjir yoki arqonning og‘irligini hisobga olmasa ham bo‘ladi.

Yechilishi. Bu holda $W = qx$, bu yerda x arqonning M nuqtasining koordinatasi, birvaqtning o‘zida u arqonning O_1M qismining gorizontal proyeksiyasi bo‘ladi.

Shuning uchun $\frac{dy}{dx} = \frac{W}{H}$ (1) differensial tenglama $\frac{dy}{dx} = \frac{qx}{H}$ ko‘rinishni oladi. Uning umumiy yechimi $y = \frac{qx^2}{2H} + C$ parabolalar oilasidan iborat bo‘ladi. C ni aniqlash uchun O_1 nuqtaning $y = q/H$ ordinatasini beramiz. U holda boshlangich shart $x = 0$ da $y = q/H$ bo‘ladi, demak, $C = q/H$ va izlanayotgan xususiy yechim $y = \frac{q}{H}\left(\frac{x^2}{2} + 1\right)$ paraboladan iborat bo‘ladi.

2-masala: (Zanjir chiziq.) Egiluvchan bir jinsli cho‘zilmaydigan arqon ikki uchidan mahkamlangan bo‘lib, o‘zining og‘irligi ostida osilib turadi. Agar arqonning bir birlik uzunligining og‘irligi q ga teng bo‘lsa, arqonning muvozanat holatdagi shaklini aniqlang.

Yechilishi. Bu holda $W = qs$, bu yerda $s -$ arqonning O_1M yoyining uzunligi. Matematik analiz ko‘rsidan ma’lumki. $s = \int_0^x \sqrt{1 + \left(\frac{dy}{dx}\right)^2}\, dx$.

Shuning uchun $W = q\int_0^x \sqrt{1+\left(\frac{dy}{dx}\right)^2}\,dx$, демак, $\frac{dW}{dx} = \sqrt{1+\left(\frac{dy}{dx}\right)^2}\,\frac{dW}{dx}$ hosilaning ifodasi

$$\frac{d^2y}{dx^2} = \frac{1}{H}\frac{dW}{dx} \qquad (2)$$

tenglamaga qo‘yib, x argument va izlanayotgan y funksiya qatnashmagan ushbu ikkinchi tartibli differensial tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{d^2y}{dx^2} = \frac{q}{H}\sqrt{1+\left(\frac{dy}{dx}\right)^2}. \qquad (3)$$

$\frac{dy}{dx} = u$ o‘rniga qo‘yish orqali bu tenglama o‘zgaruvchilari ajraladigan ushbu birinchi tartibli tenglamaga keltiriladi:

$$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{a}\sqrt{1+u^2},$$

bu yerda $H/q = \alpha$ deb begilangan. O‘zgaruvchilarni ajratib integrallasak,

$$\ln\left(u+\sqrt{u^2+1}\right) = \frac{x}{a} + \ln C_1,$$

bu yerdan

$$u+\sqrt{u^2+1} = C_1 e^{x/a}.$$

$\sqrt{u^2+1}$ ildizni yakkalab va hosil bo‘lgan tenglikning ikkala qismini kvadratga ko‘tarib, soddalashtirsak,

$$1 = C_1^2 e^{2x/a} - 2C_1 u e^{x/a}$$

ni hosil qilamiz, bu yerdan

$$\frac{dy}{dx} = \frac{C_1}{2}e^{x/a} - \frac{1}{2C_1}e^{-x/a}, \qquad (4)$$

chunki $u = \frac{dy}{dx}$.

Birinchi tartibli eng sodda tenglama hosil bo‘ladi. Uning umumiy yechimi:

$$y = \frac{aC_1}{2}e^{x/a} + \frac{a}{2C_1}e^{-x/a} + C_2. \qquad (5)$$

C_1 va C_2 ixtiyoriy o‘zgarmaslarni aniqlash uchun O_1 nuqtaning $y = a$ ordinatasini olamiz. O_1 nuqtada urinma Ox o‘qqa parallel ekanligini e’tiborga olib, boshlang‘ich shartni quyidagicha yozamiz: $x = 0$ da $y = a$, $y' = 0$. x va y' ning qiymatlarini (18) tenglikka qo‘yib, C_1 ni aniqlash uchun ushbu algebraik tenglamani hosil qilamiz:

$$0 = \frac{C_1}{2} - \frac{1}{2C_1},$$

bu yerdai

$$C_1 = 1.$$

Ikkinchi (maifiy ildiz) yaramaydi, bu differensial tenglamadan bevosita kelib chiqadi. Haqiqatan ham, $C_1 < 0$ tengsizlikdan $\frac{d^2y}{dx^2} < 0$ kelib chiqadi, bu esa tenglamaga zid, chunki uning o‘ng tomoni butunlay musbat kattalik.

x va y ning qiymatlarini (19) tenglamaga qo‘yib quyidagini hosil qilamiz:

$$a = \frac{a}{2} + \frac{a}{2} + C_2,$$

bu yerdan $C_2 = 0$.

Shunday qilib, izlanayotgan xususiy yechim

$$y = \frac{a}{2}\left(e^{x/a} + e^{-x/a}\right)$$

yoki

$$y = ach\frac{x}{a}$$

funksiyadan iborat ekan.

Bu masalaning yechimi ikki uchidan osilgan egiluvchan cho‘zilmaydigan arqon o‘z og‘irligi ta’sirida giperbolik kosinusning grafigi shaklini olishini ko‘rsatadi. Giperbolik kosinusning zanjir chiziq deb atalishi ham shu bilan tushuntiriladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini masalali yondoshuv asosida rivojlatirish maqsadida fundamental fanlar bilan kasbiy faoliyatdagi mutaxassislik texnika fanlari (nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, gidravlika, mashinalar va mexanizmlar nazariyasi, energiya tejamkorlik, geodezik o‘lchashlar)orasida fanlararo o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur deb xisoblanadi[13]. Bu bilan talabalarda oliy ta’lim muassasalarida o‘tilayotgan xar bir mutaxassislik fanlariga oid masalalarning yechimlari va ularning amaliy tadbiqini reproduktiv, produktiv hamda kreativ yondoshgan holda o‘rganish orqali fundamental fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlantirilishiga erishiladi.

Masalan:

1-masala. Massasi m bo‘lgan moddiy nuqta og‘irlik kuchi ta’sirida erkin tushmoqda. Nuqtaning harakat qonunini havoning qarshiligini hisobga olmasdan toping.

2-masala: (Otilgan o‘qning harakat qonuni). $v_0 = 400$ m/sek tezlik bilan harakatlanib kelayotgan o‘q $h = 20$ sm qalinlikdagi devorni teshib o‘tib, undan $v_1 = 100$ m/sek tezlik bilan uchib chiqadi. Devorning qarshilik kuchi o‘qning harakat tezligi kvadratiga proportsional deb olib, o‘qning devor ichida harakatlanish vaqti T ni toping.

Kasbiy faoliyatda fundamental fanlar bilan birgalikda nazariy mexanikaning dinamika-kinematika masalalari, materiallar qarshiligidagi egilish, bukilishga oid masalalar, energetikaning energiya tejamkorlikka oid masalalar, qurilish soxasidagi geodezik o‘lchashlar nazariyasiga oid, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashda texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish va avtomatlashtirish kabi shularga o‘xshash bir qator kasbiy faoliyatdagi masalalar fundamental fanlardan o‘zlashtirgan masalalar yechish bo‘yicha bilimlari asosida yechiladi[16;20].

Ta’sir etuvchi kuchlar ma’lum bo‘lganda moddiy nuqtaning harakat qonunini aniqlash nuqta dinamikasining klassik masalasi hisoblanadi. Ta’sir etuvchi kuchlarga qarab, har xil tipdagi tenglamalar hosil bo‘ladi. Bu kabi masalalarning ko‘pchiligi mexanik masalalar bo‘lib, ularning yechimi, Nyutonning ikkinchi qonuni orqali differentsial tenglamaga olib keladi.

Masalan:

1) 1 litr yog‘ sig‘imli slindr shaklidagi banka yasalishi kerak. Banka yasalishi uchun sarflanadigan metalning umumiy yuzasi funksiyasini tuzish

2) Massasi 20kg bo‘lgan jism $s(t)=3t^2+t-4\ (м)$ qonuniyat bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli harakatlanmoqda. Jismning xarakat boshlangandan 5s o‘tgandan keyingi kinetik energiyasi funksiyasini tuzing.

3) $y=arctgx-x$ funksiyaning qavariq va botiq oraliqlari hamda bukilish nuqtasini toping.

4) $\vec{F}=\{2;2;9\}$ kuch $B(4;2;-3)$ nuqtaga qo‘yilgan. $A(2;4;0)$ nuqtaga nisbatan kuch momentining toping.

5) Massasi 50g bo‘lgan moddiy nuqta to‘g‘ri chiziq bo‘ylab $s(t)=1+3t+5t^2+5t^2$ qonun bo‘yicha xarakat qilmoqda. Agar yo‘l metrda, vaqt sekundda o‘lchansa, nuqtaga ta’sir etuvchi kuchni toping

6) Massasi 10kg bo‘lgan jism $s(t)=3t^2+t-4\ (м)$ qonuniyat bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli harakatlanmoqda. Jismning xarakat boshlangandan 4s o‘tgandan keyingi kinetik energiyasini toping

Bunday topshiriqlarning ahamiyati, ularning asosida talabalarda funktsional bog‘liqlik tushunchasi to‘g‘risida yanada chuqur tasavvurlar rivojlanishidan iborat. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kasbiy - amaliy yo‘naltirilgan masalalarning yechimlarini izlash bilan, talabalar fundamental fanlar bo‘yicha asosiy tushunchalar, bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantiradilar hamda fanlararo o‘zaro hamkorlik o‘rnatish asosida kasbiy – amaliy yo‘naltirilgan(muammoli-faoliyatli, ijodiy) masalalarni darajalashtirish, taqqoslash, taxlil va sintez, mavxumlashtirish, umumlashtirish orqali kasbiy kompetenliklaini rivojlanirishga erishadilar.

Kasbiy-amaliy masalalarni yechish orqali esa talabalarda kreativ yondoshuvlarga xos bo‘lgan amaliy bilimlar rivojlantiriladi va shu bilan birga o‘z mutahassisliklari bo‘yicha olgan bilaimlari asosida matematik modellashtirish haqida tushunchalari hamda qobilyatlari rivojlanib boradi.

Xulosa

Mazkur topshiriqlarni bajarish bilimlarni bazaviy darajada o‘zlashtirishni talab etadi, mazmunli xotiraning rivojlanishiga ko‘maklashadi va daliliy materialni o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Bunda talabalarda mantiqiy fikrlash rivojlanadi, asosli bilimlarni nostandart vaziyatda qo‘llash malakalari shakllanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini fundamentallashtirish prinsipini amalga oshirish maqsadida biz amaliy mazmundagi masalalardan foydalanishni taklif etamiz. Kasbiy faoliyatlardagi masalalarning metodologik ahamiyati, masalalarni yechishdagi matematik modellarni tuzishda fizika, kimyo, mexanika va boshqa fanlarning ma’lum qonunlaridan foydalanish zarur.

Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra bilim oluchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini ko‘proq bilim berish jarayonida xosil qilinganligi sababli, talabalarning kompetentsiyalari ham dars jarayonida rivojlantiriladi.

Hulosa sifatida huni aytish mumkinki, talabalarning kasbiy savodxonligi holati, tanlangan mazmun sohasining materiallariga ega bo‘lishdan tashqari, kasbiy kompetentligining rivojlanish darajasi bilan ham tavsiflanadi. Ularning kasbiy kompetentligi fundamental fanlar bo‘yicha, bilim ko‘nikmalarining va qobiliyatlarining takomillashtirilgan umumiy ko‘rinishi kabi izohlanib, kasbiy faoliyatlarida uchraydigan fundamental bilimlarni talab qiluvchi turli muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Sulaymonov X.M, Fayzullayev J.I “Elektromagnit induksiya hodisasini matematik tahlilini sohalarda qo‘llanilishi”, FarPI Ilmiy-texnika jurnali maxsus soni 2023-yil №9, 12-15
2. FJ Ismoiljonovich, The Importance of Practical Issues in the Development of Professional Competence of Students of Technical Higher Education Institutions Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 15-2022, 225-229

3. Исмоилджанович Ф.Д. (2022). Развитие профессиональной компетентности студентов технических высших учебных заведений на основе деятельностного подхода. *Central asian journal of mathematical theory and computer sciences*, *3*(10), 102-107.
4. А.В. Матросов (2001). Решение задач высшей математики и механики. СПб.: БХВ-Петербург, 533 ст
5. Mirzakarimov Ergashboy Mirzaboyevich, Fayzullayev Djamshid Ismoiljonovich “Solving Differential Equations Using the Operational Method In the Maple System”, Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal Of Education, 2024 Volume 02, 212-216
6. Mirzakarimov E. M., Faizullaev J. I. Method of teaching the integration of information and educational technologies in a heterogeneous parabolic equation //scientific bulletin of namangan state university.2019.T.1.№5.–C.13-17J.I.
7. Mirzaboyevich, M. E., & Ismoiljonovich, F. D. (2024). “Geometric representation of complex numbers in the maple system” *Gospodarka i Innowacje*, (45), 70-78
8. Mirzaboyevich, M. E., & Ismoiljonovich, F. D. (2024), “Linear operations on complex numbers in the maple system” *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 79-86
9. Fayzullayev, Mathematical competence development method for students through solving the vibration problem with a maple system, Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2..8.353-358
10. J.I. Fayzullayev, Fundamental fanlar yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 10. 454-461
11. J.I. Fayzullayev, A systematic approach to the development of mathematical competence among students of technical universities, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences , 2020 Vol 8 (3.42-47)
12. JI Fayzullaev “Matematik bilimlar orqali texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish”, Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2 (5)-2022, 255-260
13. Fayzullayev J.I. “Masalali yondashuv asosida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish” // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021 yil, 10-son 450-453, (13.00 00 №30)
14. Fayzullayev J.I. Tebranish masalasini MAPLE tizimi yordamida yechish orqali talabalarda matematik kompetentlikni rivojlantirish // NamDU ilmiy axborotnomasi Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. Namangan, 2020 yil, 8-son, 353-358, (13.00 00 №30)
15. Fayzullayev J.I. Bo‘lajak muhandislarning matematik kompetensiyasini rivojlantirishda faoliyatli yondashuvning ahamiyati // TDPU ilmiy axborotlari, ilmiy-nazariy jurnal, 2020 7-son, 154-158, (13.00 00 №32)
16. Fayzullayev J.I. Texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy maxoratlarini rivojlantirishda matematik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati // TDPU xabarnomasi. Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. Toshkent, 2020 yil, 4-son, 182-185 (13.00 00 №32)
17. Fayzullayev J.I. Mathematical competence as the basis for improving the quality of students' mathematical education // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3) 36-41, http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/03/ (13.00 00 №3)
18. Fayzullaev Jamshid Ismoiljonovich (2022)“The importance of practical issues in the development of professional competence of students of technical higher education institutions”, eurasian journal of learning and academic teaching,225-229
19. Fayzullayev J.I “Axborot va pedagogik teznalogiyalar integratsiyasi asosida talabalarning intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish”, TDPU 2023-yil 5-son, 293-298

20. Fayzullayev J.I “Oliy matematikaning analitik geometriya va chiziqli algebra modulini axborot va pedagogik teznalogiyalar integratsiyasi asosida o‘qitish metodikasi”, Electronic education scientific journal 2023 №4 vol 2, 4-13

МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОПТИМИЗАЦИИ ТЕХНИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ МАШИН

Айдарали Туленов, Тынлыбек Бажиров, Бауржан Шойбеков
Южно-Казахстанский университет им. М. Ауэзова, tulenov-2011@mail.ru

Аннотация. В статье проанализированы вспомогательные системы в части их взаимосвязи с основными, а последних – с объектом. По результатам анализа приведены математические модели оптимизации технического обслуживания параллельно-вспомогательных, последовательно-вспомогательных и основных систем.

Ключевые слова: *параллельно-вспомогательная система, последовательно-вспомогательная система, основная система, техническое обслуживание, наработка на отказ, ресурс машин, удельная стоимость технического обслуживания и ремонта.*

Введение

Достижение наибольших результатов при наименьших затратах – непреложный закон рыночной экономики. Эффективное решение проблемы по обеспечению повышения работоспособности сельскохозяйственных машин, что связано с решением целого комплекса задач, одной из которых является разработка моделей оптимизации технического обслуживания [1].

Формирование комплекса технического обслуживания следует начинать с оптимизации периодичностей выполнения операций, связанных с отказами. Однако, отказы отнюдь не всех систем вызывают непосредственный отказ машины, но могут влиять на скорость изнашивания.

Математическую модель оптимизации желательно иметь единую. Для удобства ее применения, математические выражения, необходимые для оптимизации периодичностей, могут быть различными в зависимости от назначения операций. А они непосредственно связаны с отказами, точнее последствиями отказов. Так возникает необходимость в их классификации [2].

Методы

В соответствии с задачами технического обслуживания классифицируем отказы.

К первой группе отнесем отказы, вызывающие увеличение скорости изнашивания. Они снижают средние ресурсы составных частей (агрегатов, сборочных частей и т.п., то есть условно – основных систем) и объекта в целом. Для удобства изложения условимся такие отказы называть отказами параллельно - вспомогательных систем.

К второй группе отнесем отказы, вызывающие любые отказы объекта, кроме отказов предельного состояния его основных частей. Отказы этой группы не снижают средних ресурсов объекта и его частей, но вызывают перерывы в работе, снижают вероятность безотказной работы объекта, коэффициент готовности. Условимся такие отказы по аналогии называть отказами последовательно – вспомогательных систем.

К третьей группе отнесем отказы предельного состояния объекта и его основных частей. Также по аналогии условимся такие отказы называть отказами основных систем [3].

Для последующего уточнения, необходимого для математического моделирования, проанализируем вспомогательные системы в части их взаимосвязи с основными, а последних – с объектом. В результате выявляются следующие варианты.

Одна параллельно - вспомогательная система взаимодействует с одной основной системой, при достижении предельного состояния которой либо объект снимается с эксплуатации, либо заменяется система и определяется новое значение периодичности обслуживания, которое может отличаться от предыдущего при общем процессе восстановления [4].

Одна параллельно – вспомогательная система взаимодействует с одной основной, заменяемой при достижении предельного состояния. Процесс восстановления общий. Используется одно значение периодичности обслуживания.

Несколько параллельно – вспомогательных систем, взаимодействуют с одной основной, заменяемой при достижении предельного состояния. После замены, если она необходима, обслуживание осуществляется либо с новой периодичностью, либо с единой, установленной с учетом процесса восстановления.

Одна параллельно - вспомогательная система взаимодействует с несколькими основными. Остальные условия те же, что и в предыдущем случае.

Необходимо отметить, что если вспомогательная система восстанавливается многократно, с периодичностью технического обслуживания, значение которой существенно меньше ресурсов объекта, то основная система если и обновляется ($n > 1$), то ограниченное число раз (обычно n = 1-3).

Приведенное рассмотрение относится к первой классификационной группе. Для второй группы, последовательно-вспомогательные системы характерны с позиций математического моделирования следующие три варианта:

- вероятность отказа этой системы нанаработка между обслуживаниями существенно меньше единицы;
- производится несколько ($n > 1$) восстановлений вспомогательной системы при ее отказе, на наработке между обслуживаниями;
- вспомогательную систему восстанавливают на наработке между обслуживаниями, как при ее отказе, так и отказе других систем [5].

Предложенная классификация, конечно, условна, как впрочем, многие классификации. Одна и та же система должна рассматриваться и как последовательно-вспомогательная, и как параллельно-вспомогательная, что зависит от характера и последствий отказа данной системы. Например, отказ системы охлаждения двигателя, связанный с появлением отложений, вызывающих повышенный тепловой режим, следовательно, снижение ресурса двигателя, приводит к необходимости рассматривать систему охлаждения, как параллельно-вспомогательную. Но отказ той же системы из-за течи охлаждающей жидкости, исключающей продолжение работы, обязывает ту же систему рассматривать как последовательно-вспомогательную.

В связи с этим при использовании классификации, первоначально необходимо определить к каким последствиям приводит отказ и в зависимости от этого относить сборочную единицу, агрегат или систему машины к той или иной классификационной группе. Во всех случаях необходимо, прежде всего, анализировать отказы и в соответствии с этим применять математический аппарат, разработанный по классификационным группам, с учетом их особенностей.

Операции технического обслуживания по всем классификационным группам следует рассматривать как работы, во-первых, обязательные, производящиеся в предположении, что произошли отказ или неисправность, а во-вторых, выявление технического состояния желательно методами и средствами технической диагностики.

Результаты

Исходя из критерия минимизации средней суммарной удельной стоимости ремонта и технического обслуживания $C_{\text{пн общ}}(t_{\text{об}}) \to min$ целевая функция должна отражать стоимость устранения одного отказа $C_{\text{отк}}$ и среднюю наработку $t_{\text{н}}$ на этот отказ, а также стоимость операции технического обслуживания $C_{\text{об}}$ и наработку $t_{\text{об}}$ на ее выполнение:

$$C_{\text{пн общ}}(t_{\text{об}}) = \frac{C_{\text{отк}}}{t_{\text{н}}} + \frac{C_{\text{об}}}{t_{\text{об}}} \to min. \quad (1)$$

В общем случае средняя наработка на отказ определяется суммарной средней наработкой $t_{\text{ср}}$ и средним числом отказов, определяемым ведущей функцией $\Omega(t)$:

$$t_{\text{н}} = \frac{t_{\text{ср}}}{\Omega(t)} \quad . \quad (2)$$

оотношение (1) и (2) позволяют в принципе определить оптимальную периодичность выполнения операций, если, конечно, она существует, для всех рассмотренных ранее вариантов функционирования вспомогательных систем и их взаимосвязей с основными, а последних с объектом. Отличие моделей определяется методом выявления средней наработки $t_н$ на отказ. Рассмотрим кратко преобразование общей целевой функции (1) для частных случаев с учетом сделанных предпосылок, что не исключает, конечно, более детальный анализ.

Отметим, что в зависимости от принятого критерия $C_{отк}$ и $C_{об}$ могут также отражать простои машин при устранении отказов и выполнении технического обслуживания или соответствующие трудовые затраты.

Модель 1. Одна параллельно-вспомогательная система взаимодействует с одной основной, в случае замены которой периодичность обслуживания определяется вновь, т.е. значение функции $\Omega(t)$ равно единице.

В этом случае средняя наработка определяется по соотношению:

$$t_н = t_{ср} = \int_0^\infty P(t)dt = t_р \qquad (3)$$

и равна среднему ресурсу $t_р$ основной системы.

Соотношение (1) с учетом (3) принимает вид:

$$C_{пн\ общ}(t_{об})=\frac{C_{отк}}{t_р} + \frac{C_{об}}{t_{об}} \to min. \qquad (4)$$

В соотношении (4) значение ресурсов $t_р$ зависит от периодичности обслуживания $t_{об}$, т.е.

$$t_р = \varphi(t_{об}) \qquad (5)$$

Модель 2. Те же условия, что и в модели 1, но требуется определить одну периодичность обслуживания при общем процессе восстановления объекта заменой основной системы:

$$\Omega(t) = M\nu(t) = \sum_{n+1}^{\infty} F_n\,(t) \qquad (6)$$

величина $\nu(t)$ может принимать только целые неотрицательные значения. Распределение $\boldsymbol{\nu}(t)$определяется исходя из того, что:

$$P\{\nu(t) \geq n\} = P\{t_n < t\} = P\{\tau_1 + \tau_2 + \cdots + \tau_n < 1\} = F_n(t) \qquad (7)$$

где τ – наработка на очередной отказ,

функция $F_n(t)$ – закон распределения.

$t_н$ определяется так:

$$F_n(t) = \int_0^t F_{n-1}\,(t-\tau)dF(\tau), F_1(t) \qquad (8)$$

Из этого следует, что:

$$P_n(t) = P\{\nu(t) = n\} = F_n(t) - F_{n-1}(t). \qquad (9)$$

В частности

$$P_\nu(t) = 1 - F(t)$$

В общем случае $t > t_{ср}$ и соотношение (2) принимает вид

$$t_н = \frac{t_{ср}}{\boldsymbol{\nu}_{(t)}}, \qquad (10)$$

а соотношение (1)

$$C_{пн\ общ}(t_{об})=\frac{C_{отк}\nu(t)}{t_{ср}} + \frac{C_{об}}{t_{об}} \to min \qquad (11)$$

Модель 3. Последовательно-вспомогательная система обладает достаточной надежностью, а поэтому значение ее восстановлений на наработке между обслуживаниями $n \ll 1$ существенно меньше единицы, т.е. вероятность отказа $F(t) \ll 1$.

Применительно к таким системам удобно использовать приближенную оценку $\Omega(t)$ на начальном участке наработки, где $F(t) \ll 1$ справедливо приближенное равенство

$$\Omega(t) \approx F(t), \qquad (12)$$

из которого следует, что средние наработки $t_{ср}$ на F(t) определяется как

$$t_{ср} = \int_0^{t_{об}} P(x)dx, \qquad (13)$$

а средняя наработка на отказ в соответствии с (2), (12) и (13)

$$t_{\text{н}} = \frac{\int_0^{t_{\text{об}}} P(x)dx}{F(t_{\text{об}})}, \quad (14)$$

что позволяет придать целевой функции (1) следующий вид

$$\text{С}_{\text{пн общ}}(t_{\text{об}})=\frac{\text{С}_{\text{отк}}F(t_{\text{об}})}{\int_0^{t_{\text{об}}} P(x)dx} + \frac{\text{С}_{\text{об}}}{t_{\text{об}}} \rightarrow min \quad (15)$$

Модель 4. Последовательно-вспомогательную систему восстанавливают по отказу на наработке $t_{\text{об}}$ можно определить по уже приведенным соотношениям или по уравнению

$$\Omega(t_{\text{об}}) = \text{F(t)} + \int_0^{\text{t}_{\text{об}}} \Omega(t-\tau)\,\text{dF}(\tau), \quad (16)$$

а соотношение (1) принимает вид

$$\text{С}_{\text{пн общ}}(t_{\text{об}})=\frac{\text{С}_{\text{отк}}\Omega(t_{\text{об}})+\text{С}_{\text{об}}}{t_{\text{об}}} \rightarrow min \quad (17)$$

Модель 5. Последовательно-вспомогательную систему восстанавливают на наработке $t_{\text{об}}$ по ее отказу и «попутно» при отказе какой-либо другой системы, а также при техническом обслуживании.

Средняя наработка на отказ вспомогательной системы определяется за наработку объекта T с помощью ведущей функции отказов $\Omega^*_{\text{TO}}(\text{T})$ этой системы за ту же наработку T, т.е.

$$t_{\text{н}} = \frac{T}{\Omega_{TO}(T)} \quad (18)$$

Целевая функция (1) принимает вид

$$\text{С}_{\text{пн общ}}(t_{\text{об}})=\frac{\text{С}_{\text{отк}}\Omega_{\text{TO}}(\text{T})}{\text{T}} + \frac{\text{С}_{\text{об}}}{t_{\text{об}}} \rightarrow min \quad (19)$$

Выводы

Таким образом, комплекс работ должен быть минимальным и достаточным (оптимальным) для решения задач технического обслуживания (ТО), которыми, в конечном итоге, являются снижение темпа изнашивания; обеспечение требуемого уровня вероятности безотказной работы в периоды между обслуживаниями; уменьшение удельных затрат на устранение отказов, а следовательно увеличение ресурса машин.

Литература

1. Зорин В.А. Основы работоспособности технических систем : учебник для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Зорин. -М.: «Академия», 2009. -208 с.
2. Надежность и эффективность в технике: Справочник 10 т. -М.: Машиностроение, 1986-1989.
3. Надежность и ремонт машин: учебник для высш. учеб. заведений / В.В. Курчаткин, Н.Ф. Тельнов, К.А. Ачкасов [и др.]; под ред. В.В. Курчаткина. – М.: Колос, 2000. – 776 с.
4. Кульсеитов Ж.О., Лисьев В.П. Математические модели и поддержание надежности машин. –Алматы: Ғылым 1996-222 с.
5. Ремонт дорожных машин, автомобилей и тракторов: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования/ Под ред. В.А. Зорина. – 11-е изд., стер. – М.: «Академия», 2019. – 512 с.

8- SHO‘BA

TEXNIKA FANLARI TA’LIMIDA INNOVASION YONDASHUVLAR, MUAMOLAR VA YECHIMLARI

8- СЕКЦИЯ

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК

8-SECTION

INNOVATIVE APPROACHES, PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE EDUCATION OF TECHNICAL SCIENCES

16.

NAZARIY MEXANIKA FANIDAN KO’P VARIANTLI MASALALAR TUZISH TAJRIBASIDAN

Zokirjon Maxmudov
Namangan muhandislik-qurilish instituti

Annotatsiya: Keyingi besh yil ichida mamlakatimizda oliy talim muassasalsri soni keslkin oshdi va ularga qabul soni ham mos ravishda ko’paydi. Talabalarni o’quv-uslubiy taminoti masalasi yuzaga keldi. Ushbu maqolada nazariy mexanika fanidan talabalar uchun ko’p variantli masalalar tuzish tajribasi hususida so’z boradi.

Kalit so‘zlar: *nazariy mexanika, kinematika, ilgarilanma harakat, tezlik, tezlanish, aylanma harakat, chiziqli tezlik, aylantirma tezlanish, markazga intilma tezlanish, harakatni uzatish, reyka, pog’onali g’ildirak.*

Kirish

Mamlakatimizda xozirgi kunda ta'lim soxasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlari talabalari soni va ta'lim yo‘nalishlari soni muntazam kengayib, ko‘payib bormoqda. Faoliyat olib borayotgan davlat oliy o’quv yurtlari qatoriga nodavlat oliy talim muassasalari qo’shilmoqda. Birgina Namangan viloyatida so‘nggi yillarda mavjud 3 oliy o‘quv yurtlari qatoriga yana yangi 5 ta davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlari qo‘shilgani fikrimiz dalilidir. Demak talabalar sonini oshishi ularga sifatli bilim berish bilan birga fanlarning o’quv-uslibiy taminotini yahshilash masalasini ham kun tartibiga qo’yadi. Ayniqsa lotin alifbosidagi talabalarning uslubiy taminotini yahshilash lozimligi sir emas. Ularga zamon talablariga mos keladigan sifatli va rangli tarzda chop etilgan darslik, o’quv qo’llanmalari va masalalar toplamlari zarur.

Metodlar

Nazariy mexanika kinematika bo’limidan talabalar uchun ko’p variantli topshiriq tuzib chiqildi. Unda talabalar etiboriga 10 ta shakl va 10 ta shartdan iborat masalalar berilgan bo’lib, ular muallif tomonidan mustaqil ravishda tuzib chiqildi. Unda topshiriq matni, chizmasi va topshiriqni bajarish namunasi berilgan. Quyida ushbu topshiriq to’la ravishda keltirilgan.

K9 Topshiriq. Ilgarilanma va aylanma harakatdagi qattiq jism nuqtalari tezlik va tezlanishlarini aniqlash

Mexanik sistema bir-birlari bilan tegishib turgan yoki cho‘zilmaydigan arqon bilan tutashtirilgan to’rtta jismdan iborat. $x_1=f(t)$ qonun asosida ilgarilanma harakatdagi 1-jism arqon vositasida 2-pog‘onali g‘ildirakni harakatga keltiradi (ba’zi variantlarda 4-tishli reyka 3-pog’onali gildirakni harakatga keltiradi). 2-g‘ildirak o‘z navbatida 3 pog‘onali g‘ildirak bilan tashqi (yoki ichki) tomondan tishlashgan va harakat 3-g‘ildirakka uzatiladi. O’z navbatida 3- pog’onali g‘ildirak 4-tishli reykani harakatga keltiradi. Topshiriq shakllari K9.0-K9.9-shakllarda keltirilgan. Harakat 1-yukning $x_1=f(t)$ qonun bo‘yicha ilgarilanma harakati bilan boshlanadi (ba’zi variantlarda $s_4=f(t)$ qonun bo’yicha harakatlanayotgan

K9-jadval

№	$x_1=f(t)$ sm	$s_4=f(t)$ sm	t_1 sek	R_2 sm	r_2 sm	R_3 sm	r_3 sm
0	$10t^2$		1	20	10	24	12
1		$3t^2-1$	2	80	40	60	30
2	$9t^2+2$		1	90	45	70	35
3		$2t+5t^2$	2	24	12	28	14
4	$2t^3$		1	48	24	52	26
5		$6t^2-2t$	2	12	6	18	9
6	$1+2t+t^2$		1	32	16	36	18
7		$7t+4t^2$	2	42	21	38	19
8	$3t^3+1$		1	4	2	6	3
9		$5t^2$	2	8	4	10	5



K9.0-shakl



K9.1-shakl



K9.2-shakl



K9.3-shakl



K9.4-shakl



K9.5-shakl



K9.6-shakl



K9.7-shakl



K9.8-shakl



K9.9-shakl

4-tishli reyka 3-pog’onali gildirakni harakatga keltiradi). Ko‘rsatilgan nuqtalar chiziqli tezligi va tezlanishlari va ko‘rsatilgan g‘ildiraklar burchak tezligi va burchak tezlanishlarini berilgan $t=t_1$ vaqt uchun topib, topilgan kattaliklarni shaklda tasvirlang. Hisoblashlar uchun kerakli kattaliklar K9-jadvalda berilgan.

Natijalar

K9-Topshiriqni bajarish namunasi

Berilgan:

$x_1=25t^2$ *sm,* $R_2=20$ *sm,* $r_2=16$ *sm,* $R_3=32$ *sm,* $r_3=22$ *sm,* $t_1=1$ *sek.*



K9.10-shakl

Topish kerak: $v_1, \omega_2, \omega_3, v_A, v_B, v_C, v_D, v_4, a_1, \varepsilon_2, \varepsilon_3, a_4, a_C, a_D$

Yechish: **Tezliklarni aniqlash** (k9.10 *a*-shakl).

1-yuk ilgarilanma harakat qilgani uchun

$v_1 = \frac{dx_1}{dt} = 50t$, t_1*=1 sek* vaqt uchun

$$v_1 = 50 \cdot 1 = 50 \ sm/s$$

v_1 tezlik pastga yo‘nalgan, uning yo‘nalishi asosida 2- va 3- pog’onali g’ildiraklar burchak tezliklari yo‘nalishlarini aniqlab olamiz.

1-yuk ikkinchi pog‘onali g‘ildirak ichki gardishiga arqon bilan ulangani uchun

$v_1 = \omega_2 \cdot r_2$, bu erdan $\omega_2 = \frac{v_1}{r_2} = \frac{50t}{16} = 3{,}1\ t \ \ 1/s,$

t_1*=1 sek* vaqt uchun $\omega_2 = 3{,}1 \ \ 1/s,$

2- va 3- pog‘onali g‘ildiraklar tashqi tomondan remen vositasida birlashtirilgani uchun tegishib turgan nuqtasida tezliklari tengligidan

$\omega_2 \cdot R_2 = \omega_3 \cdot R_3$ $\omega_3 = \frac{\omega_2 \cdot R_2}{R_3} = \frac{3{,}1t \cdot 20}{32} = 1{,}9$ t .

t_1*=1 sek* vaqt uchun $\omega_3 = = 1{,}9 \cdot 1 = 1{,}9$ *1/s*

Nuqtalar tezliklari miqdorini topamiz.

$v_A = v_1 = 50 \ sm/s, \ v_B = \omega_3 \cdot R_3 = 1{,}9 \cdot 32 = 60{,}8 \ sm/s$

$$v_4 = \omega_3 \cdot r_3 = 1{,}9 \cdot 22 = 41{,}8 \ \frac{sm}{s}$$

Topilgan barcha tezliklarni K9 *a*-shaklda tasvirlab olamiz.

Tezlanishlarni topish (K9 *b*-shakl) . Avvalo 2- va 3- pog’onali g‘ildiraklar burchak tezlanishlarini topib olamiz.

$\varepsilon_2 = \frac{d\omega_2}{dt} = 3{,}1 \ \frac{1}{c^2}; \ \varepsilon_3 = \frac{d\omega_3}{dt} = 1{,}9 \ \frac{1}{c^2};$

1-yuk tezlanishi $a_1 = \frac{dv_1}{dt} = 50 \ sm/s^2$

Topilgan 1-yuk tezlanishi vertikal pastga yo’nalgan. Uning yo’nalishidan foydalanib 2- va 3- pog’onali gildiraklar burchak tezlanishlarini yo’nalishlarini aniqlab iolamiz. 2-pog’onali g’ildirak soat strelkasi aylanishi yo’nalishida, 3-pog’onali g’ildirak esa soat strelkasi aylanishi yo’nalishiga teskari aylanayotganiga etibor berish kerak.

2-pog’onali g’ildirak ichki gardishida yotuvchi A nuqta tezlanishini topamiz.

$$\overrightarrow{a_A} = \overrightarrow{a}_A^{\tau} + \overrightarrow{a}_A^{n}$$

$$a_A^{\tau} + \varepsilon_2 \cdot r_2 = 3{,}1 \cdot 16 = 49{,}6 \ \ sm/s^2$$

$$a_a^{n} = \omega_2^2 \cdot r_2 = 9{,}6 \cdot 16 = 153{,}6 \ \ sm/s^2$$

$$a_A = \sqrt{(a_A^{\tau})^2 + (a_A^{n})^2} = \sqrt{2460{,}2 + 23593} = \sqrt{26053{,}2} = 161{,}4 \ \ sm/s^2$$

3-pog’onali g’ildirak tashqi gardishida yotuvchi B nuqta tezlanishini topamiz.

$$\overrightarrow{a_B} = \overrightarrow{a}_B^{\tau} + \overrightarrow{a}_B^{n}$$

$$a_B^{\varepsilon} = \varepsilon_3 \cdot R_3 = 1{,}9 \cdot 32 = 60{,}8 \ \ sm/s^2$$

$$a_B^{n} = \omega_3^2 \cdot R_3 = 3{,}6 \cdot 32 = 115{,}2 \ \ sm/s^2$$

$$a_B = \sqrt{(a_B^{\tau})^2 + (a_B^{n})^2} = \sqrt{3696{,}6 + 13271} = \sqrt{16967{,}6} = 130{,}2 \ \ sm/s^2$$

4-reyka tezlanishini topamiz

$$a_4 = \varepsilon_3 \cdot r_3 = 1{,}9 \cdot 22 = 41{,}8 \ \ sm/s^2$$



K9.10 a-shakl
Tezliklar grafigi



K9.10 b-shakl
Tezlanishlar grafigi

Topilgan barcha tezlanishlarni K9.10 b-shaklda tasvirlab olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov, Z. S., Daminov, J. A., & Rahimov, A. M. (2018). The Use Of Cluster Method In Lectures On Theoretical Mechanics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol*, *27*, 145-147.
2. Mahmudov, Z. (2021). Application Of Venn Diagrams In Lectures On Theoretical Mechanics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol*, *24*, 219-222.
3. Sotivoldievich, Z. M. (2021). A Way To Increase Students Activity In The Organization Of Lec tures. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol*, *25*, 90-92.
4. Mahmudov, Z. S., & Najmiddinov, I. B. Improving the quality of education on the basis of demonstrations in lectures. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol*, *27*, 80-85.
5. Sotivoldievich, Z. M. (2021). A Method of Assessing Students' Knowledge in Practical Classes. *Design Engineering*, 9573-9578.
6. Sotivoldievich, Z. M., & Rakhimdjanovich, K. V. (2021, December). Demonstration in improving the quality of education. In *Conference Zone* (pp. 304-308).
7. Sotivoldievich, Z. M., & Rakhimdjanovich, K. V. (2021). The Problem Of Organizing Exhibitions Of Theoretical Mechanics Lessons. *Design Engineering*, 9569-9572.
8. Махмудов, З. С. (2021). Применение диаграммы Венна на занятиях. *Электронный инновационный вестник*, (1), 4-5.
9. Sotivoldievich, Z. M. (2021). About a new way of assessing students’ knowledge in lectures. *International Engineering Journal for Research & Development*, *6*(5).
10. Abduvalievich, D. J., Sotivoldievich, M. Z., Mutalovich, R. A., & Biloldinovich, N. I. (2022). ON THE ASSESSMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE IN THE LESSONS OF STRUCTURAL MECHANICS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*, 14-20.
11. Sotivoldievich, M. Z. (2022). The use of venn diagrams in independent study of theoretical mechanics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*, 192-197.
12. Sotivoldievich, Z. M., & Rakhimdjanovich, K. V. (2021). About the Method of Assessing Students' Knowledge. *Design Engineering*, 9579-9585.
13. Махмудов, З. С., Даминов, Ж. А., & Юлдашев, Ф. Ш. (2022). ПРИМЕНЕНИЕ ДИАГРАММЫ ВЕННА НА ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ. *НАУЧНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ «МАТРИЦА НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ*, 44.
14. Махмудов, З. С., & Даминов, Ж. А. (2022). НАЗАРИЙ МЕХАНИКА ФАНИ ДАРСЛАРИНИ КЎРГАЗМАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАСИ. *Scientific progress*, *3*(4), 709-715.
15. Sotivoldievich, M. Z. (2022). AN EFFECTIVE WAY TO ASSESS STUDENT KNOWLEDGE. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 756-761.
16. Mahmudov, Z., Najmiddinov, I., & Yuldasheva, B. (2022). USING THE CONFUSED LOGICAL CHAIN METHOD IN ASSESSING STUDENT KNOWLEDGE. *Solution of social problems in management and economy*, *1*(7), 4-12.
17. Sotivoldievich, M. Z. Mutalovich RA ABOUT A WAY TO EVALUATE STUDENTS’INDEPENDENT LEARNING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN*, 2277-3630.
18. Sotivoldievich, M. Z., & Azamov, K. S. (2023). USING THE CLUSTER METHOD FOR CONDUCTING LECTURES ON THEORETICAL MECHANICS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(02), 1-5.

19. Sotivoldievich, M. Z., & Mutalovich, R. A. (2023). ABOUT A METHOD OF EVALUATING STUDENTS'KNOWLEDGE IN THEORETICAL MECHANICS LECTURES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(02), 6-12.
20. Sotivoldievich, M. Z., & Mutalovich, R. A. (2022). ABOUT A WAY TO EVALUATE STUDENTS’INDEPENDENT LEARNING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*, 165-170.
21. Маҳмудов, З. С. (2023). НАЗАРИЙ МЕХАНИКА ФАНИ КИНЕМАТИКА БЎЛИМИ МАВЗУЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР.
22. Sotivoldievich, M. Z., & Mutalovich, R. A. (2023). ABOUT A METHOD OF EVALUATING STUDENTS'KNOWLEDGE IN THEORETICAL MECHANICS LECTURES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(02), 6-12.
23. Sotivoldievich, M. Z., & Azamov, K. S. (2023). USING THE CLUSTER METHOD FOR CONDUCTING LECTURES ON THEORETICAL MECHANICS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(02), 1-5.
24. Махмудов, З. С., & Даминов, Ж. А. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЛЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ. *Экономика и социум*, (4-2 (107)), 650-654.
25. Маҳмудов, З. С., & Карабаева, М. У. (2023). НАЗАРИЙ МЕХАНИКА ФАНИ ДАРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ БИР УСУЛИ ТЎҒРИСИДА.
26. Sotivoldievich, M. Z. (2023). ASSESSMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE IN CLASSES USING THE METHOD OF CONFUSED LOGICAL CHAINS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *12*(07), 12-21.
27. Sotivoldievich, M. Z. (2023). AN EFFECTIVE WAY TO ASSESS STUDENT KNOWLEDGE IN THEORETICAL MECHANICS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(07), 12-19.
28. Sotivoldievich, M. Z., & Mutalovich, R. A. (2023). USE OF VENN DIAGRAM POSSIBILITIES IN ORGANIZATION OF LESSONS OF THEORETICAL MECHANICS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *12*(08), 27-32.
29. Sotivoldievich, D. M. Z., & Kenjaboevich, D. T. Y. (2023). PRACTICAL CLASSES ON THEORETICAL MECHANICS ARE ORGANIZED IN A VISUALLY APPEALING MANNER. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(10).
30. Махмудов, З. С., & Даминов, Ж. А. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЛЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(10).
31. Maxmudov, Z., & Najmiddinov, I. (2023). NAZARIY MEXANIKA FANI MA’RUZA MASHG’ULOTLARIDA KLASTER USULINI QO’LLASH TAJRIBASIDAN. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(31).
32. Sotivoldiyevich, M. Z. (2023). USING THE KLISTER METHOD IN TEACHING THE KINEMATICS DEPARTMENT OF THEORETICAL MECHANICS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(11).

TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASI

Boburjon Tillabayev, Guljahon Tillabayeva
Farg‘ona Politexnika instituti
boburtillabayeb@gmail.com, sobirjonovaguljahon1998@gmail.com

Anotatsiya: ushbu maqolada texnika fanlarini o‘qitishdainnovatsion yondashuvlar va Flipped learning texnologiyasi haqida ma’lumot kelirilgan. An’anaviy ta’limdan farqli taraflari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar*: ta’lim innovatsiyalari, innovatsion ta’lim, texnologiya, assesment texnologiyasi va flipped classroom*

Kirish

Rivojlanib borayotgan vatanimizning taraqqiyoti har taraflama shu yurtda o‘sib kelayotgan yosh avlodga bog‘liq. Yoshlarning qanday ta’lim va tarbiya olganliklari ertangi kunimizni hal qiluvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun talaba-yoshlarni qanday ta’lim olishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali talabalarning e’tiborini dars jarayoniga jalb qilishga erishish mumkin.

Ta’lim innovatsiyalari-ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasini birinchi bor 1979-yilda “Rim klubida” qo‘llangan.

Ta’lim berishda turli xil usullar mavjud bo‘lib, qay usuldan foydalanishdan qat’iy nazar maqsad bitta ya’ni mavzuni yaxshi tushuntirish va o‘quvchilarga yetkazish. Ko‘p hollarda zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish hamda innovatsion usullarni darsga tatbiq etish, kafolatlangan natijaga tezroq borish imkonini beradi.

Muhokama va natijalar

Texnika fanlarini o‘qitishda turli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bunda misol qilib Flipped classroom texnologiyasini keltirishimiz mumkin. Bu qanday texnologiya va uning afzalliklari qanday, an’anaviy ta’limdan qaysi taraflari bilar farq qiladi degan savollarga javob beramiz.

Flipped Classroomning ijobiy tomonlari vaqt tejalishidir. Chunki ta’limning bu shaklida yangi mavzuning bayoni batafsil tushuntirishga ehtiyoj bo‘lmaydi. Bu vazifani platfomaga oldindan yuklangan videodars, mavzuning audiofayli, mavzuning matnli (word yoki pdf formatida) materiali va PowerPoint taqdimotidan istalganini mustaqil o‘zlashtirish uchun bajaradi. Oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etishda 50 foizga auditorida mashg‘ulotlari kamayadi, bu esa ta’lim muassasasining qamrov imkoniyatlarini teng barobarga oshiradi.

An’anaviy va Flipped learning texnologiyasining farqli jihatlari

An’anaviy ta’lim texnologiyasida o‘qituvchi darsni boshlaydi, uyga vazifani tekshiradi va baholaydi, yangi mavzu bayonini keltiradi,yangi mavzuni turli xil savollar bilan mustahkamlaydi va uyga vazifa beradi.

Flipped learning texnologiyasida esa darsga kirishish yangi mavzuni muhokama qilish orqali boshlanadi, auditoriyadan tashqarida o‘rganib kelingan yangi mavzuni mustahkamlash uchun turli xil topshiriqlar beriladi, yangi mavzuni talabalar bir-biridan , juft va kichik guruhda taqdimotlar orqali o‘rganadi, o‘qituvchi esa nazoratni qo‘llab-quvatlaydi, uyga vazifa qilib esa yana yangi mavzu beriladi asini amalga oshirish sifatida qabul qilingan texnologiya. Bu texnologiyaning mohiyati audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida sinfdan tashqari asosiy nazariy o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish va o‘qituvchi rahbarligida sinfda yangi bilim va ko‘nikmalarni amalda mustahkamlashdan iborat. Texnologiya “teskari sinf”, “aylanma dars”, “o’girilib o‘rganish” deb ham nomlanadi.

Hozirgi kunda kelib deyarli respublikamizdagi barcha oliy ta’lim yurtlarida kredit-modul o‘quv tizimi joriy etilgan. Shuning uchun bu tizimga mos tushadigan texnologiya sifatida bemalol

Flipped learning texnologiyasini keltirishimiz mumkin. Chunki kredit-modul o‘quv tizimida talabalar ko‘proq mustaqil faoliyat yuritadilar.

Bu texnologiyani baholash uchun assessment texnologiyasidan foydalanamiz. “ Assesment” inglizcha so‘z bo‘lib, baho, baholash ma’nosini bildiradi. Assesment texnologiyasi talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama holis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshiriq, baxs-munozara, ijodiy ish, intervyu, test, individual keys, taqdimot ekspert, kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlaridan tashkil topgan.

Tadqidotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki an’anaviy ta’limdan voz kechmagan holda darsni turli xil yangi metod va texnologiyalar orqali to‘ldirib o‘tilsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yanada oshadi. Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishi, ustoz tomonidan talabalar qiziqishini orttirib, ularning ta`lim jarayonidagi faolligini doimiy tarzda rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik guruhlarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o‘yinlar usullarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, noan`anaviy baholash usullaridan foydalanish, ta`lim vositalarini joyida va vaqtida qo‘llash talab etiladi. Taniqli pedagog olim M.N.Mahmutov fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonining an’anaviy sxemasi talabalarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishlarini to‘liq qondira olmaydi. An`anaviy ta`lim texnologiyalariga asoslangan ma`ruza, seminar, sinov darslarining ta`lim jarayonida tutgan o`rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish muvaffaqiyatli kechmoqda.

$$\pi dh cos\alpha\,[1 + h sin2\alpha(2d)] = 0{,}25\,\pi(d_2^2 - d_c^2)\,,$$

где d_c– диаметр стержня клапана.

Принимая $d_2 = d$, получим

$$\pi dh cos\alpha = 0{,}25\,\pi d_2$$

т.е.

$$h \approx 0{,}25\,d\,/cos\alpha \qquad (3)$$

В четырехтактных двигателях величины d и h проверяют по средней скорости газа в проходном сечении согласно уравнения

$$C_m F_n \rho_ц = I_k \cdot W_k \cdot F_{kcp} \cdot \rho_k \qquad (4)$$

Где, C_m и W_k– средние скорости соответственно поршня и газового потока в сечении клапана; F_n и F_{kcp}– площадь поршня и средняя площадь проходного сечения клапана; $\rho_ц$ и ρ_k – массовые плотности газа соответственно в цилиндре и сечении клапана; I_k - число клапанов.

Если $\rho_ц = \rho_k$, то из предыдущего уравнения

$$W_k = F_n \cdot C_m / (F_{kcp} I_k) \qquad (5)$$

В расчетах пользуются не средней площадью проходного сечения клапана, а площадью сечения горловины, считая, что в течение такта впуска (или выпуска) клапан открыт полностью. Тогда

$$W_k = Д2 \cdot Cm\,/\,(d_2 \cdot I_k)$$

Допускаемые средние скорости воздуха или газа во впускных клапанах тихоходных двигателей равны 40-50 м/с, быстроходных 50-90 м/с. Скорости в выпускных клапанах на 20-25% выше.

Принимая коэффициенты истечения равными 0,65-0,75 и учитывая средний подъем клапана $h_{cp} \approx 0{,}6h$, получают средние скорости в 2,5-3 раза выше.

Значение средней скорости газового потока определяют

$$W_k = \frac{v_n \cdot \varphi}{\int F_k dt} \qquad (6)$$

где φ–коэффициент избытка продувочного воздуха; $\int F_k\, dt$ - время полного открытия клапана.

В расчетах скорость получается на 25-35% больше истинной скорости.

Удельная нагрузка на поверхность фаски определяется

$$К_ф = P / [0{,}5 \cdot \pi \cdot e\,(d + d_r) cos\, d_ф]$$

где P – сила, действующая на клапан.

На изнашивание седла значительно влияет скорость посадки клапана (0,3-0,8 м/с).

Температурный зазор S в холодном состоянии может быть задан от начальной окружности кулачка или к её центру. В последнем случае внутренняя окружность радиусом R_H –S (где R_H–радиус начальной окружности) будет сопрягаться профилем кулачка.

Тепловой зазор у двигателей в холодном состоянии

$$S1 = (0{,}03 \div 0{,}05)\, h_1$$

(где h_1– подъем толкателя). Большие значения теплового зазора относятся к двигателям с верхним расположением распределительного вала.

При работе двигателя на холостом ходу тепловой зазор $S_1 \approx (0{,}02 \div 0{,}04)\, h_1$,

при полной нагрузке

$S_1 \geq (0{,}01 \div 0{,}015)\, h_1$.

При заданных углах α_1и α_3 опережения открытия и α_2и α_4 запаздывания закрытия соответственно для впуска и выпуска можно найти углы 2 α_p действия кулачка.

В четырехтактном двигателе

$$2\,\alpha_p = 0{,}5\,(d_1 + 180 + d_2);$$
$$2\,\alpha_p = 0{,}5\,(d_3 + 180 + d_4);$$

в двухтактном двигателе

$$2\,\alpha_p = d_2 + d_4$$

При профилировании кулачка необходимо обеспечить максимальную полноту диаграммы перемещения толкателя при высокой надежности механизма.

В современных двигателях внутреннего сгорания применяются кулачки с выпуклым, тангенциальным и вогнутым профилями, а также так называемые безударные. Кулачки с вогнутым профилем применяются только с роликовыми толкателями.

Выводы

Безударные кулачки обеспечивают следующее:

1. Плавное изменение ускорения толкателя при относительно небольших максимальных значениях положительного и отрицательного ускорения.

2. Минимальную скорость толкателя и небольшое ее изменение в моменты соприкосновения клапана с толкателем после выбора зазора и при посадке клапана на седло.

Используемые литературы

1. Khaydarova O. Khusanov B.E., Normatov Sh.I. On one Method for Assessing the Soil Slopes Stability. AIP Conference Proceedings 2022.Vol.2637.P.030012 https://doi.org/10.1063/5.0119155.
2. Хайдарова О. Апробация метода решения задачи о напряженно-деформированное состояние грунтовых плотин. Научно-технический журнал ФерПИ 2023-г. Т Спец вип №17.
3. Хайдарова О. Умархонов С.И., Норматов Ш.И., Расчет грунтовых плотин при сейсмических воздействиях. Проблеми Механики №4 2021.

4. Хайдарова О.М., Умархонов С.И., Норматов Ш.И. Расчет грунтовых плотин при сейсмических воздействиях // Проблемы механики. Ташкент, 2021.-№4. С. 26-33.

TEXNIKA FANLARI TA’LIMIDA INTERFAOL TEXNIK VOSITALAR VA ULARNING TAHLILI

M.Qosimova, M.Muxtorova
Farg’ona Politexnika instituti qosimovamaxbubaxon22@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar yo‘nalishiga bag’ishlangan bo‘lib, unda turli sohalarda dars beruvchi professor-o‘qituvchilar uchun dars berishning bir qancha interfaol uslubda bo‘lgan zamonaviy usullari hamda dasturiy-texnik vositalarining imkoniyatlari yoritildi. Yoritilgan interfaol muloqot tizimlari dars davomida talabalar bilan bevosita uloqot qilishning zamonaviy dasturiy-texnik vositalari bo‘lib, ular vositasida o‘qituvchi va talabalar (tinglovchilar) orasida real vaqt rejimida to‘g’ridan-to‘g’ri axborot almashinuvi amalga oshiriladi.

Tayanch so’zlar: *Kompyuter va mobil qo‘rilmalar, Activeboard, Interaktiv doska, USB kabel, elektron qalam, dasturiy ta’minot, Interfaol qurilma, magnitli doska, m rker doskasi, sinf doskasi, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar, Overhed-proektor, Portativli overhed-proektorlari.*

Kirish

Kompyuter va mobil qo‘rilmalar bilan birgalikda, ta’lim jarayonida zamonaviy (interfaol) o‘qitish texnik vositalari keng qo‘llanib kelinmoqda. Interfaol vositalar yordamida, yangi mavzuni o‘rganishda, talabalar bilimini mustahkamlashda va tekshirishda, grafika, tovush va zamonaviy texnologiyalari bo‘yicha yaratilgan mul’timedia maxsulotlaridan maksimal darajada unumli foydalanish mumkin. Bunda bilim olish jarayoni qiziqarli va kreativ tus oladi. Quyida zamonaviy o‘qitish texnik vositalarini o‘rganib chiqamiz.

Metodlar

Activeboard (interfaol doska) bu – kompyuter va proektor bilan birgalikda ishlaydigan ta’lim berishning zamonaviy texnik vositasidir. Interaktiv doska tarkibiga interaktiv doskaning o‘zidan tashqari maxsus elektron qalam (stilus), dasturiy ta’minot vositalari (interaktiv doskaning drayveri va maxsus grafik muharrir) hamda USB kabel kiradi.

Tegishli sozlash amallari bajarilib interaktiv doska ishchi holatga keltirilgach, proektor yordamida interaktiv doska yuzasiga tushirilayotgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin. Ya’ni, elektron qalam yordamida kompyuterning grafik interfeysini boshqarish, turli ob’ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob’ektlarni ochish, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Kiritilgan barcha o‘zgartirishlar va yaratilgan yangi ob’ektlarni, ularga kelgusida qo‘shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo‘yish yoki tashqi axborot tash vchi vositalarga ko‘chirib olish mumkin. Interfaol doska maxsus elektron qalam orqali, shuningdek qo‘l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin, bu interfaol doskanining qaysi texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilganligiga bog’liq bo‘ladi. Bunda, maxsus elektron qalam yoki qo‘l barmoqlari kompyuter sichqonchasi kabi ishlaydi.

Interfaol qurilma – bu proektsion doskaga (magnitli doska, marker doskasi, sinf doskasi, sinf devori) yoki proektorning o‘ziga o‘rnatiladigan va har qanday tekis, silliq ishchi yuzani interaktiv holatga keltiradigan elektron qurilmadir. Ular uchun alohida maxsus doska talab etmaydi.

Interaktiv qurilmalar tarkibiga qurilmaning o‘zi, ya’ni maxsus elektron qalamdan chiqayotgan signalni qabul qiluvchi moslama, ushbu qabul qiluvchi moslamaga infraqizil yoki ultratovushli signallarni yuboruvchi elektron qalam, interaktiv qurilma va kompyuterning o‘zaro aloqasini ta’minlovchi USB kabelyoki simsiz qabul qilgich uskunasi, dasturiy ta’minot vositalari kiradi. Ular infraqizil yoki ultratovushli texnologiyalar asosida ishlaydi. Interaktiv qurilmalar bajaradigan vazifasigako‘ra interaktiv doskalarga to‘liq mos keladi.

Lekin, ulardan farqli ravishda mobil qurilma hisoblanadi. Ixcham va yengil bo‘lganligi uchun ularni bir xonadan ikkinchisiga olib o‘tib o‘rnatish mumkin, bu o‘z navbatida bunday qurilmalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Darsdan keyin esa interaktiv qurilmani

yig’ishtirib mas’ul xodimga topshirish yoki o‘qituvchilar xonasidagi belgilangan maxsus joyga olib qo‘yish mumkin.

Interaktiv qurilmalar kompyuterga to‘g’ridan-tog’ri USB kabel orqali yoki simsiz qabul qilgich uskunasi yordamida ulanishi mumkin. Interaktiv rejimda, o‘qituvchi, huddi interaktiv doskadagi kabi keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. hususan:

kompyuterni doska oldida turib boshqarish imkoniyati: Microsoft Office dasturlari bilan ishlash, dars jarayonini oldindan tayyorlangan taqdimotlar, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar bilan nomoyish etish;

interaktiv qurilma dasturiy ta’minotining uskunalari yordamida ekrandagi tasvir ustiga yoki yangi varaq (slayd) ustiga chizish, bo‘yash, rasm solish, yozish, tayyor ob’ektni o‘rnatish, ob’ektlarni kattalashtirish, kichiraytirish, boshqa joyga ko‘chirish, ma’lum bir qismini belgilash imkoniyatlari;

doskada bajarilgan ishlarni fayl ko‘rinishida kompyuter xotirasida saqlash yoki doskada amalga oshirilayotgan barcha jarayonlarni videofayl formatida yozib olish;

o‘zining shaxsiy interaktiv dars ishlanmalarini yaratish, bunda interaktiv qurilmaning dasturiy ta’minot kutubxonasidagi mavjud shablon va tasvirlardan foydalanish;

interaktiv qurilmaning dasturiy ta’minoti tarkibiga kiruvchi tasvirlar kutubxonasini o‘zi tayyorlagan yangi materiallar bilan boyitib borishi va boshqa imkoniyatlar.

ActiveTable (interfaol stol) – o`z aktiv yuzasiga ega qurilma sanaladi. Unga foydalanuvchi talabidan kelib chiqib dasturiy ta’minotlarni yuklab olish mumkin. Bu ta`lim olish, ta`lim berish va turli xil tadbirlar uchun zamonaviy uskunadir. Bu uskuna kishilarda kuchli va qiziq shaklda aks ettirilgani tufayli kuchli taassurot tug`diradi. Bu stolni didga ko`ra 32 dan 55 dyungacha razmerlarda tanlash mumkin. Interaktiv stolning barcha turlari aviatsion alyuminiydan qilinadi va sensorli yuza 6 mm qalinlikdagi shisha bilan qoplanadi.

Interfaol proektor - bu o‘zida interaktiv doskaning imkoniyatlarini mujassam etga proyektordir. Bunday proyektorlar uchun alohida maxsus doska sotib olish talab etilmaydi, tasvirlar proyeksiyasi oddiy sinf doskasiga marker doskasiga yoki sinf devoriga ham tushirilishi mumkin. Oddiy proyektorlardan farqli ravishda interaktiv proyektorlar kompyuterlardan tegishli signallarni qabul qilib tasvirlarni ekranga namoyish qilish bilan bir qatorda, electron qalamning ekrandagi joriy holati va harakatlari to’g’risidagi ma’lumotlarni ham aniqlab kompyuterga yuboradi va kompyuter bilan ikki tomonlama aloqani o‘rnatadi.

Overhed-proektor - A4 formatli shaffof plenkalarga qayd etilgan tasvirlarni yoritib berishda foydalaniladi. Oqirligi va hajmiga qarab, apparatlar portativ, yarim-portativli va ko‘zg’almas modellarga bo‘linadi. Portativli overhed-proektorlari 7 kg oshmaydigan yig’ma tuzilishga ega. Odatda, bunday modeldagilar oson yig’ilishi bilan juda qulay bo‘lib, ko‘chirish uchun maxsus jamlanish sumkachalar to‘plamiga ega.

Hujjat kameralar uncha katta bo‘lmagan, vizual tasvirni yoritib beruvchi fotosurat, slaydlar, hujjatlarni asl nusxasini elektron tasvirini tez fursat ichida namoyon qilib beruvchi oddiy qurilma.

Natija

Kompyuter va mobil qo‘rilmalar bilan birgalikda, ta’lim jarayonida zamonaviy (interfaol) o‘qitish texnik vositalari keng qo‘llanish natijasida professor o’qituvchilar hamda talabalar(tinglovchilar) uchun dars jarayonini tashkillash hamda tushunish jarayonini birmuncha osonlashtirib kelmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Interaktiv kitoblar, elektron o‘quv qo‘llanmalari va masofaviy ta’lim tizimlarni yaratib, ularni ishga tushirganlarni yaxshilab moddiy va ma’naviy taqdirlash ham ularning sifati va soni o‘sishiga ta’sir qilgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Shoyakubov, R. Ayupov. Interfaol ta’lim usullari. Toshkent, «Tafakkur-bo‘stoni» nashriyoti, 2012 yil.

2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma/ Innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot”, 2012. – 154 bet.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, “Nizomiy”, 2003.
4. Qosimova, M. Y., & Yusupova, N. X. (2020). On a property of fractional integro-differentiation operators in the kernel of which the meyer function. *Scientific-technical journal*, *24*(4), 48-50.
5. Kosimova, M. Y. (2022). Talabalarni ta’lim sifatini oshirishda fanlararo uzviyligidan foydalanish. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, *2*(2), 57-64.

TEXNIKA FANLARINI O’QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

S.Qosimova, F.Akbarova
Farg’ona politexnika instituti rustamovasayohat027@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada texnika fanlarini o’qitishda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanishni ahamiyati va samarasi haqida so’z yuritilgan. Yoritilgan metodlar bilan dars davomida talabalar bilan bevosita uloqot qilishning zamonaviy dasturiy-texnik vositalari bo‘lib, ular vositasida o‘qituvchi va talabalar (tinglovchilar) orasida real vaqt rejimida to‘g’ridan-to‘g’ri axborot almashinuvi amalga oshiriladi.

Kalit so’zlar: *O’qituvchi, talaba, muammoli vaziyat, metod, muammoli ta’lim, ishonch, xurmat, ta’lim, mustaqil.*

Kirish

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog’liq bo’lgan bosqichlari mavjud bo’lib, tayyor bilimlarni o’quvchi ongiga yetkazish, yodga olish, yodda saqlash, qayta yodga tushirish, so’zlab berish, fikrni yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini anglatadi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O’zlashtirishning keyingi darajalarida talabalardan olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma’lum natijalarni qo’lga kiritish, to’ldirish, boyitish, o’zgartirish, o’zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo’lish talab etiladi. Bu o’zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Metodlar.

Muammoli ta’limning kelib chiqishi.

Muammoli ta'lim 1969 yilda Kanadaning Makmaster universitetida joriy qilingan o'rganish usulidir. Keyinchalik bu usul menejment, muhandislik, qishloq xo'jaligi va huquq kabi turli fanlarda keng qo'llanila boshlandi. Govard Barrouz bu usulni dastlabki bosqichda boshlagan akademiklardan biri edi. Barrows va boshqalar. (1980) ta'kidlaganidek, bu usul kundalik hayot muammolarini hal qilishda foydali bo'lgan o'quv faoliyatiga qaratilgan. U haqiqiy muammolarga e'tibor qaratadi va o'quvchilarga haqiqiy hayot vaziyatini tushunishga yordam beradi (Allen va boshq., 2011). Bu usul, shuningdek, o'quvchiga yo'naltirilgan namunaviy dars vazifasini ham bajaradi. Muammoli ta’lim usuli kontseptsiyasi tajribaga asoslangan ta'limga urg'u beradigan Kolb nazariyasi, Piaget nazariyasi, konstruktivizm va ijtimoiy o'rganishga qaratilgan Vgotskiy, Lave va Venger, shuningdek, aks ettirish jarayoniga e'tibor qaratuvchi Shon nazariyasi kabi boshqa ta'lim nazariyalarining natijasidir. (Sadlo, 2007). Ushbu uchta nazariyaning kombinatsiyasi muammoli ta'lim modelini tashkil qiladi. Bu usul, shuningdek, o'quvchilarga fikrlash va mustaqil ta'limni amalga oshirish imkoniyatini beradigan ta'lim shakli sifatida ham tanilgan. Kitsantas (2013) ta'kidlashicha, bu usul o'quvchilarga turli xil o'quv resurslaridan foydalangan holda taqdim etilgan muammolar yoki muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ta'lim kontekstida o'qituvchilar o'quvchilarga ularni hal qilish uchun yo'l-yo'riq va tegishli muammolarni taqdim etish orqali yordamchi rol o'ynaydi. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar faol ravishda izlanishlari va o'qituvchi tomonidan berilgan muammolarni hal qilishda muhim bo'lgan boshqa muqobil yechimlarni o'ylab ko'rishlari kerak (Hmelo-Silver, Duncan va Chinn, 2007).. Shuningdek, o'qituvchilardan darslarni

to'g'ri rejalashtirish va aniq o'quv maqsadlarini belgilash talab qilinadi. Bu muammo yoki muammolarni o'quvchilar tomonidan hal qilinishini ta'minlash uchundir. Grant (2011) ta'kidlaganidek, bu usul ham o'quvchilarning o'qishga bo'lgan intilishini oshirishga qodir. Buning sababi shundaki, yondashuv jamoaviy faoliyatga, guruh a'zolari o'rtasida yaxshi muloqotga, muammolarni o'rganishga va muammo yoki muammolarni hal qilish uchun ma'lumot izlashga qaratilgan. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlari o'rganishlari uchun javobgardirlar va ular ushbu muammoni hal qilish uchun guruh a'zolari o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashlari kerak. Shu bilan birga, Muammoli ta’lim o'quvchilarga o'z ta'lim vaqtlarini oqilona boshqarishga yordam beradi, chunki ular Grant (2011) tomonidan tavsiya etilgan ma'lum vaqt asosida berilgan topshiriqni bajarishlari kerak.. Shunday qilib, Piaget (1983) ushbu uslubni sinfda qo'llashda ba'zi asosiy elementlarni taklif qildi, ular:

1) Talabalarga o'z ta'limini rejalashtirishda mas'uliyat yuklanadi.
2) Muammo bu usulda asosiy kalit hisoblanadi.
3) O'qituvchilar fasilitator sifatida ishlaydi.
4) O'quvchilar mulohaza yuritishlari kerak.
5) Muammoni hal qilish jarayonida o'quvchilar nimanidir o'rganishlari kerak.

Bundan tashqari, Graff va Kolmos (2003) ushbu usulda to'qqizta asosiy tamoyilni sanab o'tdilar:

1) Muammo asosiy element hisoblanadi.
2) Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim.
3) O'qituvchilar o'quvchilarning haqiqiy hayoti bilan bog'liq muammolarni yaratishda rol o'ynaydi.
4) Muammo kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak.
5) Muammoni hal qilish jarayonida o'quvchilar qiziqish bildiradilar.
6) Bu metodning negizi o’quv faoliyatidir.
7) O‘quvchilarning mavzuni tushunish foizi yuqoriroq.
8) Guruh a'zolari o'rtasidagi hamkorlik.
9) Faol va reflektiv ta'lim shakli.

Muammoli ta’limning kelib chiqishini muhokama qilishda Boud va Feletti (1997) shunday dedilar: Muammoli ta’lim bugungi kunda ma'lum bo'lganidek, 40 yil oldin Shimoliy Amerikada sog'liqni saqlash fanlari bo'yicha innovatsion o'quv dasturlari asosida kiritilgan. Tibbiyot ta'limi, asosiy fan ma'ruzalarining intensiv namunasi va bir xil darajada to'liq klinik o'qitish dasturi bilan, tibbiy ma'lumotlar va yangi texnologiyalarning porlashi va kelajakdagi amaliyotning tez o'zgaruvchan talablarini hisobga olgan holda, talabalarni tayyorlashning samarasiz va g'ayriinsoniy usuliga aylantirdi. Kanadadagi Makmaster universitetining tibbiyot fakulteti o'quv jarayonini nafaqat o'ziga xos o'qitish usuli (Barrows & Tamblyn, 1980), balki talabalarga yo'naltirilgan, ko'p tarmoqli ta'lim va umrbod ta'limni targ'ib qiluvchi butun o'quv dasturini tuzish uchun falsafasining markaziy qismi sifatida joriy etdi.

Natija

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog’liq bo’lgan bosqichlari mavjud bo’lib, tayyor bilimlarni o’quvchi ongiga yetkazish, yodga olish, yodda saqlash, qayta yodga tushirish, so’zlab berish, fikrni yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini anglatadi. Natijada talabalar muammoli ta’lim jarayonida yuqorida keltirilgan misollarni amalga tadbiq qilish orqali o’zi o’zlashtirayotgan fanni chuqur o’rganishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muammoli ta’lim tushunchasi o‘qitishning o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limga yo‘naltirilgan shakli bo‘lib, hayotiy muammolar yoki muammolarga asoslanadi. Berilgan muammolar yoki masalalar haqiqiy, qiyin, murakkab va kutilmagan bo'lishi kerak. Ushbu usulda faoliyat va yondashuvlarni amalga oshirish keng bo'lishi kerak, lekin baholash o'quvchilarning yuqori darajadagi bilimlarni qo'llash qobiliyati darajasini baholaydigan aniq mezonlar asosida amalga oshirilishi kerak (Hmelo-Silver va boshqalar, 2007). Boshqa

tomondan, ushbu uslubni amalga oshirish an'anaviy ta'lim paradigmasini 21-asr ta'limiga o'zgartirishi mumkin. Shunday qilib, ta’lim tizimining sifati boshqa rivojlangan davlatlar qatorida birgalikda oshadi. Muammoli ta'lim turli sohalarda va ta'lim kontekstlarida tanqidiy fikrlashni va haqiqiy ta'lim vaziyatlarida muammolarni hal qilishni rivojlantirish uchun keng qo'llanilgan. Uning ish joyidagi hamkorlik va fanlararo o'rganish bilan yaqin aloqasi uning klinik ta'limning an'anaviy doirasidan tashqariga, texnika fanlari, texnik tadqiqotlari va muhandislik kabi amaliy fanlarni yoritilishida yordam berdi. Turli ta'lim va tashkiliy sharoitlarda muammoli ta’lim amaliyotining o'sib borishi va mashhurligi bilan birga talabalarning bilim olish sifati va uning o'z-o'zini boshqarish odatlarini, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va chuqur intizomli bilimlarni rivojlantirishga ko'zlangan natijaga erishish darajasini o'rganuvchi tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Muammoli ta'lim bo'yicha oldingi tadqiqotlarning aksariyati ushbu yondashuvning o'quv rejasidagi ta'sirini o'rganib chiqgan va so'nggi tadqiqotlar muammoli ta'lim ichidagi jarayonlar qanday ijobiy ta'lim natijalariga olib kelishini chuqurroq o'rganish lozim. Ushbu maqolada muammoli ta'limning samaradorligi va ta'siri hamda talabalar bu jarayonda qanday o'rganishlari bo'yicha bir qator tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, Muammoli ta'lim bu o'quvchilarga mazmunli muammolar bilan faol qatnashgan holda o'rganish imkonini beruvchi pedagogik yondashuvdir. Talabalarga hamkorlikda muammolarni hal qilish, o'rganish uchun aqliy modellarni yaratish va amaliyot va mulohaza yuritish orqali mustaqil o'rganish odatlarini shakllantirish imkoniyati beriladi. Demak, muammoli ta'limning asosi shundan iboratki, o'rganish "Konstruktiv, o'z-o'zini boshqaradigan, hamkorlik va kontekstual" faoliyat deb hisoblanishi mumkin. Konstruktivizm printsipi o'quvchilarni faol bilim izlovchilar va birgalikda yaratuvchilar sifatida joylashtiradi, ular oldingi bilimlar yordamida shaxsiy aqliy tasavvurlar yoki sxemalarga yangi tegishli tajribalarni tashkil qiladi. Bu kognitiv rivojlanishdagi ijtimoiy o'zaro ta'sirning afzalliklarini ilgari suradigan o'rganishning ijtimoiy nazariyalari bilan yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
2. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ
3. СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ
4. ЗДАНИЯ. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10(2), 14.
5. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, “Nizomiy”, 2003.
6. Qosimova, M. Y., & Yusupova, N. X. (2020). On a property of fractional integro-differentiation operators in the kernel of which the meyer function. *Scientific-technical journal*, *24*(4), 48-50.
7. Kosimova, M. Y. (2022). Talabalarni ta’lim sifatini oshirishda fanlararo uzviyligidan foydalanish. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, *2*(2), 57-64.

LABORATORIYALAR AKKREDITATSIYASI - TARAQQIYOT POYDEVORI

Jaxongir Kuldashev

Andijon mashinasozlik institute, firdavsiyhoji@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Laboratoriya akkreditatsiyasi iste’molchilarning laboratoriya bajara oladigan ish sifati va malakasiga ishonchini ta’minlashning muhim mexanizmi haqida bir qancha ma’lumotlar keltilgan. Shuningdek Laboratoriya akkreditatsiyasining asosiy maqsadi o‘lchovlarning bir xilligini ta’minlash hamda o‘lchovlar, sinovlar va tadqiqotlar natijalarini o‘zaro tan olish kabi ma’lumotkar keng yoritilgan.

Tayanch so‘z iboralar. *ILAC/IAF, ISO/IEC 17025, Laboratoriya akkreditatsiyasi, o‘lchov vositalari, sinov uskunalari, texnik shartlar, Butunjaxon Savdo Tashkiloti*

Kirish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sinov va kalibrlash laboratoriyalarini xalqaro talbalarga har tomonlama uyg‘unlashuvini ta’minlash, o‘lchash natijalari aniqligi va ishonchliligini oshirish, faoliyat jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “...muvofiqlikni baholash organlari xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a’zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarini Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan qoplab berish tizimini joriy etish...” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan sinov laboratoriyalari faoliyatini ta’minlash va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Biroq, Butunjaxon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish uchun barcha mahalliy ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlarning faoliyatlari 70% dan yuqori qismi xalqaro darajadagi standartlarga muvofiqlashgan bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazaridan sinov laboratoriyalarning kompetentligini xalqaro ISO 17025 standarti talablari asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Metodlar

Yurtimizda mahsulot sifati va xavfsizligiga e’tibor hozirgi kundagi ustivor va dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda [1-5]. Xalqaro standartlar [6-10] talablariga muvofiq sinov laboratoriyalarini faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash turli korxona va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifati va xavfsizligini nazorat qilish imkoniyatini oshiradi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning tajribalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, sinov laboratoriyalarini ISO/IEC 17025 xalqaro standarti asosida akkreditatsiyadan o‘tkazish yuzaga kelayotgan muammolarini hal qilish uchun muhim qaror hisoblanadi [10].

Laboratoriyani akkreditatsiya qilish laboratoriya qanday ishni bajarishiga va ushbu laboratoriya qanday maqsadlarda yaratilganiga qarab farq qilishi mumkin. Barcha laboratoriyalar o‘z vazifalarini hal qilish uchun akkreditatsiyani talab qilmaydi. Asosan, natijalari bozorning boshqa ishtirokchilari yoki professional hamjamiyat tomonidan tan olinishi kerak bo‘lgan laboratoriyalar uchun akkreditatsiya zarur. Laboratoriya akkreditatsiyasi qilishdan oldin oldimizga quyidagi maqsadlarini aniqlab olamiz.

Laboratoriya akkreditatsiyasi iste’molchilarning laboratoriya bajara oladigan ish sifati va malakasiga ishonchini ta’minlashning muhim mexanizmlaridan biridir. Akkreditatsiya — laboratoriyaning sinov, o‘lchov yoki tadqiqot sohasidagi mijozlar talablariga javob berish qobiliyatini, shuningdek, uning muayyan turdagi sinovlar va o‘lchovlarni amalga oshirishdagi texnik vakolatlarini rasman tan olishni anglatadi [2].

Laboratoriya akkreditatsiyasining asosiy maqsadi o‘lchovlarning bir xilligini ta’minlash hamda o‘lchovlar, sinovlar va tadqiqotlar natijalarini o‘zaro tan olish bilan bog‘liq. Agar laboratoriya ma’lum bir faoliyat sohasida akkreditatsiyadan o‘tgan bo‘lsa, bu uning ishining natijalari aniq va ishonchli ekanligini anglatadi [3].



1-rasm. Sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish doirasini aniqlash tartibi

Laboratoriya akkreditatatsiyasi bir qator imtiyozlarni beradi. Ushbu afzalliklar laboratoriyaning marketing pozitsiyalari, ishni ichki tashkil etish, mijozlar va laboratoriya xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq.

Laboratoriya akkreditatsiyasining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

• laboratoriya akkreditatsiya qilingan hududda mijozlar va iste’molchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish kafolatlari;

• akkreditatsiya organi tomonidan muntazam tekshiruvlar o‘tkazish orqali faoliyatni doimiy ravishda takomillashtirish;

• bozor ishtirokchilari tomonidan laboratoriya ishi natijalarini tan olish orqali bozor ulushini kengaytirish;

• laboratoriya malakasini isbotlashga sarflanadigan vaqtni qisqartirish;

• akkreditatsiya organi tomonidan muntazam tekshiruvlar o‘tkazish orqali xodimlarning malakasi va malakasini oshirish.

Laboratoriyani akkreditatsiya qilish laboratoriyaning o‘zi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu protsedura uning belgilangan standartlar va qabul qilingan ish normalariga muvofiqlik darajasini aniqlash imkonini beradi[4]. Bu, ayniqsa, ushbu korxonalarning aniq vazifalari uchun yaratilgan korxonalarning shaxsiy laboratoriyalari uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish uchun hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi (2-rasm)

Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish ushbu ob’ektlarda olingan natijalarning ishonchliligi va to‘g‘riligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Laboratoriyalar sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, oziq-ovqat xavfsizligi, mashinasozlik va boshqa sanoat ishlab chiqarish kabi keng sohalarda muhim rol o‘ynaydi. ISO/IEC 17025 xalqaro standarti sinov laboratoriyalarining malakasi, xolisligi va izchilligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [5]. Biroq, ushbu standartning mavjudligiga qaramay, sinov laboratoriyalari hali ham muvofiqlik va doimiy takomillashtirish bo‘yicha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu ishning maqsadi ISO/IEC 17025 standartiga muvofiq sinov laboratoriyalarining ishlashini ta’minlash va yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan turli usullar va strategiyalarni o‘rganishdir.

Sinov laboratoriyalari har xil turdagi mahsulotlar va materiallarning me’yoriy hujjatlar (standartlar, qoidalar, texnik shartlar va boshqalar) talablariga muvofiqligini nazorat qilish va sinovdan o‘tkazishni amalga oshiradi. Sinovdan maqsad mahsulotning bozorga chiqarilishi va undan xavfsiz foydalanishi va ishlatilishini ta’minlashdan iborat [6]. Sinov laboratoriyasining akkreditattsiyasi ushbu ishlarni xalqaro standartlar darajasida amalga oshirish imkonini beradi, bu esa barcha bozor ishtirokchilari tomonidan olingan natijalar tan olinishini ta’minlaydi.



2-rasm. Sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish uchun hujjatlar

Sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish turli akkreditatsiya tizimlarida amalga oshirilishi mumkin. Tizimni tanlash sinov laboratoriyasining faoliyati bilan bog‘liq bir qator omillarga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan

o‘tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 24 apreldagi 349-sonli qaroriga asosan akkreditatsiyabo‘yicha ishlarni olib borish O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” DUK milliy akkreditatsiya tizimida amalga oshiriladi.

Sinov laboratoriyalari turli mahsulotlar va xizmatlarning sifati va xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [7]. Ushbu laboratoriyalar sinovlarni o‘tkazish, ma’lumotlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan aniq natijalarni taqdim etish uchun javobgardir. ISO/IEC 17025 kabi xalqaro standartlarga muvofiqlik ushbu laboratoriyalar ishonch va ishonchlilikka erishish uchun zarur. Ushbu standartlarga rioya qilgan holda, sinov laboratoriyalari o‘zlarining sinovlarida o‘zlarining malakasi, xolisligi va izchilligini namoyish etishlari mumkin. Bunday muvofiqlik, shuningdek, global miqyosda sinov usullarining uyg‘unligini va muvofiqligini ta’minlaydi. Xalqaro standartlar nafaqat laboratoriyalar uchun umumiy asos bo‘libgina qolmay, balki texnik imkoniyatlarni yaxshilashga, natijalarning to‘g‘riligini ta’minlashga va mijozlar ehtiyojini qondirishga yordam beradi. Shunday ekan, sinov laboratoriyalarining samarali va to‘g‘ri ishlashi uchun xalqaro standartlarga muvofiqligi juda muhim.

ISO/IEC 17025 xalqaro standart bo‘lib, sinov va kalibrlash laboratoriyalarining malakasiga qo‘yiladigan umumiy talablarni belgilaydi. Bu laboratoriyalar doimiy ravishda aniq sinov natijalari va kalibrlash o‘lchovlarini taqdim etishini ta’minlash uchun asos yaratadi. ISO/IEC 17025 ning ahamiyati uning sinov laboratoriyalari ishiga ishonchni singdirish qobiliyatidadir. Ushbu standartga rioya qilish laboratoriyada to‘g‘ri va ishonchli natijalarni ta’minlash uchun zarur jihozlar, qurilmalar, xodimlar va protseduralarni o‘z ichiga olgan sifat menejmentining kompleks tizimini yaratganligi va joriy etilganligini ko‘rsatadi. Ushbu standart nafaqat laboratoriyalarning o‘zlari, balki sinov va kalibrlash xizmatlarining sifati va yaxlitligiga tayanadigan mijozlari, tartibga soluvchi organlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham muhimdir.

Bundan tashqari, ISO/IEC 17025 laboratoriya sinovlari natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun spetsifikatsiyalar va boshqaruv nazorati bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Texnik talablar xodimlarning malakasi, uskunalarni kalibrlash va usullarni tekshirish kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Laboratoriyalar hujjatlashtirilgan sifat nazorati tartib-qoidalarini o‘rnatishi va xodimlarning malakali bo‘lishini va testlarni to‘g‘ri bajarish uchun o‘qitilishini ta’minlashi kerak [8]. Uskunani to‘g‘ri saqlash va kalibrlash xatolarning oldini olish va ishonchli natijalarni ta’minlash uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, sinov usullarini tekshirish ularning mo‘ljallangan maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun zarur. ISO/IEC 17025 standartiga rioya qilgan holda, sinov laboratoriyalari o‘z natijalarining sifati, izchilligi va solishtirilishini ta’minlab, global sinov standartlarini umumiy yaxshilanishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tish uchun sinov laboratoriyasi tanlangan akkreditatsiya doirasiga nisbatan akkreditatsiya mezonlariga to‘liq javob berishi kerak. Agar taxlil qilsak, O‘zbekiston Akkreditatsiya markazi tamonidan 2023 yil iyul oyigacha 12 ta kalibrlash va 206 ta sinov laboratoriyalarini ISO/IEC 17025:2017 bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tkazilganligini ko‘rishimiz mumkin.





3-rasm. Akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalar.

Sinov laboratoriyasini akkreditatsiyadan o‘tkazishda vakolatli tashkilot e’lon qilingan akkreditatsiya doirasining belgilangan mezonlarga to‘liq muvofiqligini tekshiradi. Agar mezonlar buzilgan bo‘lsa, laboratoriya akkreditatsiyadan o‘ta olmaydi.

ISO/IEC 17025 xalqaro standart bo‘lib, sinov va kalibrlash laboratoriyalarining malakasiga umumiy talablarni belgilaydi. U bunday laboratoriyalarni boshqarish tizimi, xodimlar, jihozlar va uskunalar bo‘yicha yo‘riqnomalarni belgilash orqali ularni saqlash va faoliyatini yaxshilash uchun asos yaratadi. Standart sinov va kalibrlash jarayonlarida xolislik, maxfiylik va tasdiqlangan usullardan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi. ISO/IEC 17025 standartiga rioya qilgan holda, laboratoriyalar o‘zlarining malakasi va ishonchliligini namoyish etishlari mumkin, bu esa o‘z natijalarining aniqligi va ishonchliligiga layoqatliligni va ishonchni oshiradi. Bundan tashqari, ushbu standartga rioya qilish laboratoriyalarga xalqaro malaka sinov dasturlarida ishtirok etish imkonini beradi va ularning sinov hisobotlari va kalibrlash sertifikatlarini global darajada tan olishni osonlashtiradi. Umuman olganda, ISO/IEC 17025 butun dunyo bo‘ylab sinov va kalibrlash usullarini uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

ISO/IEC 17025 ning asosiy maqsadlari sinov laboratoriyalarining malakasi va izchilligini ta’minlash, shu orqali ularning sinov natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashdan iborat. Standart akkreditatsiya olish uchun laboratoriyalar bajarishi kerak bo‘lgan maxsus talablarni belgilaydi [9]. Bu talablar malakali ishchi kuchining mavjudligi, tegishli sinov usullari va jihozlaridan foydalanish, sifat menejmenti tizimini saqlab turish, malaka sinovlari va laboratoriyalararo taqqoslashlarda muntazam ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. ISO/IEC 17025 standartiga rioya qilgan holda, sinov laboratoriyalari sifat va doimiy takomillashtirishga sodiqligini namoyish etishi va shu orqali mijozlari hamda manfaatdor tomonlariga ishonch uyg‘otishi mumkin. Ushbu standartning maqsadi sinov laboratoriyalarining malakasi va ishonchliligini xalqaro tan olish va qabul qilishga ko‘maklashish, natijada sinov usullarini global uyg‘unlashtirishga yordam berish va adolatli savdoni rag‘batlantirishdir.

Natijalar

Sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish jarayoniga o‘tishdan oldin bir qator dastlabki tadbirlarni amalga oshirish kerak [10]. Keyingi harakatlar ularning natijalariga bog‘liq bo‘ladi Akkreditatsiyadan manfaatdor bo‘lgan sinov laboratoriyalariga quyidagi mezonlar qo‘llaniladi

- sinov uchun binolarning e’lon qilingan akkreditatsiya hajmiga muvofiqligini tasdiqlash;
- o‘lchov vositalari, sinov uskunalari va sinov uchun yordamchi uskunalarning e’lon qilingan akkreditatsiya hajmiga muvofiqligini tasdiqlash;
– standart namunalarning e’lon qilingan akkreditatsiya doirasiga muvofiqligini tasdiqlash;
- me’yoriy hujjatlarning mavjudligi (o‘lchov usullari, GOSTlar va boshqalar);
- SLda o‘qitilgan va malakali kadrlarning mavjudligi (asosiy ta’lim, ish tajribasi, malaka oshirish).

Shu o’rinda laboratoriyada hujjatlarni boshqarish jarayonining mazmunini eng to‘liq tushunish boshqaruvga funksional yondashuv asosida olinishi mumkin. Ma’lumki, har qanday boshqaruvda quyidagi umumiy funksiyalar amalga oshiriladi: rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish va hisobga olish. Hujjatlarni boshqarish bilan bog‘liq ravishda ushbu

funksiyalarni batafsil bayon qilish bizga ushbu holatda talab qilinadigan ishlarning tarkibi va ketma-ketligini o‘rnatishga imkon beradi, ular 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Hujjatlarni boshqarish bo‘yicha ishlar ko‘lami

Hujjatlarni boshqarishning asosiy bosqichlari	**Hujjatlarni boshqarish bo‘yicha ishlar**
Hujjatlarni ishlab chiqishni rejalashtirish	Hujjatlarni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish rejalarini ishlab chiqish
Hujjatlarni ishlab chiqishni tashkil etish	Hujjatlarni ishlab chiqish; Hujjatlarni tasdiqlash; Hujjatlar bilan tanishtirish; Foydalanuvchilarga hujjatlarni taqdim etish.
Hujjat nazorati	Hujjatlarni taqdim etish va rasmiylashtirishning to‘g‘riligini nazorat qilish; Hujjat talablariga muvofiqligini tekshirish.
Hujjatlarni tartibga solish	Hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish; Hujjatlarni saralash; Hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish; Hujjatlarni ish tartibida saqlash; Hujjatlarni bekor qilish.
Hujjatlarni hisobga olish	Hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish; Hujjatlarni saqlash; Hujjatlarni yo‘q qilish.

Hujjatlarni ishlab chiqishni rejalashtirish SL sifat xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Hujjatlarni ishlab chiqish (va qayta ko‘rib chiqish) uchun har yili tuziladigan jadvallar barcha manfaatdor SL bo‘limlari rahbarlari bilan kelishiladi. Rejalashtirish jarayonida har bir alohida hujjat uchun 1-jadvalda ko‘rsatilgan barcha ishlarni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar (mansabdor shaxslar) aniqlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda akkreditatsiya qilish, sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash, inspeksiya nazorati,yukni ortishdan oldin yoki yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya (nazorat), mahsulot sinovi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariyaxulosalari yoki ekologik ekspertiza orqali amalga oshirilishinatijasida, muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili muvofiqlikni baholash sohasidagi tashkiliy hamda texnik talablarni, ishlarni bajarish va rasmiylashtirish tartibini, usullarini o‘z ichigaoladi. Shuningdek, akkreditatsiya qoidalarini import qilinadigan tovarlar va xizmatlarga ham, eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlargaham qo‘llash muhim kasb etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. ISO 9000:2015 Системы менеджмента качества. Основные положения и словарь.
2. ISO 9001:2015 Системы менеджмента качества. Требования.
3. ISO 14001:2015 Environmental management systems — Requirements with guidance for use
4. ISO/IEC 17025:2017 General requirements for the competence of testing and calibration laboratories.
5. ISO 19011:2018 Руководящие указания по аудиту систем менеджмента.
6. IATF 16949:2016 Quality management systems. Quality management system requirements for automotive production and relevant service parts organizations. International Automotive Quality Management System Standard.
7. ISO 22000:2018 Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimlari.
8. Oziq-ovqat mahsulotlari yaratish zanjirida ishtirok etuvchi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar. ISO 50001:2018 Системы энергетического менеджмента Требования и руководство по применению.

9. Мамажонов А.А., Кулдашев Ж.У./ Menejment tizimlarida yetakchini o‘rni/ Polish Science Journal № 7(40), Warsaw: Sp.zo.o. “iSciense” 2021, 67-71p.
10. Mamajonov A.A. Abdujabborov O. O. /Sifat menejmenti tizimlarini yuqori rahbariyat tomonidan tahlillash/ The journal of academic research in educational sciences. ISSN 2181-1385. Volume 2, Issue 10. September 2021 Academic Research, Uzbekistan, www.ares.uz 971-982 b.

OLIY TEXNIK TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI O‘QITISHDA INTERFAOL “FASILITATSIYA” USULI MOHIYATI

Gulnozaxon Alimjonova
Farg‘ona politexnika instituti, g.alimjonova@ferpi

Annotatsiya: Maqolada interfaol ta'lim usullaridan biri “fasilitatsiya” haqida so’z boradi. Usulning mohiyati tavsiflanadi, metodni qo'llash maqsadlari shakllantiriladi, o'quv jarayoniga moslashish imkoniyatlari, o'qituvchining "fasilitator" va "moderator" o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *interfaol ta'lim, interfaol ta'lim usuli, guruh ishini tashkil etish, fasilitator, fasilitatsiya*

Kirish

Zamonaviy sharoitda oliy texnika ta’lim muassasalari talabalarida fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta’lim amaliyotida ta’limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o‘qitish texnologiyalari ajratib ko‘rsatiladi.

Oliy texnik ta’lim muassasalari talabalarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashda an’anaviy ish turlari bilan bir qatorda mustaqil o‘quv bilish faoliyatini tashkil etishning **fasilitatsion ta’lim texnologiyasi**ni ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Oliy texnik ta’lim muassasalari talabalarida texnoetik madaniyatni rivojlantirishda mustaqil ta’lim muhim o‘rin egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim deganda, shunday o‘quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta’minlanadi.

Fasilitatsiya so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, facilitate – yordam berish, yengillashtirish, kuchaytirish degan ma’nolarni anglatadi. Fasilitatsiya – talabaga ijobiy ta’sir etish yo‘li bo‘lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta’lim oluvchilarni o‘z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlarida ularni qo‘llab quvvatlashdir.

Metodlar

Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning ijtimoiy va pedagogik turlari ajratilib ko‘rsatiladi. Ijtimoiy fasilitatsiya ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilitatsiya lotin tilida – “socialis facilitar” – ijtimoiy qulaylashtirish degan ma’noni anglatadi. Pedagogik fasilitatsiya esa ta’lim oluvchilarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash asosida ta’limning (o‘qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog tomonidan alohida muloqot usulining pedagogik jarayonda qo‘llanilishi natijasida sifat jihatdan rivojlanishga erishiladi.

Fasilitatsiyaning qo‘llash mumkin bo'lgan usullari: “Open Space”("Ochiq maydon") texnologiyasi, "xalqaro kafe" texnologiyasi, dinamik yordam, klassik aqliy hujum, Delfi usuli, Walt Disney strategiyasi, salbiy aqliy hujum, osonlashtirilgan muhokama, "idea-log" texnologiyasi, "scamper", uzum kokteyllaridan iboratdir.

Fasilitatsiya ta’lim metodini qo‘llash 1 soatdan 3 kungacha davom etishi mumkin. Guruh hajmi: 8 dan 50 gacha ishtirokchilar.

Fasilitatsiya usulidan foydalanish uchun "Fasilitatsiya" ko'rinishidagi guruh ishining usuli tashkiliy rivojlanish, o'quv jarayoni (konferentsiyalar, seminarlar) dagi masalalarini muhokama qilishdadan iboratdir.

Ma’lumki, pedagogik fasilitatsiyaning asosini talabalarning guruhlardagi hamkorlikda ishlash faoliyati tashkil etadi. Oliy texnik ta’lim talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish bilan

bog‘liqlikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, talabalarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularda kommunikativ kompetentsiyani tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ana shu jihatni hisobga olgan holda, tadqiqot doirasida talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik fasilitatsiya asosida mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqildi.

1-jadval

Pedagogik fasilitatsiya asosida mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyasi

Bosqich-lari	darajalari			
	Tanishuv	Tushunish	Analiz	Sintez
Kognitiv	Mustaqil ta`lim topshirig‘i orqali talabalarda avval o‘rganilganlarini esga tushirish va guruhlashtirish ehtiyoji shakllanadi	Talabada mustaqil ta`lim topshirig‘ida bayon etilgan muammoni ichki ifoda etish rag‘bati hosil bo‘ladi	Talabada mustaqil ta`lim topshirig‘ida aks etgan muammo yechimini o‘ylab topishga qiziqish paydo bo‘ladi	Talabada mustaqil ta`lim topshirig‘ida aks etgan muammo yechimini taklif etish istagi tarkib topadi
Faoliyatga doir	Talaba mustaqil ta`lim topshirig‘ida aks etgan asosiy tushunchalarni belgilab oladi.	Talaba mustaqil ta`lim topshirig‘ida bayon etilgan vaziyatni sharhlaydi	Talaba mustaqil ta`lim topshirig‘ini bajaradi va o‘zining fikrlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi.	Talaba mustaqil ta`lim yechimini izlab topadi.
Aksiologik	Mustaqil ta`lim echimini bayon etadi.	Mustaqil ta`lim topshirig‘i echimini amalda ko‘rsatib beradi.	Mustaqil ta`lim topshirig‘idagi muammo mohiyatini ochib beradi.	Mustaqil ta`lim topshirig‘i bilan bog‘liqlikda o‘z xulosalarini taklif etadi.

Texnologiyaning mazmuni o‘zida kognitiv – faoliyatga doir – aksiologik birligi va ana shu bosqichlarni har birida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘luvchi mustaqil ishni amalga oshirish darajalari (tanishuv, tushunish, analiz, va sintez)ni aks ettiradi.

Texnologiyaning axboriy-didaktik ta’minoti pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish shakl, metod va vositalarini o‘zida aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval

Pedagogik fasilitatsiya vositasida oliy texnik ta’lim muassasalari talablarining mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasining axboriy-didaktik ta’minoti

Texnologik bosqichlar	**Shakllar**	**Fasilitatsion ta’lim strategiyalari**	**Vositalar**
Kognitiv	Individual, juftliklarda ishlash, guruhli, jamoaviy, trening, dars va darsdan tashqari ish shakllari	Erkin yozish, besh minutlik esse, asoslangan esse, o‘n minutlik esse	Darslik, ommaviy axborot vositalari, elektron o‘quv moduli, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar, axborot texnologiyalari
Faoliyatga doir		Ikki qismli kundalik, o‘qitish bo‘yicha qo‘llanma, tushunchalar tahlili, ijodiy test	
